

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

Axmad BAXRIYEV

**MUSIQIY PEDAGOGIKA VA
PSIXOLOGIYA**

*5111000-Kasb ta‘limi 5150600-Vokal san‘ati (turlari bo‘yicha);
5111000-Kasb ta‘limi 5150700-Cholg‘u ijrochiligi
(turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishlari uchun
O‘quv qo‘llanma*

«Musiqqa» nashriyoti
Toshkent
2019

85.315ya73

B 37

Baxriyev, Axmad.

Musiqiy pedagogika va psixologiya [Matn]: o'quv qo'llanma / A. Baxriyev. - Toshkent: Musiqa, 2019. - 176 b.

UO'K 78:37:159(075.8)

KBK 85.315ya73

O'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 2 maydagi 394-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi" asosida chop etilgan.

Mas'ul muharrir: **Qodirov R.G'.**, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar: **Abdullayeva B.S.**, Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Qurbonova G.A., O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Musiqiy pedagogika" kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

Annotatsiya

Musiqiy pedagogika va psixologiya fani musiqiy faoliyatlar jarayonidagi psixologik holatlar borasida ma'lumotlarga ega bo'lish va ularni nazorat qilish, musiqiy faoliyatlar pedagogikasi va psixologiyasi borasida bilimlarni singdirishga yo'naltirilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriyasining bakalavriat 5111000-Kasb ta'limi 5150600-Vokal san'ati (turlari bo'yicha); 5111000-Kasb ta'limi 5150700-Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan.

© Baxriyev A.R., 2019.

© Musiqa nashriyoti, 2019.

ISBN 978-9943-5907-8-6

So‘zboshi

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar birinchi navbatda ta’limning natijadorligi va tarbiyaviyligini oshirishga qaratilganligi e’tiborga molik. Tezkor ijtimoiy sharoitlarda integrativ va innovatsion jarayonlarning jadallashuvi ta’limda, ayniqsa musiqa ta’limida har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan. Bu o‘z navbatida musiqa ta’limi tizimini yangi o‘qitish metodlari, sifatli repertuar, o‘quv adabiyotlari va raqobatbardosh pedagog kadrlar bilan ta’minlashni taqozo etmoqda.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiing Qarorida, - “Madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro festivaly va tanlovlarda ijodkorlarimizning ishtirokini izchil ta’minlash va ularning sara asarlarini namoyish etishning samarali tizimi yaratilmagani” soha rivojiga to‘sqinlik qilayotganligi alohida ta’kidlangan¹.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bakalavriat bosqichida o‘qitilayotgan “Musiqiy pedagogika va psixologiya” kursida yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur fan talabalarda yosh avlodga musiqiy ta’lim va tarbiya berishning ilg‘or pedagogik hamda psixologik qonuniyatlarini, yondashuvlarini, musiqiy ijrochilik jarayonining o‘ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarini va samarali pedagogik ta’sir usullarini singdirishga qaratilgan.

Musiqiy pedagogika va psixologiya fani musiqa ta’limining pedagogik qonuniyatlari, o‘ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari, o‘qituvchi va talaba interaktiv pedagogik faoliyatining psixologik jihatlarini o‘rganadi. Psixologiya va pedagogika fanlari zahirida yaratilgan mazkur fan musiqa san’ati borasidagi bilimlarni

¹ “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiing Qarori. Toshkent oqshomi gazetasi. 2018 yil 29 noyabr soni.

o‘zlashtirishning pedagogik va psixologik masalalarini o‘rganish uchun imkoniyat sifatida xizmat qiladi. O‘quv qo‘llanmani tayyorlash jarayonida muallif sohaga oid qator ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan tanishdi va egallangan ko‘p yillik pedagogik tajribalariga tayandi.

Mamlakatimizda musiqa pedagogikasi va psixologiyasi yo‘nalishida qator o‘quv-uslubiy nashrlar muallifi, O‘zbekistonda Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori R.G‘.Qodirov bo‘lib hisoblanadi. Mazkur muallif tomonidan “Musiqa” nashriyotida 2018 yilda nashr etilgan “Musiqa pedagogikasi” o‘quv qo‘llanmasi, 2009 yilda chop etilgan “Musiqa pedagogikasi” o‘quv qo‘llanmasi, 2008 yilda nashr etilgan “Muzikalnaya pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, 2005 yilda nashr etilgan, musiqiy yondashuv asosidagi “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” ma‘ruzalar matnini misol qilib keltirish mumkin. O‘quv qo‘llanmani tayyorlash jarayonida muallif yuqorida keltirilgan uslubiy ishlar bilan batafsil tanishishga harakat qildi.

Mazkur uslubiy ishda har bir mavzu bo‘yicha rejalar, tayanch tushunchalar, mavzu yuzasidan savollar, shuningdek, 6 ta rasm, 1 ta chizma va 2 ta jadval keltirilgan.

KIRISH. MUSIQA PEDAGOGIKASI MUAMMOLARI.

Reja:

1. Tub islohotlar davrida musiqa pedagogikasining rivojlanish odimlari.
2. Musiqa pedagogikasining taraqqiyoti tarixiga bir nazar.
3. Musiqa pedagogikasini rivojlantirish muammolari.

Tayanch tushunchalar: Musiqa pedagogikasi, umumiy musiqa pedagogikasi, maxsus musiqa pedagogikasi, musiqa pedagogikasi tarixi, tub islohotlar davrida musiqa ta'limi taraqqiyoti.

2016 yilda Respublikamiz ta'lim tizimida tub islohotlar davri boshlandi. Aynan shu yildan boshlab ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yakuniy natijaga qarab ishlash, oliy ta'limda tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida pedagog kadrlar salohiyatiga e'tibor qaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv laboratoriyalari, fan kabinetlari, jihozlar, uskunalari bilan ta'minlash, ta'limni takomillashtirilgan ta'lim standartlari, fan dasturlari va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Natijada yoshlarimizda, qolaversa butun xalqimizda ta'lim tizimi, uning sifatiga nisbatan munosabatlar o'zgardi, oliy ta'limga nisbatan ishonch hissi ortdi. Buni keyingi ikki yilda oliy musiqa ta'limi muassasalariga hujjat topshirayotgan va o'qishga kirayotgan abituriyentlar misolida ham ko'rish mumkin. Abituriyentlar soni ortib borayotganligi yoshlarda oliy musiqa ma'lumoti olishga bo'lgan qiziqishning yanada ortib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Oliy musiqa ta'limi umumiy oliy ta'limning bir bo'g'ini sifatida o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni rejali tarzda bajarishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olganligini ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi"da "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshiriladigan ulkan bunyodkorlik ishlari, xalq xo'jaligi, sanoat, iqtisodiyot bilan bir qatorda ijtimoiy soha – jumladan, oliy musiqa ta'limini rivojlantirish bo'yicha ham zalvorli

vazifalar belgilab berildi. Jumladan, - “Jamiyatimizda oliy ma’lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko‘p bo‘lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo‘ladi”, - deb ta’kidlangan².

Oliy ta’limga davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qaratilayotgan e’tiborning amaliy natijalari soha mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi, albatta. Musiqa pedagogikasi o‘ziga xos, maxsus xususiyatlari orqali pedagogikaning boshqa sohalaridan farq qiladi. Shu bois, musiqa pedagogikasi borasida gap ketganda, uni ikki yo‘nalishda ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Birinchisi umumiy musiqa pedagogikasi, ikkinchisi esa maxsus musiqa pedagogikasi. Mazkur o‘quv qo‘llanma maxsus musiqa pedagogikasi bo‘yicha yaratilgan.

Umumiy musiqa pedagogikasi umumiy o‘rta maktabda o‘qitiladigan musiqa fani bo‘lib, bu musiqa ijrochiligi, musiqa asarlari, kompozitor va bastakorlar, musiqaning elementar nazariyasiga doir umumiy ma’lumotlar berish ko‘zda tutilgan. Maxsus musiqa pedagogikasi esa maxsus musiqa va san’at maktablarida, litseylarida, kollejlarda hamda oliy musiqa ta’limida o‘qitiladigan fandır.

Umumiy musiqa pedagogikasi tarixiga nazar tashlaganda, mamlakatimiz oliy musiqa ta’limi tuzilmasida musiqa pedagogikasi asosan 20-asrning 60-yillaridan rivojlana boshladi. Bu bir necha pedagogika institutlarida musiqa kafedralari va fakultetlarining ochilishi bilan bog‘liq. Ungacha bo‘lgan davrlarda musiqa pedagogikasining maqsadi – o‘quvchilarning hayotni jozibali musiqiy shaklda tushunishlariga erishish, deb belgilangan edi (20-asrning 20-yillari: B.V.Asafyev, A.A.Shenshin, N.Ya.Bryusova, V.G.Karatigin, N.M.Kovin va boshq.).

1930-yillarda uning maqsadi – musiqa hayotni qayta qurish, jamiyat rivojlanishiga ko‘maklashish uchun zarur edi. 1950-60 yillarda esa musiqa ta’limining maqsadi asosan kuylashning texnik tomonlarini qamrab olgan edi xolos, ya’ni, xorda yagona ovoz ansambliga erishgan holda kuylash orqali ijro sifatini ta’minlash yetakchi vazifa etib belgilandi. Xorda kuylash musiqa ta’limining

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil 29 dekabr soni.

asosi sifatida belgilandi. Albatta, bu o'sha o'tgan davrning g'oyaviy yo'nalishi bilan bog'liq edi.

Maxsus musiqa ta'limi pedagogikasi esa musiqa ijrochiligining barcha ko'rinishlari bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil etishga qaratiladi. Jumladan, xor ijrosining sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri intonatsiyaning tozaligi ya'ni, *xor sozi* bo'lib hisoblanadi. Xor ijrosining asosiy vazifasi jo'rsiz kuylashni rag'batlantirish bo'lib, u kuylovchilarda intonatsiyani tiniqlashtirishga yordam beradi. Badiiy va ijrochilik malakalariga texnik tomonlarni bo'ysundirish xorda kuylashga o'rgatishda muhim ustanovka (ichki tayyorlik) bo'lib hisoblanadi.

Kuylash ustanovkasiga kiradigan barcha ko'nikma va malakalarni tizimli tarzda shakllantirib borish talab etiladi, kuylash paytida to'g'ri nafas olish, tovush ifodalash shular jumlasidandir.

Tovush hosil qilishda kuylash ustanovkasi bevosita nafasga bog'liq. Erkin va yaxshi ochilgan og'iz, tabiiy harakatlanadigan til, faol ishlovchi lablar to'g'ri tovush chiqarishning asosiy omillari bo'lib hisoblanadi. Bunda bolalar ovozining turli yosh davrlaridagi diapazonini; registri va tovushning boshqa fizik xususiyatlari ifodalanadigan primar zonalari (kuylash uchun qulay bo'lgan tovush diapazoni) hisobga olinishi lozim. Ko'p ovozli kuylashda tiniq soz ustida ishlash sifat jihatidan ma'lum murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Soz ustida ishlashning keng tarqalgan metodlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- intonatsiyani takomillashtirish uchun asarning murakkab parchalari ustida alohida ishlash (noqulay tovush yo'nalishi, kuyda sakrashlar uchrashi, xromatik yurishlar, noqulay tessitura);

- ularni tessitura bo'yicha qulayroq boshqa tonallikka transpozitsiya qilish;

- individual va guruh ish metodlarini qo'llash;

- og'izni yumgan holda, o'rtacha dinamikada, sokin tempda va yopiq unlilar "u", "o" da kuylash, bunda butun diqqat so'z emas, tovushga yo'naltiriladi;

- kuylash elementlariga, eshitish sezgilari va ko'rish tasavvurlarini muvofiqlashtirishga erishish.

Musiqiy taassurotlar to'planishi, o'quvchilar musiqiy dunyoqarashining kengayishi va ular idrokini rivojlantirish, asar mazmuni, uning janri, tuzilishi (shakli), musiqiy ifodaning alohida vositalari, o'tmish va bugungi kundagi yirik kompozitorlarning hayoti va ijodi haqida bilim va tasavvurlarni shakllantirish kabilar muhim vazifalar sirasiga kiradi.

O'quvchilarni musiqa asari bilan tanishtirishda N.L.Grodzenskaya to'rtta shartli bosqichni ko'rsatgan edi:

- o'qituvchining kirish so'zi;
- asar ijrosi (tinglash);
- uning tahlili;
- asarni ijro etishga boshlash.

Kirish so'zi ikkita bir-biri bilan bog'liq vazifa: bolalarga musiqani idrok qilish uchun yordam berish va ularni tinglashga tayyorlash, qiziqtirishni o'z ichiga olgan edi.

Asarni tinglash (ijro) paytida muhim jihatlar bu, birinchidan, o'qituvchi ijrosi yoki yozuvning eshitilish sifati, ikkinchidan yangrayotgan musiqani idrok etish muhiti (xuddi kontsert zalidagi singari sokin vaziyatni yaratish) bo'lib hisoblanadi.

Asarni tahlil etishda avvalo, musiqa tushunarli bo'lishi, diqqat etarli tasavvur hosil qilishga qaratilishi zarur. Boshqacha qilib aytganda, asarni tahlil qilish idrokning ongliligi va emotsionalligini ta'minlashi va asar mazmunini yanada chuqurroq idrok etish vositasiga aylanishi zarur.

Asarni takrorlash tinglangan musiqaning bolalar xotirasida mustahkamlanishi uchun zarur yo'l bo'lib qolishi kerak. U asarni yanada to'liqroq o'zlashtirishga qaratiladi, chunki musiqani bilmasdan uni tushunishga, sevishtirishga bolalarni o'rgatib bo'lmaydi, asar chuqur o'zlashtirilsa, u xotirada mustahkam o'rtnashadi.

Musiqiy savodxonlik musiqa darsining yana bir qismi bo'lib, uning doirasida musiqiy-nazariy va musiqiy-tarixiy ma'lumotlar, nota yozuvini o'zlashtirish, bolalarning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish nazarda tutilgan edi. Ularning bir tomondan kuylash, ikkinchi tomondan musiqa tinglash bilan o'zaro aloqadorlikda olib borilishi ko'zda tutilgan bo'lsada, dasturda u yoki bu bo'limning nomiga munosib tarzda o'quvchilarga tegishli talablar shakllantiriladi.

edi.

Musiqani kuzatish jonli jarayonga aylangandagina barcha nazariy ma'lumotlar, musiqa haqidagi bilimlar, musiqiy nutqning xususiyatlari bolalarga tushunarli bo'ladi. Demak, musiqiy ta'lim va tarbiyada darsning yaxlitligi muammosi, turli faoliyatlarning birligiga erishish zarurligi yetuk musiqachi-pedagoglar tomonidan tan olingan edi.

Musiqa ta'limi tuzilmasida metodikaning o'rni va funksiyalari shundan dalolat beradiki, uningsiz har qanday pedagogik muammo o'z yechimini topishi amri mahol. Metodika uchun muhim bo'lgan muammolarni ko'rib chiqamiz.

Yaxlitlikning mohiyati shundan iboratki, metodikaning hech bir funksiyasi alohida, lokal, o'z-o'zicha amalga oshmaydi. Bu esa metodikani muammolar tuzilmasi tarzida, musiqa o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq yagona asos sifatida ko'rishni talab etadi. Natijada har qanday metodik muammo (hatto eng past darajadagisi ham) alohida emas, faqat ushbu predmetni o'qitish bilan bog'liq muammolar majmuasi sifatida o'rganiladi. Shu jihatdan aytish mumkinki, metodikada muammolarni muhim va muhim bo'lmaganga ajratish mumkin emas.

Boshqa tomondan, har qanday tuzilmada ichki aloqalar bo'lishi lozim va ular tuzilma elementlarining o'zaro aloqasini tashkillashtiradi hamda uning xarakterini ochib beradi. Faqatgina shu holda tuzilma ichki ierarxiyaga ega bo'ladi va xususiy tuzilmaga aylanadi. Metodikani bunday tushunish butun o'quv-tarbiya jarayonining yaxlitligiga erishishga olib keladi.

Axborot uzatish. Bu jarayon bilan bog'liq barcha ma'lum shakl va metodlarni predmet mazmunini ochishga xizmat qiluvchi ikki yo'l, chetki nuqtalar orasiga joylashtirish mumkin. Ularning biri oddiy bayon qilish, faktlar yig'indisini uzatish, hodisalarni izohlash va boshqalar; ikkinchisi esa o'rganiladigan predmetning fakt va hodisalari orasidagi chuqur aloqalarni nazariy tahlil qilishdan iborat. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fani ta'kidlashicha, predmet mazmunini ochishda tanlangan yo'l qanchalik ikkinchi nuqtaga yaqin bo'lsa, shunchalik o'qitish *rivojlantiruvchi xarakter* kasb etadi.

Oddiy bayon etish jarayonida tahlil ishtirok etmaydi, buning natijasida barcha o'quv-tarbiya jarayoni, agar u o'quvchilar tomonidan olib qaralsa, ushbu predmet doirasiga kiruvchi ma'lumotlar qatorini yodlashni eslatadi. Bilishning ikkinchi tomonida o'rganiladigan predmetdagi hodisa va faktlararo chuqur aloqalarni nazariy tahlil qilish turadi.

Nazariy bilim ma'lum fakt yoki faktlar yig'indisini aniqlashtirishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Nazariy tahlilga maxsus faktlar, ularni to'plash, tasniflash va boshqalar kirmaydi. Uning maqsadi ushbu faktlar, hodisalar va ular orasidagi o'zaro aloqalar nima uchun shundayligini aniqlashdan iborat. O'quvchilarning fikrlash faoliyati bu yerda shunday darajada kechadiki, tafakkurning umumiy qonunlari oxir-oqibatda tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlari bilan, bilish nazariyasi esa ularning rivojlanish nazariyasi bilan moslashadi. Nazariy tahlil o'zida "umumiydan xususiya kelish"ni aks ettirib fikrlash eksperimenti sifatida, ya'ni refleksiya singari kechadi.

Ushbu keltirilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkin: o'qituvchi-musiqachining birinchi galdagi vazifasi o'quvchilarning produktiv faoliyatini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi musiqani, uning o'qitish metodikasini ma'lum xulosalar tuzilmasi sifatida bilishi va tushunishi zarur. Natijada birinchidan, materialni yaxlit o'rganish va har bir darsda "umumiydan xususiyni ajratish"ga imkon yaratiladi. Ikkinchidan, predmet mazmunini shunday konkretlashtirish kerakki, yangi materialni faqatgina eslab qolish va mustahkamlash emas, balki o'quvchilar ongida bilimlarni "jonlantirish" zarur.

Uchinchidan, o'qituvchiga o'quv materialini tasvirlash jarayonida o'quvchilarning o'quv faoliyatini ekspress-diagnostika qilish va o'quv tarbiya jarayonini muntazam takomillashtirib borish imkonini beruvchi savollardan izchil foydalanish taqozo etiladi.

Maxsus musiqa pedagogikasi bo'yicha kadrlar tayyorlash O'zbekiston davlat konservatoriyasida amalga oshiriladi va uning shakllanishi uzoq tarixga egadir. Toshkent davlat konservatoriyasi (2002 yilgacha shunday nomlangan) o'z faoliyatini boshlagan 1936 yildan boshlab tayyorlangan kadrlarning ma'lum qismi yetuk ijrochi

bo‘lib etishdilar. Ularning bir qismi pastki bosqich musiqa ta‘limi muassasalari uchun pedagog kadrlar sifatida o‘z faoliyatlarini amalga oshirdilar.

Jumladan cholg‘u ijrochiligi, xonandalik, musiqashunoslik yo‘nalishlarida tayyorlangan kadrlarning aksariyat qismi pastki bo‘g‘in musiqa ta‘lim muassasalarida pedagog bo‘lib ishda qoldi va yillar davomida yetuk ustozlarga aylandilar. Bularga ko‘plab pedagog-musiqachilarni misol qilib keltirish mumkin.

Keyinchalik, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida musiqa pedagogikasi ta‘lim yo‘nalishi ochildi va aynan musiqa maktabi, litseyi, kolleji va oliy musiqa ta‘limi uchun pedagog kadrlar yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur yo‘nalishdagi eng muhim qadam, bu Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi Qaror bo‘ldi³. Mazkur qaror orqali O‘zbekiston davlat konservatoriyasida musiqa san‘ati yo‘nalishida pedagog kadrlar tayyorlashga qaratilgan musiqa pedagogikasi fakulteti ochish masalasi echildi.

Natijada 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab 5111000-Kasb ta‘limi 5150600-Vokal san‘ati (turlari bo‘yicha) va 5111000-Kasb ta‘limi 5150700-Cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishlari ochildi. Mazkur ta‘lim yo‘nalishlari uchun DTS, namunaviy o‘quv rejalar, ishchi o‘quv rejalar, fan dasturlari, ishchi dasturlar, o‘quv adabiyotlari yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda musiqa ta‘limi oldida qator muammo va vazifalar mavjud bo‘lib, ularni hal etish musiqa ta‘limini rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lishi kutilmoqda.

1.Uzluksiz musiqa ta‘limi tizimida o‘qitiladigan qaysi fanlarning qaysi qismini qaysi bosqichda o‘qitish maqsadga muvofiqligini aniqlashtirish (ba‘zan takrorlar kuzatiladi);

³ “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 9 avgust soni.

2. Musiqa ta'limida o'quv dargohlarining moddiy texnik bazasini yanada kuchaytirish;

3. Ham umumiy, ham professional musiqa ta'limida bolalarni ijodiy rivojlantirishga, ular bilan differentsiallashgan ta'limni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratish zarur.

4. Musiqa o'qituvchisining ham pedagog, ham ijrochi sifatidagi vazifasini ko'z oldiga keltirib, uning o'z ustida mustaqil ishlashi, o'z kasbiy pedagogik va ijrochilik malakalarini muntazam oshirib borishiga alohida shart-sharoit yaratish lozim.

Bularning barchasi musiqa o'qituvchisining kasb egasi sifatida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, jamiyatimizda estetik did va madaniyatni qaror toptirish, musiqa pedagogikasi orqali esa musiqa san'atini yanada rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Tub islohotlar davrida musiqa pedagogikasida kuzatilayotgan yangiliklar nimalarda ifodalanadi.

2. Musiqa pedagogikasining tarixi borasida so'zlab bering.

3. Umumiy va maxsus musiqa pedagogikasini farqlab bering.

4. Kuylash ustanovkasiga ta'rif bering.

5. Asarni tahlil qilishda onglilik va emotsionallik qanchalik ahamiyatga ega?

6. Musiqa ta'limida yaxlitlik muammosi qanday namoyon etiladi?

7. Maxsus musiqa pedagogikasi bo'yicha kadrlar tayyorlash tarixini so'zlab bering.

8. Bugungi kunda musiqa pedagogikasini rivojlantirish bo'yicha qanday muammolar mavjud.

MUSIQA PEDAGOGIKASINING PREDMETI.

Reja:

1. "Pedagogika" atamasi va uning kelib chiqishi.

2. Musiqa pedagogikasi fanining predmeti va ob'yekti.

3. Musiqa pedagogikasida mavjud ilg'or o'qitish metodikalari.

Tayanch tushunchalar: pedagogika, musiqa pedagogikasi, musiqa pedagogikasi tamoyillari, ilg'or o'qitish metodikalari, dasturli musiqa, musiqa fanlarining majmuasi, musiqiy-estetik faoliyat, musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayon.

“Pedagogika” atamasi yunonchadan olingan bo‘lib (bola yetaklash, tarbiyalash san’ati); o‘qitish va tarbiyalash borasidagi fandır. Buyuk allomalar Yusuf Xos Hojib, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yan Amos Komenskiy, Adolyf Disterveg davridan boshlab o‘qitish, uning jamoaviyligi, shakllangan pedagogik tamoyillarning hayotga tadbiiq etilishi bilan bog‘liq barcha tadbirlarni o‘z ichiga olgan jarayon ushbu atama bilan belgilanadi.

“Musiqqa” (yun. *musike, musa*) – turli-tuman tovushlar bilan musiqiy obraz yaratib beruvchi, g‘oyaviy-emotsional mazmunga ega bo‘lgan san’atning muhim turidir. Insonning jamiyatda tutgan mavqei, madaniy-tarbiyaviy, g‘oyaviy-tashkilotchilik rovida musiqa ma’lum ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqning musiqasi milliy xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Xalq musiqasi uzoq yillar davomida shakllanib, badiiylashib yuksak pog‘onaga ko‘tarildi, xalqning boy xazinasiga aylandi. Xalq musiqasi bilan mustahkam bog‘langan holda professional musiqa ham taraqqiy qilib keldiki, uning vujudga kelishiga muhir sozanda, bastakor va kompozitorlar o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Musiqadagi obrazlarni gavdalantirib beruvchi asosiy element – musiqa tovushidir. Musiqaning asosi kuydir. Bundan tashqari ritm, lad, metr, garmoniya uning muhim vositalaridandir. Musiqa ijro etilishi bo‘yicha ikki asosiy turga bo‘linadi: cholg‘u musiqasi, ikkinchisi vokal, ya’ni ashulali musiqa. Musiqa bir ovozli (monodiya) va ko‘p ovozli (polifoniya, gomofoniya) bo‘ladi. Bular ko‘p jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ma’lum bir mavzuda yaratilgan cholg‘u musiqasi dasturli musiqa deb ataladi. Vokal musiqasi esa biror cholg‘u asbobi jo‘rligida ijro qilinadi. Ayrim ko‘povozli xorlar cholg‘u asboblari jo‘rligisiz ijro qilinadiki, bu *a’ capella* deb

ataladi. Musiqali sahna asarlari: opera, operetta, musiqali drama, balet, drama va kinolarda musiqa muhim rol o‘ynaydi”⁴.

Musiqqa pedagogikasi pedagogika fanlarining tarmog‘i bo‘lib, talabalarga musiqa fanlarining majmuasi borasida ilmiy asoslangan ma’lumotlar berish, musiqa ta’limi va tarbiyasini amalga oshirishning samarali yo‘llari, vositalari, shakllari va metodlarini ishlab chiqish hamda qo‘llash, shuningdek, musiqa san’atining turli sohalari bo‘yicha amaliy malaka, tajriba va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan shug‘ullanadi.

Fanning maqsadi – talabalarda musiqiy pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, musiqa pedagogikasining asosiy kategoriyalari, musiqa o‘qitish tamoyillari, ilg‘or o‘qitish metodikalarini bilan tanishish va ularni istiqboldagi pedagogik jarayonda qo‘llash malakalariga ega bo‘lish; musiqa psixologiyasi bo‘yicha esa musiqiy bilish jarayonlari: sezgilar, diqqat, musiqiy idrok, musiqiy xotira, musiqiy tafakkur va musiqiy fantaziya singari gnostik bilish jarayonlari xususiyatlari borasida bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularni musiqiy pedagogik faoliyatga tayyorlash, ijodiy imkoniyatlarini yanada kengroq tasarruf etishiga, o‘qituvchi sifatida shakllanishiga ko‘maklashishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarda musiqa o‘qitish bilan bog‘liq barcha pedagogik va psixologik jarayonlar xususiyatlarini ma’lum ierarxik tizim asosida qo‘llash borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Professional musiqa, vokal va cholg‘u ijrochiligi, dirijyorlik, bastakorlik va musiqashunoslik yo‘nalishlarida tayyorlanadigan mutaxassislar o‘qish jarayonida musiqa o‘qitish, ya’ni musiqa pedagogikasining barcha o‘ziga xos xususiyatlarini o‘qitish amaliyotida izchil qo‘llash malakalarini egallashi muhim bo‘lib hisoblanadi.

Musiqqa pedagogikasi yaxlit fan bo‘lib, uning mazmuni nafaqat musiqaga oid fanlarni o‘qitish metodikalarini, balki pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalarni ham ta’lim jarayonida modul tizimi orqali faol qo‘llashni taqozo etadi.

⁴ Akbarov I. Musiqqa lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1997. - B.179-180.

Musiqqa pedagogikasining asosiy tushunchalari quyidagilardan iborat.

Musiqqa o'qitish - bu davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi va fan dasturi asosida talabalarga musiqiy bilim, ko'nikma, malakalarni yetkazish hamda singdirish jarayonidir. Musiqqa o'qitish musiqqa ta'limining ma'lum talablari darajasiga javob beruvchi, musiqiy-estetik faoliyatning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan.

Musiqqa tarbiyasi shaxsni amaliy musiqiy-estetik faoliyatga ruhlantiruvchi, musiqiy qiziqishlar, qobiliyatlar, did, ideallarni rivojlantirish orqali musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni bilim oluvchilarga uzatish va ular tomonidan o'zlashtirilishi jarayonidir.

Musiqqa pedagogikasi talabalar musiqiy-estetik faoliyatining turli ko'rinishlarida amal qiladi va rang-barang ish shakllari, ta'lim texnologiyalari, metodlari orqali ta'lim oluvchilarning musiqiy bilimlari oshishiga, ularda badiiy-estetik didning shakllanib borishiga xizmat qiladi. Zero, musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonning ko'rinishi va natijalari turli darajadagi badiiy ommaviy-tadbirlarda yaqqol namoyon bo'ladi (1-rasmga qaralsin).

Musiqqa o'qitish va tarbiyalashda o'quv-tarbiyaviy jarayon ishtirokchilari orasidagi o'zaro interaktiv harakatni tashkil etib, musiqiy faoliyat orqali bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtiriladi hamda musiqiy-estetik sifatlar rivojlantiriladi. Mumtoz pedagogikada o'qitish va tarbiyalash kategoriyasi ma'lum o'ziga xosliklarga ega. Shuning uchun musiqqa o'qitish va tarbiyalashda texnologik yondashuv o'quv-tarbiyaviy jarayonning yaxlit ijodiy xarakteri bilan shartlangan.

Musiqqa pedagogikasi pedagogika (xususiy pedagogika) fanlaridan biri bo'lib, musiqqa san'atiga oid bilimlarni texnologik vositalar orqali singdirish, o'qitish va tarbiyalashni amalga oshiradi. Talabalarga musiqqa ta'limi va tarbiyasini singdirish jarayoni tarixiy xarakterga ega va umumiy pedagogikaning umumiy qonuniyatlari asosida amalga oshiriladi.



1-rasm.

Musiqqa pedagogikasini texnologik nuqtai nazardan o'zlashtirish quyidagi manbalarga bog'liqdir.

O'tmish musiqiy-pedagogik tajriba. Bu badiiy madaniyatning rivojlanishi tarixida musiqiy hodisalar namunalarini yaratish, saqlash va to'plash institutlaridir. Bularga: o'zida musiqqa asarlari va ijrochilik mahoratining yuksak ko'rinishlarini aks ettirgan, ijtimoiy, madaniy-oqartuv va musiqiy-pedagogik faoliyat natijalarini (mumtoz va folyklor musiqasi), shuningdek, musiqqa madaniyati namoyandalarining musiqiy meros namunalarini (bastakor va kompozitorlar yaratgan musiqqa) kiritish mumkin.

Zamonaviy musiqiy-pedagogik hodisalar va tadqiqotlar. Bu avvalo, professional musiqachilarni tayyorlovchi musiqqa o'quv yurtlari (san'at va madaniyat kollejlari, konservatoriya)ning amaliy-pedagogik faoliyati, musiqqa va san'at maktablarining amaliy faoliyat natijalari, shuningdek, oliy o'quv yurtlari musiqqa ta'limi yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilarning musiqqa ta'limi va tarbiyasini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshiradigan ilmiy tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Ilg'or ilmiy musiqiy-pedagogik tajriba. Bu yerda musiqqa o'qitish va tarbiyalashni optimallashtirish va ilg'or pedagogik

texnologiyalarni topish va amaliyotga joriy etish bo'yicha bajariladigan ilmiy-eksperimental ishlar natijalarini o'rganish va umumlashtirish nazarda tutiladi. Bu esa musiqa ta'limi va tarbiyasi muammolarini o'rganish va bu yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot muassasalari, laboratoriyalar, olimlarning amalga oshirgan ish natijalaridan iboratdir.

Musiqiy pedagogik texnologiyalar samaradorligini ta'minlashda fanning nazariy kategoriyalari muhim o'rin tutadi. Musiqa pedagogikasi pedagogika fanlarining tarmog'i sifatida o'zining asosiy nazariy kategoriyalariga ega. Bu kategoriyalar musiqa tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning nazariy asosini belgilaydi.

Zamonaviy o'qitish tizimida fanlararo integratsiyaning keskin jadallashuvi kuzatilayotir. Ayniqsa, musiqa amaliyotining pedagogik-psixologik jihatlarini har tomonlama o'rganishga katta ehtiyoj mavjud va bu keyingi yillarda musiqa ta'limi tizimining qator bo'g'inlarida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'zbek milliy maqom san'atini rivojlantirish to'g'risidagi Qarorda, - "Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish...", - alohida ta'kidlangan⁵. Ushbu keltirilgan fikrlar milliy musiqa san'atimizga, ta'limga qaratilayotgan e'tiborning kuchliligi, uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zarurligidan darak beradi.

Ta'kidlash zarurki, musiqa tili bu hissiyot va kechinmalar tilidir. Musiqiy mazmun ijrochi tomonidan hissiyot va kechinmalar orqali ifodalanadi hamda tinglovchi tomonidan xuddi shu tarzda idrok etiladi. Shu bois ham tinglangan musiqaga nisbatan "sho'x", "engil", "quvnoq", "mungli", "mayin" singari kayfiyat, hissiyot va kechinmalarni ifodalovchi baholar beriladi.

Demak, musiqa pedagogikasi rivojlanish yo'lida turgan ekan, ushbu jarayonda uning predmeti, ob'yekti va ilg'or o'qitish

⁵ "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 18 noyabr soni.

tamoyillari borasida ma'lum bilimlar zaxirasiga ega bo'lishi orqali talabalarning istiqbolda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari kun tartibida turgan muhim pedagogik vazifadir.

Mavzu yuzasidan savollar

1. "Pedagogika" atamasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Musiqa pedagogikasi fanining maqsadi.
3. Musiqa pedagogikasi fanining predmetiga ta'rif bering.
4. Musiqa pedagogikasi fanining ob'yekti borasida fikringiz.
5. Yan Amos Komenskiy to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Musiqadagi obrazlarni gavdalantirib beruvchi asosiy element bu nima?
7. Musiqiy o'quv-tarbiyaviy jarayonning ko'rinishlari borasida gapirib bering.

SHAXSIY MUSIQIY RIVOJLANTIRISH, TARBIYALASH VA SHAKLLANTIRISH.

Reja:

1. Musiqiy rivojlantirish tushunchasi.
2. Shaxsiy musiqiy tarbiyalash va shakllantirish.
3. Musiqa o'qitishda ijrochilik mahorati shakllanishi.

Tayanch tushunchalar: musiqiy rivojlantirish, shaxsiy musiqiy tarbiyalash, musiqiy shakllantirish, ijrochilik malaka va ko'nikmalari shakllanishi, ilg'or pedagogik texnologiyalar.

Musiqiy rivojlantirish deganda - yosh avlodga musiqa ta'lim va tarbiyasi berish jarayonida uni har tomonlama musiqiy bilimlar bilan qurollantirish, musiqa san'atining rivoji, taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yosh ijrochilarni tayyorlash, bu borada amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar tushuniladi.

Musiqa tarbiyasi va ta'limi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi mavjud musiqiy qobiliyatlar va qiziqishlar darajasi yuzasidan ma'lum tasavvurlar orqali amalga oshiriladi. Boshqa kasblardan farqli tarzda musiqiy faoliyatlar bilan shug'ullanish, bu yo'nalishda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishish

uchun 5-7 yoshlardan boshlab bolalar bilan musiqa mashg'ulotlarini boshlash amalga oshiriladi. Bosqichma-bosqich, tizimli tarzda amalga oshiriladigan musiqa ta'limi ham nazariy, ham amaliy ijrochilik asosida olib borilganligi natijasida musiqiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimli shakllanib boradi.

Hozirgi sharoitda bolalar musiqa ta'limiga katta e'tibor qaratilmoqda va bu amalga oshirilayotgan ishlar tashkiliy, o'quv-uslubiy, pedagogik-psixologik va tarbiyaviy jarayonda o'z aksini topmoqda.

Jumladan, musiqa o'qitish uzluksiz tizimining barcha bo'g'inlari uchun o'quv adabiyotlari: darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik materiallar, uslubiy tavsiyalar, nota xrestomatiyalari yaratilayotganligi va o'qitish amaliyotiga joriy etilayotganligi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu imkoniyatlar negizida yosh avlodga puxta musiqiy bilim berib, ularning mahoratini yuksaltirish oliy musiqa ta'limi tizimida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning kasb malakasi va kompetentsiyasiga yangi talablar qo'yimoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, musiqa ta'limi ikki asosda tashkil etiladi, bu 1) *umumiy musiqa ta'limi* va; 2) *maxsus musiqa ta'limi*. Demak, umumiy musiqa ta'limida asosiy faoliyat turlaridan biri bu - jamoaviy ijro, ya'ni xorda kuylashdir.

Ma'lumki, musiqa pedagogikasida xalq musiqa ijodiyotiga musiqiy ta'lim va tarbiyaning muhim asoslaridan biri, deb qaralishi bejiz emas. Aynan xalqimizning musiqa ijodi orqali o'quvchilar milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizni, ona Vatanga sadoqatni, shuningdek, boshqa xalqlarning musiqa ijodini anglab oladi, umuminsoniy qadriyatlarni yanada o'tkir va teranroq idrok etadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy fikrlarning barchasi yosh avlod vakillari bilan tashkil etiladigan musiqa tarbiyasi va ta'limi orqali rivojlantirish, qiziqishlarni shakllantirish amalga oshiriladi. Shu orqali musiqa ta'limining yakuniy natijasi namoyon bo'ladi.

Musiqa ta'limining ikkinchi, asosiy qirrasini maxsus musiqa ta'limi bo'lib hisoblanadi va jamiyatimizda musiqa san'atining taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Musiqiy ta'lim va tarbiya yakka va jamoaviy tarzda amalga oshiriladi. Yakka ijrochilikka o'rgatishda o'qituvchi va o'quvchining pedagogik ish tartibi, pedagogik muloqoti va pedagogik ijro jarayoni ko'zda tutiladi va bu orqali o'quvchining musiqiy qobiliyatlari negizida uning ma'lum musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashi dinamikasi progressiv shkalada kuzatilishi mumkin.

Agar o'quvchiga tanish musiqa asarini ijro etish vazifasi yuklansa, u bu vazifani sifatli darajada bajarishi mumkin. Qo'llari avtomatlashgan tarzda berilgan ijroviy topshiriqni bajaradi, miyasi esa bu paytda umuman mazkur faoliyat uchun keraksiz bo'lgan fikrlar bilan band bo'lishi mumkin. Biroq, oddiygina mashqni ijro etish uchun alohida topshiriq berilsa, diqqat darhol faollashadi va keraksiz, ortiqcha fikrlar izsiz yo'qoladi.

Oddiy kuzatish o'quvchida hech qachon berilgan vazifani bajarish chog'idagidek diqqatni to'plash imkoniyatini yarata olmaydi. Quyidagi treningni qo'llash ijrochilar uchun foydali bo'lishi mumkin:

➤ cholg'u sozining o'rta yoki past registrida yangragan tovushni butunlay so'nguncha tinglash;

➤ ko'zlarni yumib, ma'lum vaqt davomida eshitish idrokiga diqqatni to'plash;

➤ ushbu tovushni ichki eshitish orqali tasavvur qilish va uni so'nishi mumkin bo'lgan oxirgi lahzasigacha "tinglash", sokin kuyni ijro etib yoki tasavvur qilib bir tovushning ikkinchi tovushga o'tishini diqqat bilan "kuzatish".

Ushbu mashqlarga qo'shimcha sifatida musiqa asarini radio sadolarini tinglash barobarida, ko'zga tushib turgan yorqin nurlar ta'sirida, stulda noqulay holatda o'tirib ijro etishni ham taklif qilish mumkin.

Bu mashqlar qarama-qarshi baholarga ega bo'lsa-da, diqqatni bir nuqtaga to'plashga yordam beradi, o'rgatadi va bosh miya to'qimalarida kuchli qo'zg'alistiruvchi yuzaga kelishiga, ijrochilik malakalarining mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Tor diqqat - ijro etilayotgan tovushlar intonatsiyasi, ijro etilishi kutilayotgan tovushlardan oldindan zavqlanish, keng diqqat esa

musiqa asarini yaxlit holda kechinma tarzda idrok etishga shart-sharoit yaratadi.

Ma'lum tajribaga ega bo'lgan ijrochiniig diqqati ham yaxlit asarni, ham uning alohida qismlarini qamrab olish imkoniga ega bo'ladi. Agar barmoqlar (fortepianoda) tartibsiz harakat qilsa va asosiy nuqtalarni ko'rsata olmasa, demak aybni taqsimlash markaziga to'nkash to'g'ri bo'ladi. O'zining ijrosini tinglab tahlil qila olish, unga baho bera olish musiqachi diqqati shakllanishiniig asosiy negizidir. Bu kabi maxsus mashqlarni qo'llash orqali yosh musiqachini tarbiyalashda yuqori ijroviy natijalarga erishish mumkin. Faqatgina, o'qituvchi pedagogik mahoratini ishga solgan holda, har bir o'quvchisining individual-psixologik imkoniyatlarini bilsa va shu asosda pedagogik ishni tashkil etsa natijani kafolatlash mumkin.

Eshitib, notanish asar muallifini aniqlash qobiliyati ma'lum darajada yuqori musiqiy dunyoqarash va didning mavjudligidan darak beradi, chunki, bunday qobiliyat faqatgina o'tkir "musiqiy zakovat" mavjud bo'lganidagina, musiqaning uslubiy xususiyatlarini sezgandagina ko'rinadi. Albatta bu, musiqa darslari tizimli va muntazam olib borilgandagina rivojlanadi.

"Notanish musiqa muallifini aniqlash" metodikasi darsdan tashqari paytda talabalarning kichik guruhi bilan o'tkaziladi va o'qituvchi har bir talaba bilan suhbat qilib, uning u yoki bu muallifni tanlash mezonlarini asoslab beradi.

Umuman, musiqiy pedagogikada talabalarning notanish musiqa bilan uchrashuvi qay tarzda amalga oshadi, u bu musiqani qay tarzda qabul qiladi, bir marta tinglagach unda o'zi uchun muhim jihatlarni topa oladimi? Boshqa tomondan, unda yoqimli, yuqori badiiy saviyadagi musiqani ko'ra oladimi va uning mazmuniga yanada chuqur kirib borish uchun sevimli asarlarga takror murojaat etish ehtiyoji bormi?

Agar biz birinchi jihatini maxsus pedagogik texnologiyalar orqali aniqlasak, ikkinchi jihatini muntazam olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari davomida ommaviy usulda aniqlashimiz mumkin: o'qituvchi yil davomida talabalarga sevimli bo'lib qolgan asarlarni belgilab boradi, ayniqsa, ba'zi bir asarlarga talabalar necha marta

murojaat etganini aniqlaydi.

Umuman, musiqa pedagogikasida turli innovatsion ta'lim texnologiyalarini izchil qo'llash talabalarda musiqiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishi jarayonida muhim omil bo'lishi mumkin.

Musiqa ijodiyoti hamisha insonlarni ezgulikka chorlash, ular qalbida yaxshilik urug'ini qadashga yo'naltirilgan. Har qanday musiqa o'z tuzilishi va mavjudligi bilan ma'lum millatga xos bo'ladi. Aslini olganda, milliy bo'lmagan musiqaning o'zi yo'q. Biroq, har qanday musiqa avvalo, o'z davrining musiqasi bo'lib, uning barcha emotsional-psixologik, kommunikativ va tarbiyaviy kuchi o'z zamonasida namoyon bo'ladi.

Musiqa asari fenomen sifatida o'zida ijod, ijro va tinglovchilik idrokini aks ettiradi. Bu kommunikativ zanjir bo'g'inlari ma'lum tarzda bir-biri bilan bog'liq: kompozitor ijodi – birlamchi, ijrochilik – markaziy va tinglovchilik yakuniy bo'g'in bo'lib hisoblanadi⁶.

Bugungi kun yoshlarini davrimiz madaniyatidan, milliy musiqa san'atimizdan tashqari holda tushunish mumkin emas. Ularning tafakkur tarzi, o'z-o'zini tushunish imkoniyatlari, tasavvur etadigan olami obrazlari avvalo davrimiz musiqa san'atida aks etadi va yoshlarni ma'naviy jihatdan yo'naltirishga xizmat qiladi. Zero, bugungi kunda musiqa barcha san'atlardan ham ko'ra ko'proq yoshlarning aqli, tafakkuri, ruhiyati va qalbiga kuchliroq ta'sir o'tkazmoqda. Bu esa, musiqa pedagogikasida aynan musiqaning tarbiyaviy xususiyatlarini yoshlarga ko'proq singdirishimiz lozimligini bildiradi.

Musiqiy va badiiy ijodiy faoliyat tadqiqiga bag'ishlangan A.L.Gotsdinerning musiqiy tovushni idrok qilish genezisi, V.V.Medushevskiyning musiqa san'atining shaxs ma'naviy hayotini aks ettirishi imkoniyatlari, E.V.Nazaykinskiyning asar mazmunini anglashda musiqiy tovushning psixologik xususiyatlari, L.M.Kadtsinning musiqiy mazmuni anglashdagi psixologik jihatlar, V.I.Petrushinning turli ijtimoiy qatlamlarga mansub oilalardagi

⁶ Казанцева Л.П. Коммуникативная направленность музыки с тематическими заимствованиями // Музыкальное произведение в системе художественной коммуникации. Межвузовский сборник. Красноярск. Издательство Красноярского университета. - 1989. -С.110.

bolalarning musiqiy idroki, K.V.Tarasovning maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqani idrok qilishning shakllanishi, M.Mersenning musiqaning ma'naviyat tarqatuvchilik roli haqidagi kontseptsiyasi, A.M.Matyushkinning ijodiyot psixologiyasi yo'nalishida amalga oshirilgan shaxsning ijodiy va reproduktiv rivojlanishi borasidagi g'oyalari, S.P.Ivanovning yangi tarixiy-madaniy sharoitga o'tish davrida sub'yektning badiiy faoliyati psixologiyasi, G.V.Ivanchenkoning musiqa san'ati va tinglovchilar tipologiyasi borasidagi, E.V.Il'yenkov, B.M.Kedrov, V.A.Kobilyanskiy, V.P.Kuzymyn, M.E.Markov, N.N.Moiseyev, B.F.Porshnev, S.L.Rubinshteyn, L.N.Stolovichlarning erkin va ijodiy xarakterga ega bo'lgan inson faoliyatlari universalligi, M.G.Aranovskiyning musiqa psixologiyasi va pedagogikasida musiqiy tafakkurning ikkita asosiy komponenti, Y.Xyoyzingning inson hayot faoliyati davomida o'yinning roli, S.Tregub, G.Shellenberg va D.Xillning san'at asarlarini idrok etishda yosh munosabatlari, A.L.Vaxetmes, S.N.Plotnikov, E.F.Volodin, L.Ya.Dorfman, V.P.Ivanov, M.S.Kaganlarning "badiiy faoliyat" fenomenologiyasi yoxud san'atni inson ma'naviy faoliyatini takomillashtirishning asosiy shakllaridan biri sifatida tushunish bilan bog'liq tadqiqotlar, L.N.Stolovichning badiiy faoliyat funksiyalari, B.M.Glotov (Б.М.ГЛОТОВ)ning san'atning ijtimoiy funksiyasi, Yu.B.Borev (Ю.Б.БОРЕВ)ning san'atning tarbiyaviyligi, V.P.Silin (СИЛИН) va M.E.Markov (М.Е.МАРКОВ)larning san'atning jamiyatdagi funksiyasi, A.N.Leont'yev (А.Н.ЛЕОНТЬЕВ)ning san'atning real borliqda shaxsiy mazmuni ifodalash, yaratuvchanlik va kommunikativ faoliyati, L.Novitskaya (Л.НОВИЦКАЯ), V.Avdeyev (В.АВДЕЕВ) va V.V.Semyonov (В.В.СЕМЁНОВ)larning mumtoz, pop va djaz musiqasining emotsional va fikrlash faolligiga ta'siri, K.A.Abulyxanova-Slavskaya (К.А.АБУЛЬХАНОВА-СЛАВСКАЯ), B.G.Anan'yev (Б.Г.АНАНЬЕВ), F.T.Arxiptsev (Ф.Т.АРХИПЦЕВ), G.S.Batishev (Г.С.БАТИЩЕВ), M.M.Baxtin (М.М.БАХТИН), N.A.Berd'yayev (Н.А.БЕРДЯЕВ), D.V.Bogoyavlenskaya (Д.В.БОГОЯВЛЕНСКАЯ), A.A.Bodalyov (А.А.БОДАЛЁВ), A.V.Brushlinskiy (А.В.БРУШЛИНСКИЙ), L.S.Viigotskiy (Л.С.ВЫГОТСКИЙ), S.O.Gruzenberg (С.О.ГРУЗЕНБЕРГ), V.V.Davidov

(В.В.Давыдов), L.Ya.Dorfman (Л.Я.Дорфман), A.V.Zaporojets (А.В.Запорожец), V.P.Zinchenko (В.П.Зинченко), V.P.Ivanov (В.П.Иванов), E.V.Ilyenkov (Е.В.Ильенков), M.S.Kagan (М.С.Каган), B.M.Kedrov (Б.М.Кедров), Dj.Kempbl (Дж.Кемпбл), T.V.Kudryavtsev (Т.В.Кудрявцев), N.S.Leytes (Н.С.Лейтес), A.N.Leont'yev (А.Н.Леонтьев), A.F.Losev (А.Ф.Лосев), Yu.M.Lotman (Ю.М.Лотман), M.E.Markov (М.Е.Марков), A.M.Matyushkin (А.М.Матюшкин), V.S.Muxina (В.С.Мухина), V.V.Nalimov (В.В.Налимов), N.N.Poddyakov (Н.Н.Поддьяков), A.Ya.Ponomaryov (А.Я.Пономарёв), V.N.Porus (В.Н.Порус), M.M.Rozin (М.М.Розин), S.L.Rubinshteyn (С.Л.Рубинштейн), V.V.Rubtsov (В.В.Рубцов), V.S.Solov'yov (В.С.Соловьёв), B.M.Teplov (Б.М.Теплов), L.N.Stolovich (Л.Н.Столович), M.A.Xolodnaya (М.А.Холодная), B.D.El'konin (Б.Д.Эльконин), M.G.Yaroshevskiy (М.Г.Ярошевский) larning ijodiyot va badiiy faoliyat yo'nalishidagi tadqiqotlarini ta'kidlash joiz.

Ushbu tadqiqotlar o'zining ko'lami va yo'nalishlari jihatidan musiqiy pedagogika va psixologiyada muhim ilmiy g'oya va nazariyalarni asoslashga, shaxsni musiqa orqali tarbiyalash mexanizmlari va qonuniyatlarini anglashga yordam berdi.

Musiqiy muloqotning maqsadi va ko'lamini musiqa asarini idrok etish sharoitlari belgilaydi: uning joyi (uyda, ishda, istirohat bog'ida, oshxona-kafeda, kontsert zalida), vaqti (o'qish yoki ish jarayonida, dam olishda, ijtimoiy tadbirlar yoki bu uchun ajratilgan alohida vaqtda), muloqot muhiti (yolg'iz, do'stlar davrasida, tanish va notanishlar davrasida) va muloqot shakli (bevosita yoki bilvosita) nazarda tutiladi⁷.

Mazkur omillar shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda kechadigan pertseptiv jarayonlarning sifat mazmuni bilan bog'liqdir. V.V.Medushevskiy talqiniga ko'ra, "Musiqqa asarida shaxsiy mazmuni anglashga intilish musiqiy tarbiyaning zaruriy

⁷ Кадцин Л.М. Музыкальное искусство и творчество слушателя. - М.: Высш. шк., 1990. - 303 с.

sharti sifatida qaraladi”⁸. Muallif tinglangan asar haqida ma’lum bilimlar shakllanishining ikki bosqichini ta’riflab, birinchi bosqichda asarning tashqi qavati, ya’ni dastlabki emotsional-hissiy kayfiyat haqida, ikkinchi bosqichda esa undagi ijtimoiy mazmun-mohiyat borasida bilimlar shakllanishini ta’kidlaydi.

Umuman, bajarilgan qator nazariy tadqiqotlarda musiqiy ijrochilikning pedagogik, psixologik va musiqiy-psixologik jihatlari keng tahlil etilgan bo‘lib, bu boradagi bilimlar zaxirasiga ega bo‘lish yosh mutaxassislar uchun foydalidir.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqiy rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
2. Bugungi kun musiqiy ta’limini tashkil etishga qo‘yilgan talablar nimalardan iborat.
3. Pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi samarasi nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Interaktiv metodlarga ta’rif bering.
5. Modulli ta’lim texnologiyalariga nimalar kiradi?
6. Shaxsiy musiqiy tarbiyalash xususitlari.

MUSIQIY-PEDAGOGIK JARAYON.

Reja:

1. Musiqiy-pedagogik jarayon xususiyatlari.
2. Musiqiy-pedagogik jarayonni tashkil etish.
3. Musiqiy-pedagogik jarayonda ijrochilik faoliyatini tashkil etish.

Tayanch tushunchalar: pedagogik jarayon, musiqiy-pedagogik jarayon, ijrochilik faoliyati, mulytimedia mahsulotlari, hissiy holat, interaktiv faoliyat, kommunikativ ijodiyot, diqqatning taqsimlanishi.

Ijrochilik faoliyati kompleks yondashuvni talab etadigan, nisbatan murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, ijrochidan diqqatni bir

⁸ Медушевский В.В. Двойственность музыкальной формы и воспитание музыки: О содержании понятия “Адекватное восприятие” // Восприятие музыки. - М.: Музыка, 1980. - С.106.

nuqtaga to'plashni, ijroni badiiy jihatdan talab darajasida tashkil etishni talab etadi.

Musiqiy-pedagogik jarayon yaxlit majmua. Unda o'qituvchining darsga texnik va metodik tayyorlanishi, dars xonasining tayyorligi darajasi, talabalarning o'tgan mavzu bo'yicha tayyorlanib kelganligi darajasi, shuningdek, o'qituvchining va talabalarning har birining mazkur damdagi hissiy holati, kayfiyati, salomatligi darajasi, xotirjamligi muhim o'rin tutadi. Bularning barchasi musiqiy-pedagogik jarayonni tashkil etishning birlamchi talablari bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, dars jarayonida texnika vositalaridan, multymedia mahsulotlaridan foydalanish darajasi, o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligi darajasi, mavzuni qay darajada talabalarga qiziqarli va ishonarli tarzda yetkazib berishi, dars jarayonida o'zining hissiy holatini maqbul boshqara olishi darajasi kabilardir.

Bularga talabalarning hissiy holati, interaktiv faoliyatga, o'zaro pedagogik muloqotga kirishish imkoniyatlari va o'zini tutishi, dars materialini bilishi darajasi, o'quv qurollarini olib kelganligi, ulardan foydalana olishi darajasi kabilar kiradi.

O'qituvchi tomonidan dars materialini talabalarga yetkazib berish darajasi asosiy mezon bo'lib, uning natijasi talabalarning bilimi sifatida shakllantiriladi.

O'qituvchi faoliyati intellektual pedagogik faoliyat bo'lib, mavjud bilimlarni uzatish, uning o'zlashtirishini nazorat qilish va egallanishiga erishish faoliyati bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi.

1. Pedagogik mehnat o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro harakat, muloqot va kommunikatsiya jarayoni, boshidan oxirigacha insonlarning o'zaro, birgalikdagi harakati jarayonidir.

2. Pedagogik mehnat predmeti individual, o'ziga xos, betakror xususiyat va sifatlarga ega bo'lgan faol inson.

3. Mehnat vositasi o'qituvchi shaxsi, uning bilimi, tajribasi va shaxsiy sifatlaridir.

Pedagogik faoliyatning asosiy elementlari: sub'yekt, ya'ni faol shaxs; ob'yekt, ya'ni faollik unga qaratilgan hamda; sub'yektning


xususiy faolligidir. Faoliyat hamisha maqsad va yoʻnalganlikni oʻzida aks ettiradi. Maqsadlarga koʻra faoliyatni quyidagi koʻrinishlarga ajratish mumkin: qayta yaratuvchi faoliyat, bilishga qaratilgan faoliyat, yaxlit-yoʻnaltiruvchi faoliyat va kommunikativ faoliyat.

Faoliyatning barcha turlari ijodiy va mexanik xususiyatga ega. Inson faoliyati harakat shakli sifatida namoyon boʻladi. Faoliyatda oʻzaro taʼsir turlari - harakat orqali taʼsir etish; gnostik, yaʼni bilish faoliyati orqali taʼsir etish; ijtimoiy-kommunikativ, yaʼni jamiyat maqsadlarini toʻgʻri anglagan holda axborot uzatish va qabul qila olish hamda xulq-atvorning namoyon etilishi, yaʼni chetdan kuzatish imkoni boʻlgan harakatlar tuzilmasining mavjudligidan iborat.

Oʻqituvchi oʻz faoliyatida doimo oʻquv jarayoniga yangilik olib kirish, takomillashishga harakat qilishi zarur. Bu vazifani amalga oshirish dastlab oʻqituvchining ongi, tasavvurida shakllanadi va soʻngra maʼlum jarayonga aylanadi. Pedagogik musiqiy ijodiyotning asosiy qirralari - metodik ijodiyot, bunga dars badiiy materialini oʻzlashtirishning optimal usullarini ishlab chiqish kiradi; kommunikativ ijodiyot, musiqa asarlarini ijro etish uslubi va yoʻllari oʻqituvchidan talabaga ijodiy tarzda oʻtkaziladi va oʻz-oʻzini takomillashtirishga qaratilgan ijodiyot, yaʼni, musiqa sanʼatining qadriyat sifatidagi ahamiyatini teran anglash orqali uni oʻzida singdirishdir.

Musiqiy taʼlimni zamonaviy talablar darajasida amalga oshirish uchun quyidagilarga eʼtiborni qaratish maqsadga muvofiq: talab darajasidagi musiqiy repertuarni tanlay olish qobiliyati, oʻquv-tarbiyaviy materialni loyihalay olish, musiqa darslari va darsdan tashqari ish shakllarini tuza olish; talabalarga emotsional taʼsir eta olish qobiliyati mavjudligi, emotsiyalarning yorqinligi va yoʻnalganligi, nutqdagi mimika, harakatlar, plastika (moslashuvchanlik)ning rang-barangligi; talabalarni musiqiy faoliyat yoʻnalishlariga safarbar eta olish qobiliyati, yuqori sifatli musiqa asarlariga nisbatan ularda motivatsiya, qiziqish uygʻota olish, musiqiy faoliyatning jamoaviy shakllari orqali (xorda kuylash, ansamblida chalish) ijrochilarni birlashtira olish; talabalar bilan muloqot oʻrnata olish qobiliyati, hamkorlik; talabalarni musiqiy-

estetik tarbiyalashning o'ziga xos jihatlarini bilish qobiliyati; bilimlarni o'rta olish, uzata olish, o'qitish qobiliyatidir.



2-rasm.

Ijodiy musiqiy pedagogik jarayonning turli qirralari mavjud bo'lib, ular aynan badiiy-musiqiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlashga yo'naltiriladi (2-rasmga qaralsin).

O'qituvchiga o'zini yaxshi, ishchan kayfiyatda tutishning turli usullarini bilish foydalidir. Bularga: yaxshi talabaning nigohini, yaxshi tashkil etilgan dars uchun talabalardan rag'bat eshitishni kutish, darsning quvnoq kayfiyat bergan qismidan qoniqish hosil qilish, hayajonlantiruvchi musiqa asari, mashg'ulot mavzusining qiziqarliligi kiradi.

Birta yoki bir nechta dars mashg'uloti talabalarning musiqiy bilimlarini kengaytirish jarayonining bir bo'g'inini tashkil etadi, xolos. Shuning uchun, faqatgina savodli tarzda, ifodali kuylash (chalish)ga emas, balki, uning vositasida o'z fikr-mulohazalarini, xayollarini, tasavvurlarini, kechinmalarini, qolaversa munosabatini aks ettirishi zarur.

Darsni yuqori saviyada tashkil etish uchun diqqatning taqsimlanishi yoki bir faoliyat turidan boshqasiga o'tishi muhimdir. Talabalarni diqqat bilan kuzatib, ijro etiladigan asarning sifati, uning

qanchalik darajada talabalarga borib yetishi, ma'lum ish uslubi va musiqiy faoliyat turi natijasi borasida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Darsda mimika va pantomimika elementlaridan foydalanish ham muhimdir.

Musiqqa darslariga tayyorlanib, o'qituvchi o'zining imkoniyatlarini chamalashi va ijro etiladigan musiqqa asarining qaeri sal bo'shroq, qaeriga alohida urg'u berish kerakligini hisobga olgan holda ishni tashkil etishi lozim. Bu tarzda imkoniyatlarni o'lchash o'qituvchining professional tayyorgarligi darajasini, jismoniy holatini, pedagogik iqtidori darajasini belgilaydi. Shaxsiy va professional sifatlarning yaxlitlik miqdori esa musiqqa o'qituvchisining imkoniyatlari chegarasi va diapazonini belgilaydi. Musiqqa o'qituvchisining professional tayyorgarligi – bu pedagogikada o'z ahamiyati bilan ulkan faollashtiruvchi yoki tormozlovchi omilga aylanadi.

Bundan tashqari, o'qituvchi hatti-harakatlarining tahlilini amalga oshirish muhimdir: ya'ni, vaqt-vaqti bilan ma'lum bir dars mashg'ulotini videoyozuvga olish va olingan materialni boshidan oxirigacha tahliliy o'rganish maqsadga muvofiq.

Umuman, musiqiy pedagogik faoliyatning sifati musiqqa o'qituvchisining har bir talabaga individual yondashish texnologiyasiga, shuningdek, musiqqa darsida sinf jamoasini boshqarishdagi uslublarga bevosita bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bu esa, musiqiy pedagogik mahorat darajasi bilan belgilanadi va bo'lajak o'qituvchilarda ushbu sifatlarni muntazam shakllantirib borish maqsadga muvofiq.

O'quv mashg'ulotlarida pedagogik muloqotni tashkil etish muhim musiqiy-pedagogik jihatlardan biri bo'lib, talabalarning musiqiy bilimlarni egallashida yetakchi rol o'ynaydi. Musiqqa materialini mazmunini tushuntirish, badiiy-dramaturgik g'oyani yetkazib berish, musiqqa asaridagi asosiy maqsadni to'la holda talabalarga yetkazishda muloqot zaruriy vositalardan biri bo'lib, o'qituvchining pedagogik mahorati darajasini belgilaydi.

Bundan tashqari, musiqqa hissiyotlar tili bo'lganligi bois, musiqiy kechinma va holatlarni tushunarli ifodalash, talabalarni musiqqa ohanglarining sirli olamiga olib kirish, o'rganiladigan, tinglanadigan

yoki tahlil etiladigan asarning badiiy g'oyasini ularga yetkazib berishda muloqot katta imkoniyatlarga ega.

Shuningdek, musiqiy faoliyatda muloqot va muomala san'ati muhim o'rin tutadi. Ular:

❖ Badiiy vazifalarni echishda moslashuvchanlik. Bunda sinf jamoasi bilan ijro faoliyatini amalga oshirganda talabalar jamoasiga tez moslashib keta olish imkoniyati tushuniladi. Zero, ushbu imkoniyat interaktiv musiqiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omildir.

❖ Hissiy (emotsional) jihatdan muhosin bo'lish. Dars jarayonida turli psixologik, hissiy vaziyatlarga duch kelinadi. Ba'zan kayfiyatni tushiradigan, salbiy holatlar uchraganda: agar ular ancha sezilarsiz bo'lsa, ko'rmaslikka olish, agar kattaroq bo'lsa, bosiqlik bilan ushbu masalani hal qilib, tezda mavzu tahliliga o'tish talab etiladi.

❖ Hamdardlik. Musiqa darsini muvaffaqiyatli tashkil etishda talabalarning kayfiyati muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun darsni boshlashdan oldin va dars jarayonida har bir talabaning kayfiyatini nazorat qilib borish va zarur bo'lsa, ularni qo'llab-quvvatlash, hamdardlik ko'rsatish katta ta'limiy ahamiyatga egadir.

❖ Muammoli vaziyatlarga nisbatan tayyor bo'lish. Talabalarning o'zaro muloqotini samarali tashkil etishda turli vaziyatlarga duch kelish mumkin. Muammoli vaziyatlar uchraganda uni engil hal qilish darkor.

❖ Muloqotning demokratik usuliga ega bo'lish. Qiziqarli musiqa darsi faqatgina interaktiv muloqot vositasida amalga oshadi, shuning uchun talabalar bilan xorda kuylash, orketsrda chalish yoki ma'lum musiqa asarini tahliliy tinglaganda albatta demokratik uslubda ish yuritish lozim.

❖ Ijro jarayonida talabalarning diqqatini boshqara olish. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat mexanizmlaridan xabardor bo'lish zarur, zero insonga turli qo'zg'atuvchilar muntazam ta'sir etib turadi.

Umuman, musiqiy-pedagogik jarayon xususiyatlari rang-barang tarzda namoyon bo'ladi va ular borasida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lgan holda pedagogik ishni tashkil etish ijobiy natijalarga olib

kelishi mumkin. Musiqiy ijrochilik faoliyatida esa musiqiy-pedagogik jarayon amaliy ijro faoliyatining sifati orqali namoyon etiladi va bu o'qituvchining pedagogik mahorati va kompetentligi darajasidan darak berib turadi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqiy-pedagogik jarayon xususiyatlari nimalarda ifodalanadi?
2. Musiqiy-pedagogik jarayon qay tarzda tashkil etiladi?
3. O'qituvchining darsga texnik va metodik tayyorlanishi.
4. Dars jarayonida mulytimedia mahsulotlaridan foydalanish.
5. O'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligi darajasi qanday namoyon bo'ladi?
6. Pedagogik muloqot xususiyatlarini tushuntiring.

MUSIQIY TA'LIM BERISH VA O'QITISH NAZARIYASI.

Reja:

1. O'qitish va tarbiya nazariyalari.
2. Musiqiy ta'lim va o'qitish nazariyalari.
3. Assotsiativ-reflektor o'qitish nazariyasi.

Tayanch tushunchalar: o'qitish nazariyalari, assotsiatsiya, assotsiativ-reflektor o'qitish nazariyasi, shaxs individualligi, aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi, interiorizatsiya, grafik model.

O'qitish nazariyalari tarixiga nazar tashlaganda, dastlab assotsiativ o'qitish nazariyasi XVII asrda shakllanganligini kuzatish mumkin. Mazkur davrning taniqli olimi J.Lokk o'zining fundamental tadqiqotlari orqali assotsiativ o'qitish nazariyasining metodologik asoslarini ishlab chiqdi. "Assotsiatsiya" atamasini birinchi bo'lib fanga J.Lokk fanga kiritdi. Keyinchalik assotsiativ o'qitish nazariyasi Ya.A.Komenskiyning sinf-dars tuzilmasida yanada mustahkamlandi.

Ushbu nazariyaning asosiy holatlari quyidagilardir:

- assotsiatsiya bilim olish (o'zlashtirish) mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi;

- har qanday o'qitish ko'rgazmalilikka, ya'ni hissiy bilishga asoslanadi;

- mashq qilish o'qitishning asosiy metodi sifatida namoyon bo'ladi.

Keyinchalik assotsiativ-reflektor o'qitish nazariyasi P.I.Pavlov va I.M.Sechenov tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, uning negizida didaktik tamoyillar va qator o'qitish nazariyalari yaratilgan. Mazkur o'qitish nazariyasida inson bosh miyasining shartli reflektor faoliyati asos qilib olingan.

Ushbu ta'limotga binoan, inson bosh miyasida muntazam tarzda shartli reflektor aloqalar hosil bo'lib boradi. Qaysi assotsiatsiyalar ongda mustahkam o'rnatilib qolishi shaxsning individualligiga bog'liq bo'ladi.

Aqliy faoliyat fiziologiyasi borasidagi ta'limot asosida taniqli pedagog va psixologlar S.L.Rubinshteyn, A.A.Smirnov, Yu.A.Samarin, P.A.Shevarev va boshqalar pedagogik tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Ularga ko'ra, shaxsda bilimlarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishi, shaxsiy sifatlarning rivojlanishi uning ongida sodda va murakkab assotsiatsiyalarning shakllanishi jarayoni bilan belgilanadi.

Bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalar shakllanishi, qobiliyatlarning rivojlanishi ma'lum mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'ladi va quyidagi bosqichlardan o'tadi:

- o'quv materialini o'zlashtirish;
- ichki aloqalar va ziddiyatlar bilan uni anglash;
- o'rganilgan o'quv materialini yodda saqlash;
- egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish.

Demak, ushbu o'qitish nazariyasi negizida o'quv jarayonidagi nazariy va amaliy vazifalarni echishda faol aqliy faoliyatni amalga oshirish turadi. Uning natijasida talabalar tomonidan o'qishga nisbatan faol ijobiy munosabat vaziyati yaratiladi.

Aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini yaratishda taniqli psixolog olimlar A.N.Leontyev,

P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, N.F.Talizina va boshqalar ishtirok etishgan.

Inson faoliyati ichki va tashqi tuzilishining birligi g'oyasi. Ushbu g'oyaga asosan aqliy rivojlanish, xuddi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni singari interiorizatsiya orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, tashqi (moddiy) faoliyat ichki aqliy harakatlarga aylanadi. Har qanday harakat bir necha qismdan iborat murakkab tuzilmadan iboratdir.

Har bir harakat ma'lum parametrlar bilan namoyon bo'ladi:

- ✓ amalga oshirilishi shakli bilan;
- ✓ umumlashtirilganligi bilan;
- ✓ kengaytirilganligi bilan;
- ✓ mustaqilligi bilan;
- ✓ o'zlashtirilishi bilan va h.k.

Egallanadigan bilim, malaka va ko'nikmalar sifati, aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish tushunchasi faoliyatning mo'ljalli asoslari to'g'ri tanlanganligiga bog'liq bo'ladi. Faoliyatning mo'ljalli asoslari o'rganiladigan harakatlarning matnli yoki grafik modeli hamda uni muvaffaqiyatli amalga oshirishning tuzilmasidir.

O'qitish jarayonida aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi bir necha bosqichdan iborat bo'ladi:

- motivatsion bosqich;
- harakat bilan oldindan tanishish;
- tashqi moddiylashgan shakldagi o'quv vazifasi orqali harakatlarni amalga oshirish;
- ta'lim oluvchining tashqi nutqi (talabalar bajariladigan vazifani ovoz chiqarib gapirishadi);
- ovozsiz nutq (talabalar hozirgi paytda bajarayotgan ishlarini ichda, ovoz chiqarmasdan gapirishadi);
- o'rganilayotgan harakatlarni avtomatik tarzda bajarish.

Muammoli-faoliyatli o'qitish nazariyasi ikkita bazaviy tamoyilni amalga oshiradi: muammolilik tamoyili va faoliyatli o'qitish tamoyili. Muammoli-faoliyatli o'qitish nazariyasining mohiyati shundaki, o'qitish jarayonida maxsus shart-sharoitlar yaratiladi, mazkur maxmu yaratilgan sharoitlarda ta'lim oluvchi o'zining egallagan bilim va ko'nikmalariga tayangan holda, mustaqil tarzda

izlanadi va o'quv muammolarini izlab topadi. Shu orqali ushbu muammoni echish yo'llari va optimal variantlarini topish bo'yicha izlanadi.

O'qituvchi tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatni idrok etish va anglash. Talabalar ushbu muammoli vaziyat bilan tanishishadi, uning asosida yotgan ziddiyatni anglashadi va o'zlarining qiynalgan jihatlari mohiyatini anglab etishadi.

Dasturlashtirilgan o'qitish kontseptsiyasi. Dasturlashtirilgan o'qitish deganda o'qitadigan qurilmalar, kompyuter va maxsus dasturlar, elektron darsliklar, kinotrenajyorlar va boshqa qurilmalar yordamida dasturlashtirilgan o'quv materialini boshqariladigan o'zlashtirish nazarda tutiladi. Dasturlashtirilgan o'quv materiali o'quv ma'lumotlarining nisbatan kichik qismlarini o'z ichiga oladi (ma'lum mantiqiy ketma-ketlikda beriladigan kadrlar, fayllar va boshq.) va ularni zudlik bilan bajarish vazifasi qo'yiladi. Vazifa o'z muddatida va to'g'ri bajarilgan holatda, yangi vazifalar beriladi. Nazoratni texnik qurilma o'z zimmasiga oladi.

To'g'ri chiziqli dastur – muntazam almashib turadigan va nazorat savollariga ega bo'lgan o'quv ma'lumotlari bloki.

Tarmoqlangan dastur - nazorat savollarini bajarishga imkon beradigan, to'g'ri javob berish va yangi o'quv ma'lumotlarini olishga imkon yaratadigan qo'shimcha o'quv ma'lumotlari bloki.

Adaptiv dastur – yangi o'quv materialini murakkablik darajasi bo'yicha tanlash, o'zlashtirish darajasi bo'yicha uni o'zgartirish va elektron ko'rsatkichlar, lug'atlar va qo'llanmalarga murojaat qilish imkoniyati mavjudligi.

Kombinatsiyalashgan dastur – ushbu dastur o'zida to'g'ri chiziqli, tarmoqlangan va adaptiv dasturlar qismlarini aks ettiradi.

Blokli o'qitish – o'zgarib turadigan, moslashuvchan dasturlar asosida amalga oshiriladi va turli intellektual vazifalarni bajarish, o'quv vazifalarini bajarishda egallangan bilimlarni qo'llashni ta'minlaydi (3-rasmga qaralsin).

Asosan quyidagi bloklar ajratib ko'rsatiladi:

- ❖ axborot bloki;
- ❖ matnli axborot (o'zlashtirilganni tekshirish);
- ❖ korrreksion-ma'lumotli blok;

- ❖ muammolar bloki;
- ❖ tekshirish va korrektsiya bloki.

Modulli o‘qitish – bunda talaba modullardan tashkil topgan o‘quv dasturlari orqali ishlaydi. Modulli o‘qitish texnologiyasi individuallashtirilgan o‘qitish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mustaqil bilim olishga imkon yaratadi, bunda nafaqat ish sur‘atini, balki o‘quv materialini mazmunini ham boshqarish, o‘zgartirish imkoni yaratiladi. Modullar g‘oyalari muammoli o‘qitish texnologiyasi bilan birlashtirish moslashuvchan muammoli-modulli o‘qitish texnologiyasiga olib keladi.



3-rasm.

Musiqiy ta'lim va o‘qitish nazariyalari. Musiqa ta'limida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyati masalasi muhim va dolzarb sanaladi. Masalaga engil qarash musiqiy-pedagogik ish sifatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin, zero gap yosh avlodga nafosat tarbiyasi berish masalasida bormoqda. Kelajakda musiqa o‘qituvchisi bo‘lishni istagan talaba musiqa ta'limi nazariyalaridan xabardor bo‘lishi zarur. Uningsiz pedagogik mahorat borasida gapirish qiyin.

Musiqa ta'limi nazariyasi quyidagi jihatlarni o‘zida aks ettiradi:

- musiqa ta'limi, tarbiyasi va o'quvchilarni estetik rivojlantirishga imkon yaratuvchi san'at va pedagogikaning qonuniyatlari;

- o'quvchi (talaba) borasida ta'lim sub'yekti sifatida tasavvur va ma'lumotga ega bo'lish;

- o'qituvchi-musiqachining ustuvor kasbiy sifat va fazilatlari;

- musiqa ta'limi tarkibiy qismlarining yaxlit modeli;

- o'qituvchi-musiqachining kasbiy faoliyati mohiyati, ko'rinishlari va xususiyatlari.

Ushbu jihatlar yaxlit holda musiqa o'qituvchisining pedagog sifatidagi, ijrochi sifatidagi hamda talaba (o'quvchi)lar jamoasini boshqaruvchi rahbar sifatidagi xususiyatlarini ta'kidlaydi. Demak, yuqorida ta'kidlab o'tilgan sifat va xususiyatlar musiqa o'qituvchisida qaror topgan bo'lishi, o'qituvchi ushbu jihatlarni o'z pedagogik faoliyatida mahorat bilan qo'llay olishi zarur, shundagina yosh avlodga musiqa ta'limi va tarbiyasini talab darajasida singdirishga erishishimiz mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar

1. O'qitish nazariyalariga ta'rif bering.

2. Musiqiy ta'lim va tarbiya nazariyalari xususida nimalarni bilasiz?

3. Assotsiativ-reflektor o'qitish nazariyasiga tavsif bering.

4. "Assotsiatsiya" atamasini fanga birinchi bo'lib kim kiritdi?

5. P.I.Pavlov va I.M.Sechenovlar tomonidan fanga qaysi o'qitish nazariyasi kiritilgan?

6. Aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasiga ta'rif bering.

MUSIQA O'QITISH JARAYONI.

Reja:

1. Musiqa o'qitish jarayoni xususiyatlari.

2. Musiqa o'qitishning pedagogik negizlari va asoslari.

3. Muloqot va uning musiqiy-pedagogik jarayondagi ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: o'qitish jarayoni, musiqa o'qitish jarayoni, muloqot, pedagogik muloqot, badiiy jamoaga rahbarlik qilish, aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi, motivatsiya.

Kasbiy yuksalish, pedagogik mahorat sirlarini o'rganishga harakat kiluvchi har bir musiqa o'qituvchisi avvalo, egallashi lozim bo'lgan pedagogik bilim, ma'lumot va axborotlarga ega bo'lishga intilishi, amalga oshirayotgan badiiy-ijroviy faoliyatining barcha qirralarini aniq tasavvur qilishi va natijalarini baholashi, yo'l qo'ygan ayrim xato va kamchiliklarining mohiyatini tushunib borishga harakat qilishi lozim.

Bu holatlar, albatta, musiqiy pedagogik faoliyat orqali amalga oshiriladi. Musiqiy pedagogik faoliyatda o'qituvchining izlanuvchanligi, o'z ustida muntazam ishlashi asosiy roly o'ynaydi.

Chunki, musiqa o'qituvchisining kasbiy mahorati musiqiy ijrochilik va musiqiy nazariy bilimlarni yosh avlodga yetkazish, ya'ni, izchil pedagogik mehnat orqali ko'lga kiritiladi. Musiqiy-pedagogik mehnat esa, umumiy pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlaridan (mashq qilish, repetitsiya, jamoaviy ijro, badiiy-musiqiy tadbirlar va h.k.) biridir. Shu asosda musiqiy-pedagogik faoliyat, ya'ni, o'qituvchi mehnati istiqbolli musiqiy-pedagogik texnologiyalar, vazifalar va ta'sir ko'rsatish yo'llari tasarrufi orqali namoyon bo'ladi.

Pedagogik mehnatning ob'yekti sifatida musiqa o'qituvchisi shaxsi turadi. Uning xarakteri, irodasi, ongi, aqlu-shuuri - odob-axloqining asosidir. Pedagogik faoliyat sub'yekti ham tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogning o'zidir. Chunki, u talaba (o'quvchi)larga nafosat, go'zallik, badiiy tafakkur qonunlari to'g'risida ma'lumot berish uchun avvalo, ularni o'z badiiy-musiqiy faoliyatining ob'yektiga aylantiradi. Shu tariqa bilimlar o'zlashtiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar talabalarga etkaziladi.

Shuning uchun kasbiy faoliyat jarayonida pedagog, tarbiyachi, tashkil qiluvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, shaxsiy xususiyatlarini va ijrochilik mahoratini takomillashtiruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Bularning barchasi bevosita va bilvosita pedagogik mahoratni

shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Musiqiy-pedagogik faoliyatda vazifalar aniq, rejali tarzda qo'yilsa, unda musiqa o'qituvchisi o'qitish, badiiy tarbiyalash, musiqiy rivojlantirish vazifalarini aniq ko'ra oladi va ularni hal qilishga harakat qiladi.

Bu jarayonda musiqiy faoliyatlar aqliy-ruhiy jihatdan tayyorlanadi, pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari belgilanadi, ijroviy natijalarni nazorat va tahlil qilish, baholash va yangi vazifalar belgilash amalga oshiriladi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish vositasida shaxsning badiiy kamoloti ta'minlanadi, natijada jamiyatimiz talabi hamda vazifalari bajariladi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi avvalo mazkur davrdagi zarur vazifalarni teran anglashi, har bir talabaning o'zlashtirish jarayoni, rivojlanib yetuk mutaxassis sifatida shakllanish darajalarining mezonini aniq ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor. Bu o'z navbatida o'qituvchidan katta bilim va tajribani talab etadi.

Darhaqiqat, musiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni murakkab pedagogik tizim bo'lib, uning o'z oldiga ko'yilgan badiiy vazifalarini optimal hal etish ko'pgina omillarga bog'liqdir, ammo eng asosiy omil bu musiqa o'qituvchisining kasbiy mahoratidir. Kasbiy mahorat muntazam izlanish, kuzatishlar, ilg'or musiqiy tajribalarni o'rganish, o'z-o'zini takomillashtirish orqali ko'lga kiritiladi.

To'plangan ilg'or musiqiy-pedagogik tajriba, musiqiy nazariy ma'lumotlar, amaliy faoliyat natijalari shundan dalolat beradiki, muntazam musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni oshirib borish, mashq qilish, takrorlash va erishilgan natijalardan olingan xulosalarni tahlil qilish bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik mahorat pillapoyalari sari yetaklayveradi.

Muloqot shaxslararo munosabatlar asosidir. Insonning ma'naviy hayot tarzida ikkita asosiy tomonni ajratish mumkin:

- tabiat va jonli mavjudot bilan aloqa. Inson uni o'rab turgan olamni o'zlashtiradi va o'zgartiradi. Bu inson faoliyatining birinchi qismiga kiradi;

- jonli mavjudotlarning birgalikdagi harakatni amalga oshirish orqali bir-biri bilan axborot almashinuvidagi aloqa. Muloqot barcha

jonli mavjudotlarga xos, biroq insonda u o'ziga xos oliy shaklga egadir. Muloqot ongli harakat bo'lib, nutq orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik muloqot mazmuni deganda, o'quv faoliyati (dars) jarayonida o'qituvchining talabalar bir-biriga uzatadigan axboroti tushuniladi. Kishilar bir-biri orqali juda katta hajmdagi axborot bilan almashinadi. Ularning ba'zilar quyidagilardir:

- olam haqidagi bilimlar;
- mavjud musiqiy tajriba;
- egallangan musiqiy ijro yo'nalishidagi ko'nikma va malakalar;
- mavjud musiqiy qobiliyatlar;
- mavjud musiqiy ehtiyojlar haqidagi ma'lumotlar;
- emotsional holatlar haqidagi ma'lumotlar.

Talabada ushbu faollikni paydo qilgan omil musiqiy-pedagogik muloqot maqsadini belgilaydi.

Pedagogik muloqot ijtimoiy, madaniy, ijodiy, bilishga qaratilgan va estetik ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Psixologlar pedagogik muloqotning 8 ta asosiy maqsadlarini ko'rsatishadi:

- *ikki tomonlama (kontaktli)* – musiqiy ijro jarayonida o'qituvchi va talabaning ikki tomonlama tayyorligi, ya'ni, o'zaro aloqa o'rnatish;

- *axborot almashuv* – musiqiy bilim, ma'lumot, axborotni uzatish va qabul qilish;

- *undovchi rag'bat* – talabaning musiqiy ijrochilikda erishgan yutuqlari orqali istiqboldagi musiqiy faoliyatini tashkil etishi;

- *mo'ljalli* – birgalikdagi musiqiy faoliyatda birga mo'ljal olish;

- *tushunish* - qo'yilgan ijroviy vazifalarni adekvat anglash;

- *emotiv qo'zg'alish* – ijro jarayonida emotsiyalar almashuvi;

- *munosabat o'rnatish* - ijro jarayonida interaktiv ikki tomonlama munosabat o'rnatish;

- *ta'sir o'tkazish* - musiqiy ijro jarayonida badiiy-musiqiy hamda emotsional ta'sir o'tkaza olish.

Muloqot axborot almashuv sifatida. Musiqiy kommunikatsiya deganda, avvalo ijro etilgan yoki tinglangan musiqa asari orqali shakllangan badiiy tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, kayfiyatlar

bilan ya'ni, badiiy-musiqiy axborot almashuvi tushuniladi. Biroq, musiqiy kommunikatsiya bu, nafaqat musiqiy axborot (ma'lumot)ni bir kishi boshqasiga uzatishi, bu aynan faol axborot almashuvidir. Kommunikatsiya orqali o'rtog'ining hatti-harakati va xulq-atvoriga bevosita ijobiy ma'naviy ta'sir o'tkaziladi.

Badiiy-estetik ta'sir o'tkazish o'rtoqlariga, sheriklariga ijro etilgan, tinglangan yoki tahlil etilgan musiqa asari borasida muloqot qilish, bahs-munozara uyushtirish nazarda tutiladi. Bu tilshunoslikda yagona yoki bir-biriga mos kodlashtirish hamda dekodifikatsiya mavjud bo'lganda amalga oshadi. Bu yerda: barcha bir tilda gapirishi lozim, muloqotga kirishuvchilarda bir xil leksik va sintaksik tuzilma, muloqot vaziyatini bir xilda tushunish yuzaga kelishi zarur.

Agar kodlashtirish va dekodifikatsiya tuzilmalari to'g'ri kelmasa, muloqotga kirishuvchilarda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va kasbiy farqlar orqali o'ziga xos to'siqlar paydo bo'lishi mumkin. Musiqiy faoliyatlarda esa ma'lum musiqa asari, janri, yo'nalishi borasidagi xush ko'rish, individual tanlashlar ustuvor ahamiyat kasb etadi va bu holat mazkur musiqa asari borasidagi munozaraning ijobiy rivojida aks etadi. Aksincha, turli kishilar bir narsani gapirib, turli boshqa-boshqa talqinlarga ega bo'lishlari yoki bir musiqa asari borasida turlicha baho va munosabat bildirishlari mumkin.

Axborot uzatuvchi (kommunikator)dan keladigan axborot ikki tipda:

- turtki vazifasini bajaruvchi va;
- bayoniy bo'lishi mumkin.

Kishiga uzatiladigan turtki vazifasini bajaruvchi axborot buyruq, maslahat yoki iltimos tarzida bo'lishi mumkin. Axborot uzatuvchi kommunikatorning maqsadi qandaydir harakatni amalga oshirish tomon bizning hatti-harakatlarimizni o'zgartirishdan iborat. *Bayoniy axborot* xabar shaklida namoyon bo'ladi.

Axborotning bunday turi turli o'qitish tuzilmalarida qo'llaniladi. Bir qarashda bayoniy axborot bizning hatti-harakatlarimizga ta'sir etmaydigandek ko'rinadi, aslida u harakatlarimizga jiddiy ta'sir etadi. Shuning uchun bayoniy axborotni kommunikatsiyaga kiritishadi.

Axborot uzatish belgilar tuzilmasi yordamida amalga oshiriladi. Belgilar tuzilmasi tipiga ko‘ra ularning:

- verbal (nutqli) kommunikatsiya va;
- noverbal kommunikatsiya ko‘rinishlari mavjud.

Noverbal kommunikatsiyaning funksiyasi nutqli muloqotni to‘ldirishdir. Noverbal kommunikatsiyaga:

- qo‘l ishoralari;
- yuz ifodalari (mimika);
- gavda harakatlari (pantomimika);
- belgilarning paralingvistik tuzilmasi;
- belgilarning ekstralingvistik tuzilmasi kiradi.

Belgilarning paralingvistik tuzilmasi - bu vokallashtirish (ovoz sifati, uning diapazoni, tonalligi) tuzilmasidir.

Belgilarning ekstralingvistik tuzilmasi o‘zida pauza, aksirish, yo‘talish, kulgi, yig‘ini aks ettiradi. Bu belgilar uzatilayotgan axborotni aniqroq tushunib olishga yordam beradi, uning semantik (mazmun) ahamiyatini oshiradi.

Muloqot birgalikdagi harakat sifatida. *Muloqotning interaktiv tomoni* tushunchasi muloqotning tarkibiy qismlari xususiyatlarini belgilaydi va insonlarning birgalikdagi harakati, faoliyati bilan bog‘liq. Musiqiy faoliyatda jamoaviy ijro, hech bo‘lmaganda ikki ijrochining birgalikdagi ijrosi ham aynan interaktiv faoliyat ko‘rinishini egallaydi.

Ijrochilarning birgalikdagi ijro faoliyati kommunikativ jarayonni hosil qiladi. Bu faoliyat jarayonida ijrochilar rivojlantiruvchi axborot almashadilar, ya‘ni ijro etish jarayonida bir-birlarini tinglab, umumiy jamoaviy ijroni nazorat qilib boradilar. Birgalikdagi ijro faoliyati uchun kommunikativ jarayon juda muhim bo‘lib, u o‘z ijrolarini nazorat qilish, rejalashtirish imkonini beradi.

Birgalikdagi faoliyatning boshqa ko‘rinishi – *konkurentsiyadir*. Konkurentsia musiqiy faoliyatlar jarayonidagi ko‘rik-tanlovlar, festivallar, konkurslarda yanada yorqin namoyon bo‘ladi va sog‘lom raqobat muhitini yuzaga chiqaradi. Konkurentsianing eng yorqin namoyon bo‘ladigan shakli ziddiyatdir.

Musiqiy jamoa. Undagi ijtimoiy-psixologik muhit. Ijtimoiy muhitda ommaning bir ko‘rinishi va bir-biri bilan o‘zaro birgalikda

faoliyat yurituvchi, ushbu ommaga o'zining mansubligini tan oluvchi va omma tomonidan uning ushbu ommaga a'zoli tan olinuvchi individlarning birligi jamoa deb yuritiladi. Shulardan biri musiqiy (badiiy) jamoa bo'lib, u quyidagi asosiy belgilarga ega bo'lishi lozim:

- musiqiy jamoa a'zolari birgalikdagi ijrochilik faoliyatni amalga oshiradi. Bu birgalikdagi faoliyat badiiy jamoaning mavjudligi va uning yanada mustahkamlanishiga hissa qo'shadi;

- musiqiy jamoa a'zolari professional va ijrochilik imkoniyatlari darajasiga ko'ra bir-biriga yaqin va o'xshash bo'lishlari lozim;

- musiqiy jamoa a'zolari badiiy-estetik qarashlar, shakllangan ustanovkalar, ma'lum musiqa asarlari, janrlari, yo'nalishlari borasida ma'lum pozitsiya (nuqtai nazar)lar birligi orqali nisbatan yuqori jipslikka ega bo'lishlari zarur;

- musiqiy jamoa aniq tashkillashtirilgan bo'lishi lozim;

- musiqiy jamoa o'zining ochiqligi, ya'ni, yangi a'zolari qabul qilishga tayyorligi bilan ajralib turishi lozim.

Musiqiy jamoaning ijtimoiy-psixologik muhiti ijrochilar o'rtasidagi ijro faoliyati sharoitlarini qondirish, boshqarish uslubi va darajasi, boshqa omillar bilan bog'liq o'zaro munosabatlarni, ijrochilik jarayonidagi kayfiyatdagi hal qiluvchi tonni aks ettiradi.

Har bir a'zo uni yaratib yoki o'zgartirib, badiiy jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitga ta'sir etadi. Shu bilan birga badiiy jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning o'zi uning har bir a'zosidan umumiy kayfiyatga mos holda fikrlash va harakat qilishni talab etadi.

Turli badiiy jamoalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hatto eng kichik jamoalarda ham a'zolar tomonidan hokimiyatga intilish, uning bo'lib olinishi, ya'ni liderlik xususiyatlari kuzatiladi. Liderlikning rasmiy va norasmiy tiplari mavjud.

Rasmiy lider – unga ma'muriy boshqarish yuklatilgan.

Norasmiy lider – u ixtiyoriy ravishda o'z zimmasiga boshqarish bilan bog'liq majburiyatlarni oladi.

Badiiy jamoa rahbari quyidagi sifatlarga ega bo'lishi zarur:

- irodaviy xususiyatlar;
- kasbiy idrok;

- yo‘naltirilgan diqqat;
- hajmli va aniq xotira;
- emotsional barqarorlik;
- kasbiy moslik (kompetentlik);
- kirishuvchanlik (muloqotmandlik).

Ushbu xususiyatlarga ega bo‘lgan rahbarlar o‘z badiiy musiqiy jamoalarida sog‘lom ma‘naviy muhit yarata oladi va pirovardida yuqori badiiy saviyadagi ijroga erishishi mumkin. Bularning barchasi talabalik davrida tizimli tarzda shakllantirilib borilishi maqsadga muvofiq.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqa o‘qitish jarayoni qanday tashkil etiladi?
2. Musiqa o‘qitishning pedagogik negizlarini ifodalab bering.
3. Musiqa o‘qituvchisining kasbiy mahoratini tushuntiring.
4. Pedagogik muloqot tushunchasiga tavsif bering.
5. Pedagogik muloqotda kodlashtirish va dekodifikatsiya tuzilmalari.
6. Verbal va noverbal kommunikatsiya ko‘rinishlari.

MUSIQA O‘QITISH PRINSIPLARI VA METODLARI.

Reja:

1. Musiqa o‘qitish tamoyillari.
2. Musiqa o‘qitish metodlari.
3. Innovatsion o‘qitish metodlari.

Tayanch tushunchalar: musiqa o‘qitish, musiqa o‘qitish tamoyillari, musiqa o‘qitish metodlari, innovatsion o‘qitish metodlari, hammaboplik, insonparvarlik, ilmiylik, sharoitlarning tengligi, motivatsiya.

Musiqa ta‘limi musiqiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni pedagogik texnologiyalar, nazariy va amaliy faoliyat vositasida egallash *jarayoni* hamda *natijasi* bo‘lib, amaliy ijrochilik yoki tahliliy-nazariy jihatdan musiqiy hodisalarni o‘zlashtirishning tegishli darajasini bildiradi. Musiqa ta‘limi bo‘lajak musiqachilar

vositasida jamiyatda oldin to'plangan musiqiy tajriba namunalarini rivojlantirish hamda kelajak avlodga yetkazish vazifasini bajaradi. Musiqa ta'limining barcha me'yorlari ta'lim standartlari orqali tartibga solinadi.

Musiqa ta'limining innovatsion tamoyillari orqali o'quv-tarbiya jarayoni tayanadigan asosiy nazariy g'oya va talablar tushuniladi (4-rasmga qaralsin). Ularga:

1. *Hammaboplik* - musiqa ta'limi barcha uchun uning irqi, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar baravarligi.

2. *Kreativlik*⁹ — musiqa ijodiyoti uchun zarur bo'lgan, maksimal darajadagi tashabbuslarni yoqlaydigan faol sharoitlar yaratish.



4-rasm.

3. *Insonparvarlik* - umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi; milliy va umumbashariy musiqa san'atining o'zaro aloqasi; musiqa ta'limi va tarbiyasini tashkil etish vositalari va metodlarini tanlashda erkinlik.

4. *Sharoitlarning tengligi* - har bir inson uchun o'zining musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish va tasarruf etish, har tomonlama

⁹ Kreatsiya (*ingl.*) – ijod; biron faoliyatni ijodiy asosda bajarish.

rivojlantirish imkoniyati mavjudligi;

5. *Ilmiylik* — musiqa ta'limi musiqiy nazariy fikrning ilg'or ilmiy-metodik natijalari va amaliy ijrochilik faoliyatida tashkil etiladi.

Ijtimoiy va musiqiy hodisalar o'rtasida muhim aloqalar bilan xarakterlanadigan, musiqa ta'limi va tarbiyasini samarali amalga oshirishning ob'yektiv sabablari musiqa ta'limi qonuniyatlarini tashkil etadi. Ularga:

- Zamonaviy jamiyatimiz taraqqiyoti darajasi bilan musiqa o'qitishning mazmuni orasidagi muvofiqlik;
- Musiqa o'qitish va tarbiyalash jarayonining milliy musiqa madaniyati rivojlanishini ta'minlaydigan negizlarga bog'liqligi;
- Musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmunining milliy musiqiy an'analarga bog'liqligi.

Musiqa ta'limi va tarbiyasining samaradorligi hamda sifatini ta'minlaydigan motivatsiyalar hamda dialektik ziddiyatlar musiqa ta'limining harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib hisoblanadi.

1. Motivatsiyalar motiv¹⁰ va qo'zg'atuvchilar birligi bo'lib, ular shaxsni ma'lum faoliyatga undaydi. Motivlar moddiy, ijtimoiy va axloqiy-psixologik turlarga bo'linadi. Birinchisiga, insonning qaysidir moddiy ne'matlarga ega bo'lishini ta'minlashi mumkin bo'lgan musiqa ta'limini kiritish mumkin. Ikkinchisiga — jamiyat tomonidan talab etiladigan kasbni egallash, musiqiy savodli bo'lishga intilish kiradi. Uchinchisiga — musiqa ta'limi va musiqiy-estetik faoliyatdan ma'naviy oziq olish kiradi.

2. Mavjud musiqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar orasida ziddiyatning¹¹ paydo bo'lishi, ularni doimiy engishga intilish musiqa ta'limi va tarbiyasining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. O'quv-tarbiya jarayonida bu ziddiyatlar tushunish va tushunmaslik, bilim va bilimsizlik, malakalilik va malakasizlik va h.k.lar orqali paydo bo'ladi. Musiqa ta'limi va tarbiyasida har safar keyingi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash musiqa ta'limini yaxlit holda

¹⁰ Motiv (*lot.*) – harakatlantiraman; faoliyatga undovchi sabab.

¹¹ Dialektika (*yun.*) – bahslashish san'ati, falsafada argumentatsiya metodi; o'zida ma'lum ziddiyat predmetini aks ettiruvchi refleksiv nazariy tafakkur shakli va vositasi.

oldinga harakatlantirishga va uning samaradorligini oshirishga olib keladi.

Musiqqa ta'limi rivojlanishi tarixida turli o'qitish metodikalari ishlab chiqilgan va ular amaliyotda samarali qo'llanib kelinmoqda.

Emil Jak-Dalkroz metodikasi asosida musiqaning uchligi tamoyili yotadi. Bular: musiqqa, so'z va harakat bo'lib, shaxsni shakllantirish vositasi sifatida ko'rsatiladi. Buning uchun asos qilib evritmika (musiqqa va harakat birligi) ko'rsatiladi, bu esa asosiy vazifani bajarishga imkon yaratadi – talabalarni musiqqa xarakteri asosida, uning sur'atiga, dinamikasi va metr-ritm xususiyatlariga mos holda harakat qilishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Jak-Dalykroz metodikasida solyfedjio¹² va improvizatsiya¹³ ham nazarda tutilgan bo'lib, ular musiqqa ta'limining nisbatan yuqori bosqichlarida qo'llaniladi.

Mariya Montessori metodikasi o'z ichiga ommaviy maktabgacha musiqqa tarbiyasini oladi va bola rivojlanishining senzitiv¹⁴ davrlariga asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning musiqiy tarbiyasi uch bosqichga bo'linadi: birinchi — bolani o'rab turgan tovushlarga nisbatan diqqatni rivojlantirish; ikkinchi — musiqani metr-ritm¹⁵ xususiyatlari bo'yicha idrok etishini aniqlash va mustahkamlash; uchinchi — melodik va garmonik eshitish qobiliyatini shakllantirishdir.

Karl Orf metodikasi muallifning “Shulyverk” (“*Schulwerk*”) nomli mashhur qo'llanmasida bayon etilgan. Uning nomi ikkita nemischa: “shulen” — o'qitish va “verken” — harakat qilish so'zlaridan tashkil topgan. Ushbu metodika asosida musiqiy sahna faoliyatining turli ko'rinishlarida musiqqa ijro etish jarayoni yotadi. Darslarda qo'llanilgan maxsus cholg'u asboblari majmuasi olim

¹² Solfedjio (*ital.*) - notalar, musiqqa belgilari, gamma; 1) musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi maxsus mashg'ulotlar; 2) fan nomi.

¹³ Improvizatsiya (*lot.*) - to'satdan, kutilmagan; musiqqa dramaturgiyasini rivojlantirish usuli.

¹⁴ Senzitivlik (*lot.*) - hissiyot, sezgilar qo'zg'alishi.

¹⁵ Metr — musiqqada urg'ularning bir maromda almashinishi va ritm (*yun.*) - bir tekis oqim; musiqqa asaridagi tovushlar cho'ziminin tashkillashtirilgan ketma-ketligi.

musiqa o‘qitish metodikasining amalga oshirilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zoltan Koday metodikasi “nisbiy (relyativ) lad solmizatsiyasi tuzilmasi” asosida amalga oshiriladi va xorda¹⁶ kuylash faoliyatini asosiy musiqiy tarbiya vositasi sifatida ko‘rsatadi. “Koday metodikasi” talabalarda musiqiy sozni, lad tafakkurini, turli tovush balandligini idrok etishni rivojlantiruvchi mashqlar orqali singdiradi. Buning uchun u nisbiy solmizatsiyani keng qo‘llashni taklif etgan.

Boris Trichkov metodikasi asosida “Zinapoya” ko‘rsatiladi va uning asosida “nota bilan ongli kuylash” kontseptsiyasi amalga oshiriladi: eshitish va ovoz o‘rtasida musiqiy muvofiqlikka erishish, tonni his etishni rivojlantirish, ritmni his etish, musiqani sevish va kuylash istagini bu orqali shakllantirish mumkin.

Dmitriy Kabalevskiy metodikasining asosiy yo‘nalishi “Musiqi va hayot” deb nomlangan. Musiqa darslari asosiy axloqiy-estetik tamoyillarga tayanib, talabalarni go‘zallikni ko‘ra olish va undan zavqlanishga o‘rgatishni o‘z vazifasi deb biladi. Mazkur texnologik dasturning asosiy mazmuni musiqa haqida muhokama, musiqa va musiqiy hodisalar haqida fikr va o‘ylardan iborat. Undagi asosiy faoliyat — musiqa tinglashdir.

Aytish mumkinki, mazkur o‘qitish metodikalari hozirgi kunda dunyoning ko‘pgina mamlakatlari musiqa o‘qitish tizimida qo‘llanib kelinmoqda. Mamlakatimiz musiqa pedagogikasida ham ushbu o‘ziga xos pedagogik texnologiyalardan ma’lum darajada foydalanib kelinmoqda.

Musiqa o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Hozirgi sharoitda ta’limni ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori pedagogik natijalarga erishish asosida tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bilim oluvchilarga qisqa vaqt orasida muayyan nazariy hamda amaliy ijrochilik borasidagi bilimlarni yetkazish, ularda musiqiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, dars jarayonini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini adolatli, optimal baholash o‘qituvchidan yuksak

¹⁶ Xor (*yun.*) - vokal musiqani ijro etuvchi jamoa; xonandalarning katta jamoasi. Xorlar: bolalar, xotin-kizlar, erkaklar, aralash va boshqa xorlarga bo‘linadi.

pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Musiqqa o'quv mashg'ulotlarida qo'llaniladigan ilg'or, innovatsion pedagogik texnologiyalar o'z mohiyatiga ko'ra sub'yektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishiga qaratiladi.

Pedagogik texnologiyalar:

1) musiqiy-pedagogik faoliyatda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishi;

2) o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro maqbul musiqiy-pedagogik hamkorlikni qaror toptirishi;

3) tahsil oluvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;

4) bilim oluvchilarda mustaqil, erkin va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

5) tahsil oluvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

6) musiqiy-pedagogik jarayonda demokratik va gumanistik g'oyalar ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Ta'kidlash lozimki, pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanib bo'lmaydi. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan, har bir dars mavzusi uchun maqbul bo'lgan texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda xorij ta'lim tizimida qo'llanilayotgan o'quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida ulkan tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interaktiv metodlar sifatida pedagogik muomalaga kirib keldi.

Ushbu interaktiv metodlar texnologiyasining mohiyati tahsil oluvchilarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin pedagogik ijodiy hamkorlik, bahs-munozara sharoitini yaratishdan iborat. Ularga ko'ra dars mashg'uloti bir necha bosqichga bo'linadi.

Biroq, musiqqa o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos jihatlari

mavjudligi sababli, aynan interaktiv faoliyat sifatida o'quvchi (talaba) va o'qituvchini keltirish mumkin. Bu jarayonda ijro sifati tahlil etiladi, uning kamchiliklari ko'rsatiladi, zarur yo'riqlar beriladi va kamchiliklarni tuzatish bo'yicha maslahatlar, adekvat ijro etib ko'rsatish orqali musiqiy ijrochilik faoliyatining sifati oshishiga imkon yaratiladi.

Bundan tashqari, guruhiy yoki jamoaviy ijrochilik shakli xor yoki orkestr tarkibida faoliyat ham o'ziga xos interaktiv faoliyat ko'rinishlaridan biridir. Ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bir-birlarining va o'qituvchining ijrosini kuzatadilar, unga ergashadilar, kamchiliklarini ko'rib boradilar va uni tuzatishga harakat qiladilar.

Demak, interaktiv pedagogik texnologiyalar sifatida pedagogikaga kirib kelgan texnologiyalar musiqa pedagogikasida aynan birgalikda ijro etish, shu orqali ijroning sifatini nazorat qilish va kamchiliklarini tuzatish imkoniyatini yaratadi.

“Aqliy hujum” metodikasi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti bahsning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil--mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad tahsil oluvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metodikadan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

Ushbu metodikadan musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda samarali foydalanish mumkin. Metodika tahsil oluvchilarning musiqa o'quv mashg'ulotlari jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni engishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

“6x6x6” metodikasi. Mazkur metodikani qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

✓ tahsil oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;

- ✓ vaqtni iqtisod qilish;
- ✓ har bir talaba (o‘quvchi) ni faollikka undash;
- ✓ ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Ushbu metodika yordamida bir vaqtning o‘zida ma’lum o‘quv guruhini muayyan musiqiy o‘quv faoliyatiga jalb etish orqali qo‘yilgan o‘quv vazifasini hal qilish, shuningdek, guruhdagi har bir a’zoning imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin.

“6x6x6” metodikasi asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 (3) ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach o‘qituvchi guruhlarni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 (3) ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) echimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur echimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Muhimi, mashg‘ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyatni amalga oshiradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar tahsil oluvchidan iborat bo‘lgan bir necha guruhlarda ham qo‘llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o‘rtasida “6x6x6” metodi qo‘llanilganda vaqtni ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunday mashg‘ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko‘p vaqt talab etiladi. So‘z yuritilayotgan metod qo‘llanilayotgan mashg‘ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati yaratiladi.


“Klaster” metodikasi. Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodikasi tahsil oluvchilarga ixtiyoriy mavzular xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Ushbu metod muayyan mavzuning tahsil oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. “Klaster” metodi puxta o‘yilgan strategiya bo‘lib, undan tahsil oluvchilar bilan

yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda tahsil oluvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Venn diagrammasi” metodikasi. Ushbu metodika tahsil oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. Metodika kichik guruhlarni shakllantirish asosida ma‘lum chizma bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu metodika ham musiqa o‘quv mashg‘ulotlarida nazariy fanlarni o‘qitishda qo‘l keladi.

“Venn diagrammasi” metodikasini qo‘llash jarayonida guruhlar tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mohiyati quyidagichadir. Faoliyat mohiyati O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bakalavriat bosqichida Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi tanlanishi yuzasidan bilimlarga ega bo‘lish asosida ochib beriladi (1-chizmaga qaralsin).



1-chizma.

“Musiqiy–hayotiy assotsiatsiyalar” metodikasi talabalarni yosh xususiyatlariga ko‘ra musiqa tinglash faoliyatiga qiziqtirish va ularning mavjud badiiy-musiqiy tasavvurlarini boyitishga yo‘naltirilgan. Mazkur metodika:

- talabalarning musiqiy ijrochilik imkoniyatlari;
- idroki darajalari;
- ulardagi musiqiy-hayotiy assotsiatsiyalar yo‘nalishi, ushbu assotsiatsiyalarning hayotiy mazmunga mosligi darajasi;

➤ ijro etilgan musiqaga nisbatan emotsiyalarni o‘zida aks ettirishi;

➤ idrokning musiqa asari rivojlanishi qonuniyatlariga tayanishi kabilarni aniqlashga imkon yaratadi.

Bu maqsad uchun tanlanadigan musiqa bir necha obrazlarni o‘zida aks ettirishi, ularning kontrastligi darajasi turlicha bo‘lishi, biroq, albatta engil o‘qilishi zarur. Musiqa talabalarga notanish bo‘lishi talab etiladi.

Musiqa yangrashi o‘qituvchi tomonidan ishonarli ohangda to‘ldirilib boriladi, talabalar soni 2-3 nafardan oshmasligi kerak. Musiqani tinglab, quyidagi savollarga javob berish so‘raladi:

1. Ushbu musiqa sizda qaysi xotiralarni qo‘zg‘atdi, hayotingizdagi qaysi voqealar bilan uni bog‘lash mumkin?

2. Qaysi hayotiy vaziyatlarda ushbu musiqa ijro etilishi maqsadga muvofiq va u insonlarga qay tarzda ta‘sir etishi mumkin?

3. Musiqadagi qaysi jihatlar sizning ushbu xulosalarga kelishingizga sabab bo‘ldi (shu nazarda tutiladiki, musiqa nima haqda va qanday so‘zlaydi, har bir alohida asarda uning ifoda vositalari qaysilar?).

Mazkur musiqiy-pedagogik metodika talablariga ko‘ra talabalarga bir xil musiqani taqdim etish zarur. Bu talabalar musiqada o‘z assotsiatsiyalariga tayanishi asosida musiqani idrok etishi darajasini aniqlashga imkon yaratadi.

Musiqa o‘quv mashg‘ulotlari turlicha murakkablikda tashkil etilishi va dialog hamda polilog usullarini qo‘llab, talabalarga quyidagicha savollar bilan murojaat qilish mumkin:

– siz musiqada nechta obrazni tingladingiz?;

– bu musiqa qaysi janrga mansub?;

– u qaysi shaklda yozilgan?;

– musiqada tasviriylik va ifodaviylikning yaxlitligi qanday amalga oshirilgan va h.k.

Musiqa tinglangach, har bir talaba bilan individual suhbat o‘tkaziladi. Agar u javob berishga qiynalsa, musiqa parchalarini qayta eshittirish mumkin. Javoblar yozma shaklda qayd etiladi, bu ma‘lum vaqtdan so‘ng ularning musiqa tinglash malakalarini tekshirganda farqlarni ko‘rish uchun zarur.

Natijalarni qayta ishlash quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- ✓ musiqaga beriladigan ta'rifning aniqligi;
- ✓ assotsiatsiyalarning badiiyligi va keng qamrovliligi;
- ✓ javoblarda emotsional ruhning aks etishi.

Talabalarning tafakkuri yo'nalganligiga, jumladan:

- ❖ umumiydan xususiyga;
- ❖ musiqaning obrazli mazmunidan ifoda vositalariga;
- ❖ musiqa tili uslubi va janriga keng ahamiyat qaratiladi.

Talabalarning javoblariga ko'ra, ular asar shaklini mazmunidan kelib chiqadigan ikkilamchi hodisa sifatida tushunsa, demak rivojlanayotgan musiqa obrazini yaxlit idrok etishi shakllanayapti, deb aytish mumkin.

“*Musiqani tanla*” metodikasi mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan musiqani aniqlashga qaratilgan. Bunda talabalar uch-to'rtta asardan parcha tinglab, o'z mazmuniga ko'ra o'xshash bo'lganlarini aniqlashi lozim.

Taklif etiladigan musiqa tashqi tomondan:

- shakl tuzilishi;
- ijro dinamikasi;
- qaysi muallifga mansubligi;
- musiqiy nutq elementlari;
- cholg'u sozlari;
- ijrochilar tarkibi va boshqalar bo'yicha o'xshashligini aniqlashlari talab etiladi. Texnologiyaning murakkabligi shundaki, tahlil etish uchun kontrast bo'lmagan asarlar taklif etiladi.

Tinglagandan so'ng talabalar ushbu asarlardan qaysilari o'z ruhi, musiqiy-obrazli tuzilishi bilan o'xshashligini aniqlashi lozim, so'ngra ular qaysi belgilari orqali ushbu xususiyatlarni aniqlaganliklarini so'zlab berishlari so'raladi. Texnologiya o'ziga xos «musiqani his etish»ni aniqlashga imkon beradi. Asosiysi - unda talabalar musiqa orqali paydo bo'lgan o'z emotsiyalarini yoki asardagi ifoda vositalarini baholashadi.

Agar ular faqat *vositalarga tayanishsa*, bu *past darajadagi* idrok imkoniyatlaridan darak beradi; faqatgina *o'z emotsiyalariga tayansa* – *o'rtacha daraja* sifatida baholanishi mumkin. Agar talaba

yangragan musiqa va o'z emotsiyalari orasida *ma'lum bog'lanishni aks ettira olsa*, ya'ni, ushbu emotsiya unda nima uchun paydo bo'lganligini izohlab bera olsa, buni *yuqori daraja* sifatida baholash mumkin.

“*O'zingni musiqa orqali namoyon et*” musiqiy-pedagogik texnologiyasi talabalarning musiqani idrok etishi va musiqaga nisbatan shaxsiy munosabatini aniqlashga mo'ljallangan. U ma'lum darajada talabalarning musiqa orqali o'zlarini namoyon etishini, o'z kechinma va hissiyotlarini, musiqa mazmuniga, uning obrazlariga, aks ettirilgan voqealarga nisbatan daxldorliklarini his etishini o'rganishga qaratilgan.

Bu uchun talabalarga yaxlit asar yoki uning parchasi taklif etiladi va uchta vazifa beriladi.

1. Talabalar “Musiqqa bilan hamsuhbat” maqomiga ega bo'ladi. Tinglangan musiqa asari ularga “nimalardir” haqida so'zlaydi, tinglagach o'z taassurotlari haqida gapirib berishlari so'raladi.

2. Talabalar tinglangan musiqa mazmunini o'z harakatlari orqali aks ettirishlari lozim, bu harakatli pantomima-improvizatsiya yoki oddiygina qo'l harakatlari bo'lishi mumkin.

3. Talabalarga chizgan suratlarida o'zlarini aks ettirish so'raladi. Bunda talabalar tinglayotgan musiqasidagi tasavvur etayotgan obrazini emas, balki o'zini musiqa tinglayotgan paytda aks ettirishi zarur. Bu shartlar har uchchala vazifada ham o'z kuchini saqlab qoladi, chunki unda musiqa emas, balki talabaning o'z ma'naviy olamiga bergan bahosi bizni qiziqtiradi. Musiqa esa o'z-o'zini baholash uchun manba, mazmunli sabab sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi va uchinchi vazifa o'qituvchining psixologik fantaziyasi uchun qiziqarli material bo'lishi mumkin. Amaliyot ko'rsatishicha, agar musiqa talabalar kayfiyati bilan hamohang yangrasa, u yoki bu tarzda ulardagi yashirin jihatlar, ular qalbining holati, umumiy psixologik ko'tarinkilik orqali yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Muxtasar qilib aytganda, musiqa ta'limida qo'llanadigan ilg'or musiqiy-pedagogik metodikalar va interaktiv texnologiyalar rang-barang bo'lib, ularni har qaysi holatdan, ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlaridan, musiqiy iqtidori darajasidan kelib chiqqan holda

qo‘llash ijobiy pedagogik natijalarga olib kelishi mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqa o‘qitish tamoyillarining pedagogik mohiyatini gapirib bering.

2. Musiqa o‘qitish metodlariga tavsif bering.

3. Innovatsion o‘qitish metodlarini tushuntiring.

4. Hammaboplik tamoyili nimaga asoslanadi.

5. Emily Jak-Dalykroz metodikasiga tavsif bering.

6. Zoltan Koday metodikasining o‘ziga xos jihatlari nimalarda ifodalanadi?

MUSIQA O‘QITISH SHAKLLARI.

Reja:

1. Musiqa o‘qitish shakllari.

2. Musiqa darsi tiplari.

3. Musiqa o‘qitishda yosh xususiyatlari masalasi.

Tayanch tushunchalar: musiqa o‘qitish shakllari, dars tiplari, musiqa darsi tiplari, yosh xususiyatlari, musiqiy idrok, musiqiy bilish, innovatsion metodlar, muammoli o‘qitish, ko‘rgazmali-harakat tafakkuri.

Musiqa ta’limi o‘ziga xos qator xususiyatlarga ega bo‘lib, yoshlarda birinchidan, nafosat tarbiyasi va umumiy musiqa ta’limi berish bo‘lsa, ikkinchidan, maxsus musiqiy bilimlarni singdirishga yo‘naltirilgandir. Aynan musiqa darslari yoshlarning qalbi va ongiga musiqa obrazlari orqali emotsional ta’sir etib, ularda ma’lum ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish, shu bilan birga ularni badiiy go‘zallikni ko‘ra bilish, anglash, undan zavq olishga o‘rgatadi.

Barcha fan predmetlari singari musiqa darslarining ham qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular musiqa fanining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda namoyon etiladi. Shulardan biri musiqa o‘qitish shakllaridir.

Musiqa o‘qitish shakllari asosan to‘rt xil bo‘lib hisoblanadi.

1) musiqa darslari;

- 2) darsdan tashqari ishlar;
- 3) o'quv muassasasidan tashqari ishlar;
- 4) talaba (o'quvchi)larning mustaqil ta'lim olishlaridir.

Dars o'z mohiyati bilan ta'lim berishga, tarbiyalashga va rivojlantirishga karatiladi. Dars o'zida jamoaviy, guruhiy va individual o'qitish shakllarini birlashtiradi. Uning mazmuni fan dasturi bilan belgilanadi. Darsda talaba (o'quvchi)larga musiqa ta'limi beriladi, ushbu bilimlarni mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarning rivojlantirilishi amalga oshiriladi, o'qish faoliyatiga nisbatan ijobiy-emotsional munosabatlari shakllantiriladi. Talaba (o'quvchi)larning umumiy musiqiy rivojlanishi ustidan kuzatuv va nazorat amalga oshiriladi.

Musiqa darsining boshqa fanlar mashg'ulotlaridan farqli, o'ziga xos xususiyatlari:

1. O'qituvchi va o'quvchilarning bevosita musiqaning jonli, obrazli ijrosiga, yangrashiga murojaat etishi.

2. Musiqaning inson ma'naviy olamiga, olamni anglashi darajasiga va emotsional idrokiga ijobiy ta'siri.

3. Insonning, hatto ruhiy rivojlanishida og'ish kuzatilganlarning ham psixik va psixologik holatiga korreksion ta'sir etish imkoniyati mavjudligi.

Musiqa darslari shaklining talqini.

- o'quvchilari soniga ko'ra (ommaviy, jamoaviy, kichik guruhli, individual);

- o'qish joyiga ko'ra (maktab va maktabdan tashqari);

- mashg'ulot davomiyligiga ko'ra (dars mashg'uloti 45 (40) minut, juft soat 80 minut, qisqartirilgan juft soat, muddati jihatidan erkin tashkil etiladigan mashg'ulotlar).

Hozirgi davrda 18-asrda Ya.A.Komenskiy tomonidan kiritilgan sinf-dars tuzilmasi qo'llaniladi va yanada rivojlanib bormoqda, uning asosiy tarkibiy qismi bu dars mashg'ulotidir. Dars mashg'uloti o'quv jarayonining mazmun-mohiyat, ma'lum ajratilgan vaqt va tashkiliy jihatidan yakunlangan (bosqich, parcha, element) qismidir.

Musiqa darsi musiqa ta'limini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi va ushbu jarayonda barcha ta'limiy vazifalar qo'yiladi, maqsad sari boriladi, egallangan bilimlar monitoring

qilinadi, baholanadi. Bu jarayonda guruhiy o'quv faoliyati, interaktiv ijodiy faoliyat amalga oshiriladi. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etiladi, qo'yilgan javoblardagi ayrim jihatlar korrektsiyalanadi, faol bilim oluvchilar alohida ta'kidlanib, rag'batlantiriladi.

Darsdan tashqari tashkil etiladigan musiqiy tarbiya shakllari ham o'quv faoliyati sifatiga ijobiy ta'sir etadigan muhim tadbirlar bo'lib (to'garaklar, bayram tadbirlari, fakulytativ mashg'ulotlar, taklif etilgan mutaxassislar tomonidan tashkil etiladigan mahorat darslari va boshq.), dars ular orasida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Boshqa barcha fanlar singari musiqa darsining mohiyati o'quvchilar bilan o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishdan iborat bo'lib, u hamisha emotsional jihatdan jozibador tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu faoliyatning asosida musiqiy idrok jarayoni yotadi.

Binobarin, musiqiy jarayon hissiyot, maqbul kayfiyat, ta'lim oluvchining ushbu damdagi emotsional holati bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur hissiy holatning ijobiy bo'lishi va mashg'ulotlar davomida ushbu holatni saqlab qolishga erishish badiiy musiqiy faoliyatning natijasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo'lib qoladi. Musiqiy faoliyatlar: cholg'u ijrochiligi yoki xonandalik faoliyatida, shuningdek jamoaviy ijro: xor yoki orkestr tarkibida ijro etganda ijrochining kayfiyati yuqori darajada bo'lsa, ijro sifati yuqori bo'ladi, agar teskari holat kuzatilsa, bunda yuqori ijobiy natija, ijrochilik faoliyati samaradorligiga erishish qiyin bo'ladi.

Musiqa o'quv jarayonidagi asosiy faoliyat shakllari: musiqa ijrosi, asar nota matni yoki partitura tahlili, tinglab tahlil qilish va boshqalardir. Ijro jarayonida asosiy maqsad ijro sifatini ta'minlash, tiniq intonatsiya va kompozitor qo'ygan musiqiy dramaturgiya maqsadini amalga oshirishdan iboratdir. Ijro etiladigan yangi repertuar asari nota matni bilan tanishish jarayonida uni to'liq tahlil qilish, tonal xususiyatlari, fakturasi, temp va dinamikaning namoyon etilishi xususiyatlarini puxta o'rganish talab etiladi.

Orkestr yoki xor asari partiturasini bilan tanishish va ijro faoliyatiga tayyorlanish maqsadi qo'yilganda, avvalo asar muallifi yashagan davr, undagi ma'naviy-ijtimoiy muhit, kompozitorning

qarashlari, ushbu asari orqali nima demoqchi ekanligini aniqlab olish, shundan so'nggina bevosita asar nota matni tahliliga o'tish mumkin. Asarni tahliliy o'rganishning yana bir optimal usuli, bu asarni bevosita tinglash va shu orqali tovushlar harakati, garmoniyasi, dramaturgiyasi, qo'yilgan badiiy voqelik maqsadi borasida ma'lum intellektual va emotsional tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Musiqqa darsida o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya'ni darsning maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari va boshqalar bo'lishi talab etiladi.

Dars maqsadi qo'yilgan ta'limiy ijodiy vazifadan kelib chiqadi. Vazifa esa maqsadga erishish yo'lini aks ettiradi. Vazifani amalga oshirish bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin. Mazkur bosqichlarni birin-ketin amalga oshirib borish jarayonida mavzu yoki o'quv jarayonining mazmuni oydinlashib, yorqinlashib boradi.

Dars maqsadi aynan o'qitish metodlaridan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Musiqqa o'qitish metodlari rang-barang bo'lib, ularning ko'pgina qismi boshqa fanlarda ham keng qo'llaniladigan o'qitish metodlari bo'lib, alohida qismi faqatgina maxsus musiqqa o'qitish metodlaridan iborat bo'ladi (bu borada alohida mavzuda batafsil to'xtalamiz) va darsning ta'limiy hamda tarbiyaviy vazifalarini bajarishda qo'l keladi.

Musiqqa darslarining boshqa fanlar o'quv mashg'ulotlari bilan o'xshash va farqli jihatlari shundan iboratki, birinchidan, musiqqa darslari o'qitiladigan barcha o'quv fanlariga qo'yiladigan talablarga javob berishi lozim. Ikkinchidan, musiqqa darsi bu san'at darsi bo'lib, shu orqali u boshqa fanlar bilan, ayniqsa, tabiiy ilmiy fanlar bilan ma'lum umumiylikka va yaqqol ifodalangan o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

Ularning umumiy jihatlari:

- yakuniy maqsad - ta'lim berish;
- darsning tashkil etilishi asosida psixologik-pedagogik qonuniyatlar yotadi;
- umumpedagogik tamoyillarga tayaniladi;
- Dars asosiy belgilariga ko'ra (sinf tarkibining doimiyliigi, darsning majburiyligi, uning davomiyligi: yangi bilimlar berish,

mustahkamlash, takrorlash, o‘zlashtirilgan materialni so‘rash va h.k.) bir xil;

- yaxlitlik;
- maqsadga erishishga yo‘nalganlik;
- dars mazmunini, o‘quv faoliyati ko‘rinishlarini o‘zlashtirish;
- o‘qitishning asosiy metodlari qo‘llanishi.

Musiqqa fanlari darslarining boshqa fanlar darslaridan farqli jihatlari:

✓ Asosiy farqli jihati, bu darsning ilmiy fan emas, balki san’at darsi ekanligidir. Musiqqa san’ati borliqni aks ettirishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, unda hissiyotlar, emotsional soha muhim rol o‘ynaydi. Shunga binoan, musiqiy bilish emotsiyalar va izlanish, ong va hissiyotlar asosida amalga oshishi zarur. Shundagina darsning qo‘yilgan badiiy va ta’limiy maqsadiga erishilishi mumkin.

1. Badiiy va texnik jihatlar birligi, bunda badiiylik (maqsad) muntazam tarzda texnik jihatini (maqsadga erishish yo‘li) to‘ldiradi, ya’ni texnik jihatni ustida ishlash badiiylik (ifodaviylik) ustida ham ishlash bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni, nazariy bilimlar bilan qurollangan holda amaliy ijro faoliyatini amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

2. Darsda jamoaviy faoliyat shakllarining ustuvorligi. Musiqqa faoliyatlarida jamoaviy ish shakllari turli tarkibdagi orkestrlar va xor jamoalari ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu esa har bir ijrochining boshqalar bilan sinxron tarzda, ularning intonatsiyasini aniq va tiniq eshitgan holda, ma’lum garmonik va melodik qoidalarga qat’iy amal qilgan holda ijro amalga oshirishini taqozo etadi.

3. Darsning asosiy mazmuni – musiqiy faoliyat bo‘lib, musiqaning keng tasviriy va ifodaviy imkoniyatlari, insonning emotsional sohasiga kuchli ta’sir eta olish imkoniyatlarini tushungan va bilgan holda ijro etishni ko‘zda tutadi.

4. Musiqiy o‘quv faoliyati barcha shakllarining ijodiy xarakter kasb etganligi. Barcha musiqiy faoliyatlar ijodiy, kreativ xarakter kasb etishi zarur, shundagina u tinglovchining emotsional sohasiga ta’sir etadi va unda ma’lum ijobiy assotsiatsiyalar qoldiradi.

5. Muloqotning ustunligi.

6. Dars tuzilishining noan’anaviyligi, dars tiplarining o‘ziga xosligi, ya’ni bunda barcha metodik ish shakllari asarni o‘rganish,

o'zlashtirishga qaratiladi va turli ish usullari, innovatsion metodlardan izchil foydalanish uning noan'anaviyligini va o'ziga xosligini ta'minlaydi.

7. Muammoli o'qitishning ustuvorligi. Musiqa o'qitishda turli muammoli o'qitish shakllari va metodlaridan keng foydalaniladi. Zero, ma'lum musiqa asari ijrosini o'rganish uchun uning turli cholg'u sozlarida, turli davrlarda, turli ijrochilar tomonidan ijro etilgan variantlarini taqdim etish va ularni keng bahs-munozara tarzida tahlil qilib, yakuniy xulosaga kelish samarali natija berishi mumkin.

Dars tiplari. Tip deganda - shakl, nimaningdir ko'rinishi, o'ziga xos sifatga egaligi tushuniladi. Ta'kidlash lozimki, dars tiplari darsning borishini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning ketma-ketligi orqali namoyon bo'ladi.

Musiqa darslarining tiplari noan'anaviy, ya'ni, nostandart bo'ladi. Bu – badiiy musiqiy o'quv jarayonining o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Masalan, cholg'u ijrochiligi yoki xonandalik bo'yicha o'tiladigan darslar, shuningdek, yangi asarni tahlil qilib, bu borada ma'lum xulosaga kelish xususiyatlari, shuningdek, darslar tipologiya jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Psixologiyaning tarmoqlaridan biri bu yosh davrlari psixologiyasidir. Yosh davrlari psixologiyasi sog'lom, normal insonning rivojlanishi qonuniyatlarini, turli yoshdagi kishilarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi. Yosh davrlari psixologiyasi bolalar psixologiyasi; o'smirlik va yetuklik yoshi psixologiyasi hamda gerontopsixologiyadan iborat. Musiqiy faoliyatlarda yosh xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson bosqichma-bosqich musiqiy tafakkur rivojlanishi pog'onalarini bosib o'tadi. Bola esa ijtimoiy tajribani muntazam tarzda o'zlashtirib boradi, katta va kichik yoshdagilar bilan bevosita muloqotga kirishadi. Shunday qilib, musiqadan ta'sirlanish tug'ilganining dastlabki kunlaridan boshlab, ko'rgazmali-harakat tafakkur esa hali nutq yaxshi o'zlashtirilmagan paytdan boshlab kuzatiladi.

Bola tafakkurida musiqiy ohanglar elementar, oddiy umumlashtirish orqali namoyon bo'ladi. Bu umumlashmalar

musiqiy tovushlarning dinamikasi va ijro sur'ati munosabatlarida, bolani emotsional jalb etgan holda aks etadi. Musiqa borasida nazariy tafakkur va emotsional munosabat bildirish kichik maktab yoshidan shakllana boshlaydi hamda o'spirinlik yoshida (16-18 yosh) musiqiy tafakkur jarayoni rivojlanib, o'z-o'zini takomillashtirish jarayoniga o'tadi.

Kettel kontsepsiyasida keltirilishicha, bizning har birimizda tug'ilganimizdayoq ma'lum intellekt mavjud bo'ladi. Bu intellekt bizning tafakkur, mavhumlashtirish va fikrlash qobiliyatimiz asosida yotadi va musiqiy faoliyatlar jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Taxminan 20 yoshda ushbu emotsional intellektning eng rivojlangan davri kuzatiladi.

Bolaning musiqaga munosabat bildirishi va shu orqali xarakteri namoyon etilishi hayotining birinchi kunlaridan shakllana boshlaydi. Unda bolaning yonidagi kishilar, masalan ota-onasi katta rol o'ynaydi. 2-3 yoshdan 9-10 yoshgacha bo'lgan davrda bola badiiy musiqiy yo'nalganligining namoyon bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Bolaning musiqaga munosabatini belgilovchi xarakter xususiyatlari ilk yoshdan shakllanib boradi. Musiqaga faol ijobiy munosabat bildirish imkoniyatlarini belgilovchi xususiyatlar dastlabki musiqiy faoliyatlar jarayonida hamda bolalar o'yinlari orqali shakllanadi. O'smirlik yoshida musiqaning ichki mazmuniga kirib borish, musiqiy shakl va mazmunni to'laqonli idrok etish belgilari yuzaga chiqadi, ma'naviy va badiiy dunyoqarashga yo'naltirilgan estetik asoslar esa ilk yoshlik davrida shakllanadi.

Muxtasar qilib aytish mumkinki, musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish, amaliy ijrochilik faoliyatiga yoshlarni tayyorlashda ularning yosh xususiyatlarini bilish, shu asosda musiqiy ta'lim va tarbiyani tashkil etish samarali musiqiy-pedagogik natijalarga olib kelishi muqarrar.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqa o'qitish shakllariga tavsif bering.
2. Musiqa darsining qaysi tiplarini bilasiz?
3. Musiqa o'qitishda yosh xususiyatlari ahamiyati borasida gapirib bering.

4. Musiqa o‘qitish asosan nechta shaklda amalga oshiriladi?
5. Musiqa darsining boshqa fanlar mashg‘ulotlaridan farqli jihatlarini ifodalang.
6. Musiqa darslari asosan nechta shaklda amalga oshiriladi?
7. Darsdan tashqari tashkil etiladigan musiqiy tarbiya shakllarini ifodalab bering.

MUSIQA TARBIYASI PRINSIPLARI VA METODLARI.

Reja:

1. Musiqiy tarbiyani tashkil etish.
2. Musiqa tarbiyasi tamoyillari.
3. Musiqa tarbiyasi tamoyillarini o‘quv faoliyatida qo‘llash.

Tayanch tushunchalar: musiqiy tarbiya, musiqiy tarbiya tamoyillari, individual yondashuv, o‘quv jarayonini tashkil etish, empatiya, kreativ qobiliyatlar, tolerantlik, sinkretizm.

Har qanday o‘quv fani sohasi singari musiqi tarbiyasida qator tamoyillarga amal qilinadi. Zero, ushbu tamoyillar musiqiy ta’lim berib tarbiyalash maqsadidan va uni amalga oshirish vazifalaridan kelib chiqqan bo‘lib, yakuniy jarayonda erishiladigan ta’limiy natijalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri daxldordir.

Oliy musiqiy ta’lim uzluksiz musiqi ta’limining yakunlovchi bo‘g‘ini bo‘lib, bu jarayonda egallangan barcha nazariy va amaliy bilimlar umumlashtiriladi, yakuniy jarayonda yangi umumlashma bilimlarga ega bo‘linadi. Musiqiy ta’lim sifatini jamiyatimizdagi takomillashib borayotgan jadal ijtimoiy rivojlanish sur’atlariga mos holda tashkil etish uchun ham ma’lum tamoyillarga tayaniladi.

Musiqiy tarbiyani tashkil etish, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashning quyidagi asosiy tamoyillari mavjud:

1. Ta’lim oluvchilarda musiqaga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash.
2. Shaxsda empatiyani, emotsionallikni tarbiyalash.
3. Psixik bilish jarayonlari diqqat, xotira va tafakkurni tarbiyalash.

4. Kreativ qobiliyatlar: ijodiy tasavvur, tafakkur va fantaziyani, ijrochilik va badiiy-ijodiy faoliyatlarda o'z imkoniyatlarini to'liq va dadil ifodalay olishni tarbiyalash.

5. Shaxsning axloqiy-kommunikativ sifatlarini: ularda boshqalarga nisbatan hamdardlik hissini, javobgarlikni, telorentlik, yuksak insoniy sifat hamda fazilatlarni tarbiyalash.

6. Nutqni tarbiyalash.

7. Kommunikativ qobiliyatlarni tarbiyalash.

8. Sinkretik¹⁷ shakldagi turli musiqiy faoliyatlar (xalq musiqasi, xalq musiqasi folyklori, jahon musiqasi namunalari, zamonaviy kompozitorlarning asarlari va h.k.) orqali yoshlarni musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish va keng jalb etish.

Ta'lim oluvchilarda musiqaga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash. Musiqa ta'lim murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, ta'lim oluvchilarni ushbu faoliyatga keng jalb etish, ularni muntazam tarzda, kuniga bir necha soatdan tinmasdan mashq qilishlariga erishish talab etiladi. Shu bois, musiqiy faoliyatlarga nisbatan ijobiy munosabat, ya'ni musiqiy faoliyatlarga qiziqish hamda u bilan muntazam shug'ullanish ehtiyojini tarbiyalash muhimdir.

Bu uchun turli ish usullari, jumladan, dars jarayonida qiziqishlarni yanada kuchaytirish mumkin. Jonli mukammal ijrolardan fragmentlar, katta festivaly va ko'rik-tanlovlar g'oliblarining ijrolari, laureat talabalarning ijro etgan asarlaridan parchalarni audiovizual tarzda idrok etish talabalarda qiziqishlarni yanada kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, talabalarni erishgan turli darajagi yutuqlari orqali rag'batlantirish, ushbu yutuqlarni talabalar o'rtasida keng targ'ibot qilish ham ularda ijobiy munosabatlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Shaxsda empatiyani, emotsionallikni tarbiyalash. Musiqa kishi ongi va qalbiga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatish, unda turli assotsiatsiyalarni uyg'otish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli musiqiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilarda empatiya, ya'ni,

¹⁷ Sinkretizm (lot.) - tasavvur va qarashlar obrazlarining qo'shib ketishi.

o'zgarlar hissiy holatini chuqur anglash, ularga hamdardlik hissini tuyish imkoniyatini tarbiyalash taqozo etiladi. Empatiya tuyg'usi shakllangan musiqachining ijrosi yanada ifodali, ta'sirchan, tinglovchilarga kuchliroq hissiy ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Emotsionallik musiqachi shaxsi uchun muhim sifat va fazilat bo'lib, aynan ushbu sifat orqali u musiqiy ijrosini yanada ifodali, mazmundor, insonning ichki olamiga ta'sir etadigan darajada namoyon etishi mumkin. Ushbu tarzda ijro etilgan musiqa asari tinglovchida ham adekvat emotsional holatlarni hosil qiladi va uning badiiy-estetik ta'sir quvvati yanada yuqori bo'lishi mumkin.

Ichki psixik bilish jarayonlari diqqat, xotira va tafakkurni tarbiyalash. Musiqiy faoliyatlarda bilish jarayonlari hal qiluvchi rol o'ynaydi va ularni mukammal egallash, ularning amal qilish va namoyon bo'lishi qonuniyatlarini bilish ijro sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Diqqat bilish jarayoni musiqiy faoliyatlarda boshqa ta'sir etuvchilar ta'siridan saqlangan holda ijroni amalga oshirish sifatini belgilaydi. Diqqatni bir nuqtaga to'plash, uning tanlanganligi va anglanganligi musiqachi uchun zarur bo'lib, maxsus mashqlar bajarish orqali bular egallanadi.

Musiqiy xotira musiqiy faoliyatlarning barchasida hal qiluvchi ahamiyatga ega va maxsus musiqiy qobiliyatlarning biri bo'lib hisoblanadi. Demak, kuchli rivojlangan musiqiy xotirasiz yaxshi musiqachi bo'lish ehtimoli ancha kam bo'ladi.

V.Motsart, F.Shubert, F.List, F.Shopen va boshqa kompozitorlar kuchli ifodalangan musiqiy xotiraga ega bo'lishganligi ma'lum. Shu orqali ham ular musiqa ijodkorligida yuqori natijalarga erishishgan.

Musiqiy tafakkur - musiqa ijod etish, ijro etish, hatto tinglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, musiqada badiiy mazmun ohanglar obrazlari orqali aks ettiriladi, ushbu ohang obrazlarini anglash, undagi badiiy-estetik mazmun, voqelikni tushunish uchun musiqiy tafakkur qilish talab etiladi.

Musiqiy tafakkurga yuqoridagi vazifalar yuklanganidan bilish mumkinki, demak, musiqa asari mazmunini tushunish, anglash

uchun ma'lum hayotiy tajriba, ma'lum darajadagi falsafiy mushohada, bilim kerak bo'ladi.

Kreativ qobiliyatlar: ijodiy tasavvur, tafakkur va fantaziyani, ijrochilik va badiiy-ijodiy faoliyatlarda o'z imkoniyatlarini to'liq va dadil ifodalay olishni tarbiyalash. Kreativ qobiliyatlar gumanitar yo'nalishlarda, ayniqsa san'at sohasi bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, kino san'ati, qolaversa, musiqa san'ati kabi yo'nalishlarda muhim sanaladi.

Musiqa ijrochiligi shunday xususiyatlari bilan namoyon bo'ladiki, kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa asari nota shaklida, qog'ozda aks etgan holda, uni yana jonlantirish amalga oshiriladi. Bu jarayonda ijrochi asarni ijro etib reproduktiv faoliyatni amalga oshiradi, zero, ijrochidan ijroga ijodiy, kreativ yondashuv, ijro etadigan asariga o'z qalbini, ichki dunyosini, tasavvur etadigan olami obrazlarini ko'z oldiga keltirgan holda yondashuv talab etiladi.

Ijro jarayonida kreativ qobiliyatlar - ijodiy tasavvur, tafakkur va fantaziya muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ijrochi ijro etadigan asarini ijodiy tasavvur etmasdan yuqori sifatli ijroni amalga oshira olmaydi. Shuningdek, musiqiy tafakkur ham asarning ichki tuzilishi, mazmun-mohiyati va dramaturgiyasini to'laqonli anglash imkoniyatini yaratadi. Fantaziya musiqiy ijroda muhim o'ringa ega bo'lib, badiha, asarga o'z qalb tug'yonini qo'shib ijro etishga ko'maklashadi. Keltirilgan ushbu sifatlar mavjudligi musiqiy ijroning sifatini ta'minlaydi va tinglovchiga etib borishiga shart-sharoit yaratadi.

Ijrochilik va badiiy-ijodiy faoliyatlarda o'z imkoniyatlarini to'liq va dadil ifodalay olishni tarbiyalash musiqa pedagogikasida alohida masala bo'lib, tayyorlanadigan mutaxassislarning kasb malakasi darajasini aks ettiradigan mezonlardan biriga aylanadi.

Musiqiy faoliyatlar hissiy holatlar, kechinmalar, taassurot va tasavvurlar negizida amalga oshirilishi sababli, ko'p hollarda ijrochilarning o'zi anglamagan holda kuchiga ishonmasligi, sahnada yoki imtihon jarayonida kuchli hayajon holatiga kirib qolishi oddiy holatdir.

Bu hissiy holat kuchli stressogen vaziyatni keltirib chiqaradi va natijada ijrochi asar ijrosi jarayonida ba'zi xatolarga yo'l qo'yadi. Bu ijro faoliyati natijasiga (baho) tubdan ta'sir ko'rsatadi va o'zining faoliyatiga nisbatan notabiiy, ayrim hollarda esa salbiy munosabat vaziyatini keltirib chiqaradi.

Mazkur holatlarning oldini olish maqsadida o'qituvchi muntazam tarzda sahna hayajonini engish bo'yicha maxsus mashqlar, treninglarni amalga oshirib borishi maqsadga muvofiq. Shundagina o'quvchi (talaba)larda ijro faoliyati jarayonida va boshqa badiiy-ijodiy faoliyatlarda hissiy hayajonga berilmasdan, o'z imkoniyatlarini to'liq va dadil ifodalashni tarbiyalash amalga oshiriladi.

Shaxsning axloqiy-kommunikativ sifatlarini: ularda boshqalarga nisbatan hamdardlik hissini, javobgarlikni, telorentlik, qator yuksak insoniy sifat hamda fazilatlarni tarbiyalash muhimdir. Ayniqsa, musiqiy faoliyatlarda axloqiy-kommunikativ sifatlarining o'рни beqiyosdir. Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilar bilan muomalani pedagogik nazokat ila amalga oshirish, pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilar psixologiyasini, hissiy holatini, turli psixologik vaziyatlarda ichki olamini tushunish va hamdard bo'lish, ularga ko'mak, madad berish, ko'nglini ko'tarish muhimdir. Bularning barchasi yoshlarga musiqiy ta'lim berish orqali ularni badiiy va estetik tarbiyalashga ko'maklashadi.

Nutqni tarbiyalash. Nutq insonning barcha faoliyatlarini muvofiqlashtiradin, boshqa insonlar bilan muomalaga kirishishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, musiqiy faoliyatlarda nutqning o'рни beqiyos.

Xonandalik faoliyati, vokal ijroda nutq hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va nutqning ma'lum ohangga solingan shaklida amalga oshiriladi. Bunda diktsiya, artikulyatsiya, nafas olish texnikasi, vovzni turlicha chastotalarda yo'naltirish texnikasi mukammal darajada namoyon bo'ladi.

Cholg'u ijrochiligi, jamoaviy ijro - xor yoki orkestr tarkibida ijro etish ham nutqsiz mukammal darajaga eta olmaydi. Chunki, amaliy ijroni o'rganish uchun uning kamchiliklarini bilish, o'zining ijro faoliyatini korrektsiyalash zarurati mavjud bo'ladi va bularning

barchasi tushuntirishsiz, o'rgatishsiz, ko'rsatmalarsiz amalga oshmaydi. Demak, nutq faoliyati musiqiy faoliyatlarni amalga oshirganda muhim o'rin tutadi.

Kommunikativ qobiliyatlarni tarbiyalash. Muomala yoki muloqot san'ati, boshqalarning fikriga quloq tutish, ularni eshita bilish, murosayu-madoraga kela olish kabi sifatlarning barchasi kommunikativ qobiliyatlarni tashkil etadi. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish jarayonida kishi muntazam taro'da boshqalar bilan muloqotga kirishishi, ular bilan munosabatni tashkil etishi zarurati mavjud bo'ladi.

Ushbu jarayonda kommunikativ qobiliyatlar kishiga yuqori kasbiy ijrochilik natijalariga erishish imkoniyatini yaratadi. Muntazam tarzda ushbu qobiliyatlarni tarbiyalab borish ta'limning tarbiyaviy jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinkretik shakldagi turli musiqiy faoliyatlar (xalq musiqasi, xalq musiqasi folyklori, jahon musiqasi namunalari, zamonaviy kompozitorlarning asarlari va h.k.) orqali yoshlarni musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish va keng jalb etish musiqasi pedagogikasining markazida turadigan talablardan biridir.

Musiqasi janrlari, turli milliy musiqasi namunalari, akademik va xalq musiqasi, folyklor musiqasi - qaysi musiqasi yo'nalishi yoki janri borasida gap bormasin, ularni yaxlit madaniy makonda tasavvur etgan holda fikr bildirish, bir-biridan ustun qo'ymasdan tahlil qilish va ma'lum xulosalarni bayon etish - yoshlarda musiqasi san'atining barcha sohalarida bir xil tarzda faol xizmat qilish vaziyatini yaratadi va ijobiy emotsional munosabat muhitini shakllantiradi.

Mazkur tamoyillar quyidagi vazifalar orqali namoyon etiladi:

Barcha asosiy musiqiy faoliyatlar negizida musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Bu amaliyot muntazam tarzda bajarib borilishi maqsadga muvofiq. Chunki, musiqiy qobiliyatlar musiqiy faoliyatlar muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy mezon bo'lganligi sababli ham ularga shu tarzda vazifa qo'yiladi.

Zarurat tug'ilganda, musiqasi vositasida shaxsning rivojlanishidagi ayrim individual muammolarni korrektsiya va profilaktika qilish mumkin. Bu amaliyot musiqasi ta'limida rivojlanishida ayrim nuqsoni bo'lgan bolalar bilan musiqiy-

pedagogik ishni tashkil etishda asqotadi. Sensibilizatsiya va sinesteziya qonuniyatlariga tayangan holda, bilish jarayonlarida nuqsoni kuzatiladigan ayrim o'quvchilar bilan individual ishlash va kutilgan pedagogik natijalarga kelish mumkin.

Rivojlantiruvchi musiqiy muhit yaratish demak, ta'lim oluvchilar jamoasida sog'lom, ishchan, kreativ shart-sharoit, vaziyat yaratish orqali yuqori pedagogik natijalarga erishish ko'zda tutiladi. Ayniqsa, ijrochilik faoliyatida o'z musiqiy qobiliyat va imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yaratish dolzarb bo'lib, har doim ham bu amalga oshavermaydi. Shu bois, ilg'or pedagoglar mazkur shart-sharoitni yaratish uchun barcha kuch va bilimlarini safarbar etadilar va yakuniy ijobiy natijaga erishadilar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim kontseptsiyasi bugungi kunda o'z ijobiy natijalarini namoyon tamoqda. Buni xalqimiz ko'rib turibdi. Shu bois, musiqa ta'limi va tarbiyasini mazkur metodologik vazifalar kontekstida tashkil etish samarali pedagogik natijalarga muhim omil bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim oluvchilarni milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizning yuksak yutuqlari, tarixiy meros an'analari negizida tarbiyalash ham dolzarb ahamiyatga egadir.

Ta'lim berib tarbiyalash va tarbiyalab ta'lim berish tamoyili asosida tarbiya jarayonini tashkil etish - tom ma'noda ta'lim va tarbiya birligini, yagonaligini isbotlab beradi. Zero, tarbiyasiz ta'lim masalaga bir tomonlama yondashuvni aks ettiradi, xolos.

Musiqa ta'limida yuqori pedagogik natijalarga erishishda huquqiy-me'yoriy hujjatlar muhim o'rin tutadi. Jumladan, Davlat ta'lim standartlari va fan dasturlari shular sirasiga kiradi.

Pedagogik samaradorlikni yanada oshirish uchun musiqa ta'limini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etish muhimdir:

Psixologik komfort tamoyili: ta'lim jarayonida barcha stressogen omillar olib tashlanishi, mazkur musiqiy faoliyatlardan (cholg'u yoki vokal ijrochiligi) quvonish, qoniqish, faoliyatga yanada qiziqish) o'zida qoniqish hosil qilish muhiti yaratilishi kutiladi;

Faoliyat tamoyili: yangi musiqiy bilimlar amaliy ijrochilikni musiqiy-pedagogik izlanishlar orqali tashkil etish asosida egallanadi;

Ilmiy asoslanganlik va amaliy joriy etilishi imkoniyati mavjudligi tamoyili: darsning tashkil etilishida barcha vositalar, ya'ni, shakl, metodlar qo'llanilishi, mazmun, badiiylik, tasviriylk ta'minlanishi zarur.

Yaxlitlik, zaruriyat va ta'minlanganlik tamoyili: musiqa ta'limini tarbiya nuqtai nazaridan olib borish, kam ma'lumot orqali ko'p bilimlarni mustaqil egallashga imkon yaratish.

Darsda tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarning birligi tamoyili: bu, mantiqan musiqiy rivojlantirish tuzilmasi orqali amalga oshiriladi.

Yaxlitlik tamoyili: barcha yangi musiqiy bilimlar bugungi kun bilan, atrof-olamdagi predmet va hodisalar bilan o'zaro bog'liq holda singdiriladi.

Minimaks tamoyili: rivojlanish va yosh xususiyatlari asosida musiqiy rivojlanish (bilimlar) darajasining turlicha darajada namoyon etilishi bo'lib, individual yondashuv orqali amalga oshiriladi.

Variativlik tamoyili: musiqiy ijrochilik jarayonida faollik darajasini mustaqil belgilash, ya'ni, repertuarni ma'lum darajada mustaqil tanlash imkoniyati berilishi. Darsda, bilimlarni o'zlashtirish jarayonlarida ma'lum erkinlik vaziyatini yaratish ko'zda tutiladi.

Muntazamlik tamoyili: musiqa ta'limining barcha bo'g'inlarida uzluksizlik va uzviylikning ta'minlanishi. Demak, qaysidir bosqichda o'tilgan mavzu boshqa qaysidir bosqiyada yana takrorlanmasligi lozim.

Ta'limiy sohalarning integratsiyasi tamoyili: musiqiy-ijodiy va ijrochilik faoliyatida pedagogik maqsad va vazifalardan qat'iy nazar, barcha ta'lim sohalari bilan uzviy aloqalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Buni badiiy adabiyot, ona tili, tarix, geografiya, tabiatshunoslik, madaniyatshunoslik, milliy g'oya va boshqa fan sohalari bilan uzviy aloqalar mavjudligida ko'rish mumkin.

Yoshlarning barcha hatti-harakatlari doimo kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi va ertangi kunni belgilashga xizmat qilishi zarur. Demak, har bir o'quv mashg'ulotida, har bir badiiy tadbirda, har bir ular bilan muloqotda yoshning ertangi kundagi yorqin istiqbolini takror va takror ta'kidlab turish zarur. Bu harakat ularda

muvaffaqiyat motivatsiyasi sifatida rag‘batlantiruvchi xarakter kasb etadi va ijobiy yo‘naltiradi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqiy tarbiyani tashkil etish xususiyatlari.
2. Musiqa tarbiyasi tamoyillarini tavsiflang.
3. Musiqa tarbiyasi tamoyillari o‘quv faoliyatida qanday qo‘llaniladi?
4. Ichki psixik bilish jarayonlariga ta’rif bering.
5. Musiqiy xotiraning ijrochi faoliyatidagi o‘rni.
6. Musiqiy tafakkur xususiyatlarini gapirib bering.

MUSIQA VOSITALARI BILAN AXLOQIY, MA’NAVIY, MEHNAT, JISMONIY TARBIYALASH.

Reja:

1. Musiqiy tarbiya tushunchasi.
2. Axloqiy, ma’naviy va mehnat tarbiyasini amalga oshirish.
3. Yoshlarni jismoniy tarbiyalash.

Tayanch tushunchalar: musiqiy tarbiya, axloqiy tarbiya, ma’naviy tarbiya, mehnat tarbiyasi, madaniyatlararo o‘zaro ta’sir, estetik qarashlar, e’tiqod, musiqiy tarbiya kontseptsiyasi, relaksatsiya mashqlari.

Madaniyat — jamiyat rivojlanishining turli shakl va ko‘rinishlarda, o‘zaro munosabatlarda, shuningdek, yaratiladigan moddiy va ma’naviy ne’matlarda ifodalanadigan ijtimoiy darajasidir. Musiqa madaniyati – musiqi ijodiyoti, ijrochiligi, tarixi, folykloristikasi va etnografiyasini, jamiyatning tinglovchilik imkoniyatlari va ko‘lamini o‘z ichiga oladi.

Madaniyatlararo o‘zaro ta’sir stereotip xulq-atvor orqali bir vaqtning o‘zida tabiiy va ijtimoiy jarayonlar bilan shartlangan, bir-biriga o‘zaro ta’sir etuvchi madaniyatlar ta’sirini aks ettiradi.

Shunga binoan, tarbiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, avloddan-avlodga ijtimoiy tarixiy tajribalarni yetkazish borasidagi faoliyat, shaxs shakllanishiga uzluksiz, maqsadga muvofiq, izchil

ta'sir etish orqali mustaqil harakatga, ishlab chiqarish, foydali, unumli mehnatga tayyorlashdir.

Musiqiy tarbiya esa shaxsning musiqa madaniyatiga bo'lgan munosabati, uning musiqiy qiziqishlari, intilishlari, qobiliyatining namoyon etilishi darajasi orqali unga singdiriladigan musiqiy tarbiyalashdir.

Musiqiy tarbiya musiqa ta'limisiz amalga oshmaydi. Musiqa ta'limi berishdan maqsad, uning izidan musiqiy tarbiya berishdir, ya'ni, musiqa ta'limi orqali egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatiladi. Musiqiy tarbiyada yosh nuqtai nazaridan yondashuv shaxs badiiy-musiqiy rivojlanishi qonuniyatlari va ulardan foydalanish, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liq o'ziga xos ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy hodisa sifatida musiqiy tarbiya barcha ijtimoiy institutlar, ommaviy axborot vositalari, madaniyat o'choqlari, oila, mahalla, uzluksiz ta'lim-tarbiya maskanlari tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodga ijtimoiy-tarixiy, madaniy tajribani singdirishning murakkab jarayonidir.

Musiqiy tarbiya pedagogik hodisa sifatida birinchidan, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, talabaning yuqori darajadagi rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan, uning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga kirib borishiga ko'maklashadigan, shaxs sifatida o'z hayotini, uning motiv va qadriyatlarini shakllantirishiga qaratilgan o'qituvchining kasbiy yuqori darajadagi faoliyatidir.

Musiqiy tarbiya maxsus tayyorlangan mutaxassislar ko'magida o'quv-tarbiya muassasalarida shaxsga ta'lim berish maqsadida yaxlit, ongli tashkil etilgan pedagogik jarayon bo'lib, bu orqali bolalar va kattalarga ma'lum badiiy maqsadga yo'naltirilgan musiqiy tarbiyaviy ta'sir etiladi va bunda bolalar ham tarbiya sub'yekti, ham ob'yekti bo'lib qoladi.

Musiqiy tarbiyada tarbiyalanuvchiga turli pedagogik vaziyatlarda musiqiy faoliyat yo‘lini tanlash va o‘z yo‘lini topishida muqobil xulq-atvor va hatti-harakatlar usullarini taklif etish amalga oshiriladi. Shaxsni musiqiy rivojlantirish, uning ijtimoiy-madaniy muhitda xarakter sifatleri, munosabatlari, estetik qarashlari, e‘tiqodi, hatti-harakati usullari rivojlanishi va shakllanishiga qaratilgan maxsus yo‘naltirilgan ta‘sir jarayoni va uning natijasi ham tarbiya jarayonini anglatadi.

Talaba tomonidan madaniy ne‘matlar va qadriyatlarni o‘zlashtirish, tarbiya maskanlari, ijtimoiy muhit va institutlar tomonidan o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil ta‘lim olishi maqsadida uning imkoniyatlarini rag‘batlantirish orqali ushbu tajribalarni uning o‘zlashtirishi va o‘ziga singdirib olishi uchun sharoitlar yaratish jarayoni tarbiyaning mohiyatini tashkil etadi. Musiqiy tarbiya tor, qisqa ma‘noda olganda aqliy yo‘naltirilgan yaxlit tarbiyaviy jarayondir.

Musiqiy tarbiyalanganlik musiqiy bilim, e‘tiqod, xulq-atvor ko‘rinishlari muvozanatida, ijtimoiy ahamiyatli sifatlar bilan namoyon bo‘ladigan shaxsning rivojlanish darajasini bildiradi. Musiqiy tarbiyalanganlik shaxsning bugungi rivojlanish darajasi bo‘lib, u tarbiyalanishdan, ya‘ni shaxsning potentsial darajasidan, uning yaqin rivojlanish zonasidan farq qiladi.

Musiqiy tarbiyaviy ish bolalar va kattalar hayotini muvaffaqiyatli tashkil etishga yo‘naltirilgan tor faoliyat turi bo‘lib, u o‘z oldiga to‘laqonli rivojlangan, barkamol shaxsni yaratish maqsadini qo‘yadi. Musiqiy tarbiya jarayoni badiiy, tarbiyaviy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaviy munosabatlar insonlar orasidagi munosabatlar ko‘rinishi bo‘lib, ma‘naviy va axloqiy o‘zaro tarbiyaviy ta‘sir orqali takomillashtirish va rivojlantirishda shakllanadi.

Musiqiy tarbiyalash imkoniyati mavjudligi insonda nisbatan jadal, qiyosiy tarzda bilish, emotsional yoki xulq-atvor malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlik imkoniyati mavjudligini bildiradi. Tarbiyalovchi musiqiy ta‘lim badiiy-estetik dunyoqarashni, madaniy-estetik tasavvurlarni va badiiy e‘tiqodni shakllantiruvchi ta‘limdir.

Musiqiy tarbiyaning asosiy qonuni o'sib kelayotgan avlodni katta yoshdagilar musiqiy tajribasining egasi sifatida tarbiyalash, ularning madaniy hayotga qo'shilishini ta'minlab berishda amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir.

Musiqiy tarbiyaning maqsadi jamiyatning alohida shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablari, o'ziga xosligi va fazilatlari, hayotga estetik munosabatining aqliy, jismoniy, axloqiy rivojlanishini nazariy va amaliy umumlashtirishdir. Musiqiy tarbiyaning ob'yektiv qonuniyatlari musiqiy o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va shaxsning o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirish an'analarini o'z ichiga oladi.

Musiqiy tarbiyaviy muhit inson shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir-birini boyitishi va bir-biriga muvofiq kelishi orqali amalga oshadi. Musiqiy tarbiyalash uslublari jamiyatda qabul qilingan hatti-harakatlar, muloqot, munosabatlar tizimi va talablarini yoshlar ongiga singdirishga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir usullaridir.

Shunga ko'ra, musiqiy tarbiya kontseptsiyasi g'oyalar majmuasidan iborat bo'lib, musiqiy tarbiya jarayonining mohiyati va maqsadini, shuningdek, musiqa o'qituvchisi va talabalarning o'quv mashg'ulotlari jarayonidagi pedagogik ta'sir usullari va pozitsiyalarini ochib beradi.

Musiqiy tarbiyaviy jarayonning natijasi estetik tarbiya shakllari, shuningdek, guruhiy, ommaviy va individual ishtirokchilar soniga bog'liq bo'ladi. Musiqa ta'limi va tarbiyasini takomillashtirish metodlari klassifikatsiyasi yagona metodologik asos bilan tartib berilgan tarbiya metodlari bo'lib, ular orasida shaxsga nisbatan faoliyatli yondashuvga asoslangan tarbiya metodlari eng optimal metodlar sirasiga kiradi.

Axloqiy va ma'naviy tarbiya musiqa tarbiyasining o'zagi bo'lib, umuman, musiqiy faoliyatlarga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Binobarin, musiqa tarbiyasi musiqa ta'limining ajralmas bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi va musiqiy ta'limning yakuniy natijasida aks etadi.

Musiqqa asarlarida ifodalanadigan yuksak insoniy fazilatlar, insonlarga hurmat ko'rsatish, ularning g'urur va e'tiqodini hurmat qilish, katta yoshdagilarga mulozamat ko'rsatish, ayniqsa onalarga, qizlarga mulozamatli bo'lish fazilatlarini shakllantirish g'oyalarini tarannum etish uchun ijrochilarning o'zlari yuksak axloqiy tarbiyalangan bo'lishlari zarur.

Ma'naviyat milliy xususiyat va fazilatlardan biri bo'lib, yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Musiqqa ta'limida ma'naviy tarbiyaga urg'u berish muhim ijtimoiy talab bo'lib, bu orqali yuksak tarbiya manbai yuzaga keladi. Ya'ni, tarbiya borasida fikr bildiruvchi, qo'shiq kuylovchi, gapiruvchi musiqachilarning o'zlari tarbiyalanganliklarini, ma'naviy tarbiya egasi ekanliklarini bu bilan isbotlaydilar.

Mehnat tarbiyasi ham musiqqa ta'limi va tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Zero, aksariyat kuy va qo'shiqlarda, ashulalarda mehnat ulug'lanadi, mehnat qilgan kishining hamisha e'zozda bo'lishi ta'kidlanadi. Shu bois, musiqqa ta'limi va tarbiyasida mehnat tarbiyasi alohida o'rin tutadi va bu jarayonda ta'lim oluvchilarga mehnat tarbiyasi singdirilib boriladi.

Jumladan, bir musiqqa asarini o'rganish uchun necha o'n, hatto yuz soatlab vaqt davomida mashq qilinadi, asarning har bir takti, har bir jumlasini alohida qunt bilan o'rganiladi, natijada chiroyli, yorqin jaranglaydigan musiqqa ijrosi yuzaga keladi. Mana shuning o'zi mashaqqatli mehnatga va u orqali inson his etadigan muvaffaqiyat nashidasiga misol bo'la oladi.

Musiqqa ta'limida yoshlarni jismoniy tarbiyalash umumiy musiqiy tarbiyaning muhim bir qismi hisoblanadi. Zero, musiqachi jismonan chiniquqan, sog'lom bo'lmasa, undan yaxshi musiqachi chiqishi qiyin. Chunki, musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishda kishidan katta jismoniy mehnat, jismoniy yuklamalarga bardosh berish talab qilinadi.

Shu bois, yosh musiqachilarni tayyorlashda, ularning jismoniy tayyorgarligiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Albatta, cholg'u ijrochiligi mahorati avvalo musiqqa asbobini tiniq, talab darajasida sozlashdan boshlanadi. Ijrochi sozni talab darajasida sozlay olmasa, uning ijrochilik mahorati borasida fikr yuritish qiyin. Ijrochi cholg'u

asbobini aniq va tiniq sozlagandan keyingina, chinakam ijro va uning emotsional ijobiy ta'siri haqida gapirish mumkin.

Cholg'u ijrochiligida muhim to'siqlardan biri mushak qisqarishlari muammosi bo'lib, ular jismoniy qiynalgan paytlarda yuzaga keladi. Muammoni echishga kirishib, kishi organizmi mushaklarni taranglashtiradi.

Cholg'u asbobida ijro etganda o'qituvchining harakatlari aniq va mo'ljalli bo'lishi uchun bo'shashuvchi va qisqaruvchi mushaklar harakatida muvozanat bo'lishi lozim. Bunday muvofiq harakatlar bosh miyada kechadigan qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari orqali amalga oshadi. Agar mushaklar juda ham taranglashgan holatda bo'lsa qisqaruvchi va bo'shashuvchi mushaklar engil ishlay olmaydi. Mushaklar tarangligini engishning yagona yo'li ularni doimiy nazorat ostida boshqara olish, ya'ni, ijro paytida ularni ma'lum darajada bo'sh tutishdan iboratdir.

Ko'pgina klavishli va torli cholg'u sozlarida tovush hosil qilish – zarb, chertish, tortish va bosish orqali bajariladi. Ushbu usullardan qanchalik samarali foydalana olish ijrochining mahoratiga, unda shakllangan ko'nikma va malakalarga bog'liq. Ularni amalga oshirishda birinchi navbatda ijrochida kuch, quvvat bo'lishi lozim. Bu esa aynan jismoniy holat bilan bog'liqdir.

Shuning uchun yosh ijrochilarni tayyorlashda ularning jismoniy holatiga, o'z ustida ishlashi maromiga e'tibor berish talab qilinadi. Shu asosda, ular bilan musiqa ijrochiligi rivojiga ko'mak beruvchi jismoniy rivojlantiruvchi va relaksatsiya mashqlarini muntazam tashkil etish yosh ijrochilarni tayyorlashda muhim omil bo'lishiga shubha yo'q.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqiy tarbiya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Musiqa ta'limining maqsadi?
3. Turli pedagogik vaziyatlarda pedagogning vazifasi borasida.
4. Musiqiy tarbiyalanganlik deganda nimani tushunasiz?
5. Musiqiy tarbiyaviy ishlarga nimalar kiradi?
6. Musiqiy tarbiyaning maqsadi?

ESTETIK, BADIY, MUSIQIY TARBIYALASH.

Reja:

1. Musiqa ta'limida estetik tarbiya.
2. Musiqa ta'limida badiiy tarbiya berish.
3. Musiqiy tarbiyalash mohiyati va mezonlari.

Tayanch tushunchalar: estetik tarbiya, estetik his, badiiy tarbiya, musiqiy tarbiya, voqelikka estetik munosabat, badiiy musiqiy did, kasbiy pedagogik mahorat.

Inson har qachon va hamma yerda go'zallikka, nafosatga, garmoniyaga intilib yashaydi. Inson dunyoga kelganidan boshlab unda olamga badiiy munosabatda bo'lish qobiliyati taraqqiy eta boshlaydi. Inson yurish-turishida, hatti-harakatida, ish faoliyatida, boshqalar bilan munosabatida va hokazolarda doimo go'zallik, did, nafosat bilan ish tutishga intiladi.

Kishi biror jozibali kuy tinglar ekan, o'z badiiy tafakkuri kuchidan, estetik tinglay olish mahoratidan zavqlanadi, o'zining nimalarga qodir ekanligiga ishonch hosil qiladi, o'z musiqiy qobiliyatini, jismoniy va ma'naviy kuchini anglash kishiga quvonch va mamnunlik baxsh etadi.

Go'zallikka intilish va estetik ehtiyoj tug'ma xislat emas. U insonda mehnat va tevarak-atrofdagi ma'naviy muhit ta'sirida paydo bo'lib, shakllanadi. Tevarak-atrofnı o'zgartirib borish bilan insonning o'zi ham o'zgarib boradi. Bunda u nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham taraqqiy etib boradi.

Estetik his deganda - tevarak-atrofdagi olamni uning kishida ma'lum bir ijobiy-ruhiy tuyg'u paydo etuvchi go'zalligi yoki xunukligi, yuksakligi yoki pastkashligi, fojaviyligi yoki kulgililigi e'tibori bilan idrok etish va baholash qobiliyati tushuniladi.

Insonning voqelikka estetik munosabati juda ko'p va turli-tuman voqealar hamda buyumlar olamini o'z ichiga oladi, ya'ni, insonning barcha faoliyati - uning voqelikka estetik munosabati doirasiga kiradi. Demak, barcha faoliyatlarni amalga oshirishda aynan estetika qonunlariga amal qilishga intilamiz, narsa yoki voqeaning estetik jihatini albatta hisobga olamiz.

Estetik ehtiyoj kishini mehnatdagi, maishiy hayotdagi, san'atdagi, qolaversa, inson hayotining barcha sohalaridagi go'zallik olamiga jalb etadi. Tarixdan ma'lumki, hatto bolta, arava va boshqa shu kabi foydasi tegadigan narsalarga ega bo'lish insonda bir butun, ya'ni faqat moddiy xarakter kasb etib qolmay, balki ma'naviy xarakter kasb etgan. Shunda inson buyum, narsalarni go'zallik nuqtai nazaridan baholashni o'rganib olgan edi.

Insonning voqelikka estetik munosabati juda ko'p va turli-tuman voqealar hamda buyumlar olamini o'z ichiga oladi. Odam tanasi qimmatbaho toshlar, bepoyon dengizlar va odamlarning fojiali to'qnashuvlari, inson tomonidan yaratilgan sanoat hamda ro'zg'or buyumlari, san'at asarlari — insonning barcha faoliyati uning voqelikka estetik munosabati doirasiga kiradi.

Turar joy loyihasini tuzayotgan arxitektor uyning yashash uchun tayyor bo'lishi to'g'risida ham, bino o'zining tashqi ko'rinishi, pardozi bilan kishining ko'zini quvontiradigan bo'lishi lozimligi to'g'risida ham o'ylaydi. Metroning er osti saroylariga qoplangan bezak toshlar bir-biri bilan uyg'un bo'lib, ular ayni bir vaqtda ham texnik jihatdan, ham estetik jihatdan mukammal xizmat qiladi.

Kostyum yoki ko'ylak sotib olar ekanmiz, biz faqat gazmolning pishiq bo'lishinigina o'ylab kolmay, balki didimizga mos tushadigan fasoniga ham qaraymiz. Bu kabi misollarni juda ko'plab keltirish mumkin.

Biz barcha hollarda narsa yoki voqeaning estetik jihatini albatta hisobga olamiz. Estetik baho umuman voqelikka, jumladan istalgan konkret buyumga bo'lgan nuqtai nazarimizning ajralmas bir qismidir. Kishi mehnat jarayonida sanoat buyumlari yoki nuqul ro'zg'orda ishlatiladigan narsalar (idish-tovoq, kiyim-kechak, mebely va hokazo) yaratar ekan, ayni shu bilan birga, o'zining go'zallik haqidagi tasavvurlarini, muayyan badiiy didini shu buyum va narsalarda gavdalantiradi. Kishi buyumning faqat foydali bo'lishigagina harakat qilib qolmay, balki uning chiroyli bo'lishi uchun ham harakat qiladi.

To'g'ri, biz keltirgan misollarda voqea yoki buyumga beriladigan estetik baho hal qiluvchi roly o'ynamaydi. Kostyum yoki ko'ylak modadan qolganda ham o'zining foyda berish rolini

yo‘qotmaydi. Ammo bundan estetik bahoga ahamiyat bermasa ham bo‘laveradi, degan ma‘no chiqmaydi. Go‘zallik nimada, qayerda namoyon bo‘lmasin, kishi unga befarq qaray olmaydi.

Kishining voqelikka bo‘lgan estetik munosabatida san‘at alohida o‘rin tutadi, u shuning uchun alohida o‘rin tutadiki, ijtimoiy ong va kishi faoliyatidan iborat bu shaklning asosiy mazmuni, bosh maqsadi hayotni badiiy-obrazli asosda bilish, go‘zallik qonunlari asosida ijod qilishdir.

Agar badiiy asar, kinofilym, teatr spektakli, musiqa asari kishiga estetik quvonch, kechinmalar, lazzat bag‘ishlamasa, u o‘zining asl maqsadi va qimmatini yo‘qotadi.

San‘at hayotni bilish va odamlarni tarbiyalashning qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta‘sir etish kuchiga bog‘liqdir. Axir, haqiqiy badiiy asardagi qahramonlarning hamma hatti-harakati chiroyli yoki xunuk, olihimmat yoki razil, fojiaviy yoki kulgili tarzda namoyon bo‘ladi-ku.

Biz musiqa shinavandalari, kitobxonlar yoki tomoshabinlar begona odamlar hayotini, bizga notanish kishilar taqdirini, asar qahramonlari hayotini hayajon bilan, quvonch va kulgu bilan yoki yig‘lash, g‘azab bilan, nafas olmay kuzatamiz. Biz ularning shubhalarini, tashvishlarini, g‘alabalari va mag‘lubiyatlarini o‘rtoqlashamiz, ma‘lum bir nuqtai nazardan turib ulardan birini qabul qilamiz, boshqa birlarini rad etamiz.

Musiqa san‘ati badiiy faoliyatning muayyan bir turi bo‘lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko‘rsatishdir. Shu ma‘noda uning o‘rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa san‘ati ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida faol o‘rin olgan. Rassomlar metro stantsiyalari, samolyotlar, stanoklar, uy-joylar, kiyim-kechaklar yaratishda qatnashadilar. Musiqa san‘ati esa his-tuyg‘ularni tarbiyalashda katta roly o‘ynaydi, u axloqning estetika maktabidir. Musiqa san‘ati vokelikni jamiyat nuqtai nazaridan aks ettirishi tufayli uning tabiati ham ijtimoiydir.

Voqelikka bo‘lgan estetik munosabat san‘atkorlar tomonidan yaratilgan san‘at asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham

ifodalanadi. Shaxsning estetik hissiyoti va badiiy didining tarkib topishi va tarbiyalanishida estetika katta roly o'ynaydi.

Go'zallikni idrok etish estetik hisning taraqqiyotini talab etuvchi ijodiy faoliyatdir. Estetik his har bir barkamol avlodga xos bo'lib, jamiyatning har bir a'zosi, u tadbirkor yoki akademik, quruvchi yoki kompyuter dasturchisi bo'lsin, boshqa narsalar bilan bir qatorda go'zallikni mushohada qilishga, uni idrok etishga o'zida ehtiyoj sezadi.

Kasbi va hayotiy manfaatlari jihatidan g'oyat darajada turlicha bo'lgan kishilarning ulug'vor tog' manzaralarini, bepoyon dengizlarni Shashmaqomning "Saraxbor" va "tarona"larini, M.Ashrafiyning "Qahramonlik" simfoniyasini tinglab yoki taniqli rassom Kamoliddin Behzodning A.Navoiyning "Xamsa"sigabag'ishlab yaratgan miniatyuralarini tomosha qilib, qalbi shavquzavqqa to'lishining sababi ana shunda.

Simfonik orkestr jo'rligida yirik cholg'u asarini ijro etayotgan yakkanavoz pianinochi, mo'yqalam bilan surat chizgan rassom, kinofilym yaratgan rejissyor yoxud teatr sahnasida turli odamlarning obrazlarini yaratuvchi aktyor ham, zavod tsexlaridagi stanok oldida turib noyob detaly yasayotgan ishchi ham ijodkordir. Shu sababli san'atda bo'lgani kabi, mehnatda ham muqaddas bir qoida: faqat kilayotgan ishingina muhim bo'lib qolmay, balki uni qanday bajarayotganing ham muhimdir, degan qoida amal qiladi.

Faqat san'atdagina emas, balki istalgan bir ishda ham mohir ijodkor bo'lish mumkin. Biz ixtirochi-ishchilarni ishlab chiqarish ilg'orlari deb atar ekanmiz, bu bilan ularning mehnatiga ayni vaqtda kasbiy-texnika, ham estetika nuqtai nazaridan baho beramiz. Yangilik yaratuvchi kishi qalbida hamisha ijod hissi jo'sh urib turadi. Ular ma'naviy go'zal kishilardir, chunki ularning bajarilgan, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlari bilan to'xtab qolmay, doimo ilgari qarab intilishlarining o'zi go'zaldir, shu sababli ham ular o'z mehnatlariga estetika nuqtai nazaridan qaraydilar.

Estetik hisning chuqurligi va kuchi kishining umumiy madaniyatiga, his-tuyg'ularining darajasiga, individual qobiliyatiga va estetik bilim, tarbiyasiga bog'liqdir. San'atga faqat o'yin-kulgi, dam olish deb qarovchi yoshlar ham mavjud. Ko'pchilik odamlar

hayot va san'at go'zalliklarini badiiy jihatdan ma'lumotli, estetik tarbiya olgan kishilarning bekamu-ko'st idrok etishlarini o'z tajribalaridan yaxshi biladilar.

Kishilar musiqa san'atining qadriga etadigan bo'lib tug'ilmaydilar. Ularning badiiy-musiqiy didi butun hayoti davomida tarbiyalanib, takomillashib boradi. Yomon musiqiy did ko'pincha, kishining etarli ma'lumoti yo'qligi, bir yoqlama suratda o'sganligi, umumiy madaniyati yo'qligi, musiqa san'atiga jiddiy qaramasligi natijasida paydo bo'ladi. Har bir odamning o'z musiqiy didi, o'z mayli bo'ladi.

Ko'pgina yoshlar engil, estrada musiqasini yaxshi ko'radilar, ammo opera va simfoniyalarga befarq qaraydilar. Bu kabi bir yoqlamalikning sababi ma'lum, albatta, chunki opera va simfoniya tinglovchidan ko'p darajada jiddiy tayyorlikni va nihoyatda nozik estetik hisni talab etadi. Bunday odamlarda opera va simfoniyani tushunish va yaxshi ko'rish bora-bora, birdan paydo bo'ladi.

Go'zallik bilan duch kelish, bu uchrashuv kayerdan bo'lmasin, mehnatdami, san'atdami yoki tabiat manzarasidami, kishida o'z ta'sirini, izini qoldiradi. Bunday uchrashuvlar kishining estetik hissini o'stiradi, u hisni ko'p daraja noziklashtiradi, ta'sirchan qiladi, estetik did hosil qilishga, ya'ni tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, san'at asarlarining go'zalligini his qilish qobiliyatining o'sishiga yordam beradi.

Biz ma'lum bir buyumga, hayotiy ma'lum bir hodisaga, san'at asariga baho berar ekanmiz, shuning o'zi bilan o'z-o'zimizga ham xarakteristika berayotganimizni, o'zimizning fuqarolik pozitsiyamizga, dunyoqarashimizga, madaniyatimizga baho berayotganligimizni ba'zan sezmaymiz.

Go'zallik hakiqatan ham misli yo'q, hayotbaxsh kuchga ega, u shu go'zallikni yaratgan odamlarni ham, uni idrok qiluvchi odamlarni ham o'zgartiradi, boyitadi, takomillashtiradi. Uning samarali ta'siri natijasida kishilarning qiyofasi, ularning ma'naviy dunyosi, psixologiyasi o'zgaradi, g'oyaviy e'tiqodlari mustahkamlanadi. Demak, musiqa ta'limida estetik tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi va shakllanayotgan yosh mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligida taqozo etiladi.

Musiqqa ta'limida badiiy tarbiya berish asosiy talablardan biri sanaladi. Musiqqa san'ati bu - nafosat, go'zallikni tinglash orqali his etishni taqozo etadi. Demak, go'zallik va badiiy musiqiy did musiqqa ta'limi va tarbiya sharoitida singdirib boriladi.

Badiiy tarbiya - musiqqa san'ati vositasida insonda dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu maxsus musiqqa ta'limi orqali yoki erkin tarzda, oilada amalga oshirilishi mumkin. Badiiy tarbiya insonni musiqani idrok etish jarayonida yoki amaliy ijodiy faoliyati orqali musiqqa san'atining turli darajada namoyon bo'luvchi hodisalariga oshno etishi mumkin.

Musiqqa pedagogikasida badiiy tarbiyaga keng urg'u berilishining sababi bor. Bu, musiqqa ta'limining keng qamrovliligi, faoliyat turlari va beriladigan ma'lumotlarning ko'pligi, amaliy ijro faoliyati mavjudligi, ijro jarayonida tahlil amalga oshirilishi, qayta tinglash, bo'lib-bo'lib tinglash, fragmentar tinglash amalga oshirilishidir. Natijada musiqqa asarining tuzilmaviy shaklini sintez qilish imkoni yaratiladi.

Bundan tashqari, musiqqa insonning ichki olamiga, kechinmalariga, hissiyotlariga kuchli ta'sir qilish imkoniyatiga egaligi sababli, undan kuchli tarbiya vositasi sifatida foydalanish imkoni mavjud. Tayyorlanadigan yosh pedagog kadrlar joylarda yosh avlodga musiqqa ta'limi va tarbiyasini amalga oshirar ekan, shu orqali badiiy tarbiya bilan duch keladi.

Demak, badiiy tarbiya musiqqa tarbiyasi kontekstida muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, tayyorlanadigan yosh mutaxassislar uchun dolzarb ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga molikdir.

Musiqqa ta'limi hamisha musiqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liq holda amal qiladi. Musiqqa ta'limini amalga oshirish jarayonida qo'llaniladigan turli metodikalar pirovard natijada yosh avlodga musiqiy tarbiya berish, musiqiy tarbiya orqali yuksak insoniy fazilatlarni singdirishga qaratiladi.

Shunday ekan, uzluksiz musiqqa ta'limi tizimida ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiyani tashkil etish hamda ularning jamiyatimiz talablariga javob bera oladigan, yuksak madaniyatli va ma'rifatli insonlar bo'lib shakllanishlari uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish davr

talabiga aylandi. Bu esa, pedagoglardan yuksak mas'uliyat va kasbiy pedagogik mahoratni talab etadi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqa ta'limida estetik tarbiya berish borasida.
2. Musiqiy tarbiyalash mohiyati nimalarda ifodalanadi?
3. Estetik ehtiyojlarga nimalar kiradi?
4. Estetik his deganda nimani tushunasiz?
5. Estetik baho qachon paydo bo'ladi?
6. Badiiy tarbiyadan qanday maqsad kutiladi?

MUSIQIY TARBIYA VA TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH.

Reja:

1. Musiqiy ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish.
2. Musiqiy tarbiya va ta'lim tizimini tashkil etish.
3. O'quv jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: musiqiy ta'lim jarayoni, musiqiy tarbiya jarayoni, musiqiy ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish, milliy raqs, xoreografiya, musiqa ta'limi menejmenti, pedagogik menejment.

Musiqiy tarbiya va ta'lim murakkab jarayondan iborat bo'lib, ushbu yaxlit pedagogik va tashkiliy jarayonni tashkil etish va boshqarishda bir qator institutlar ishtirok etadi. Ularni bo'ysunishi bo'yicha boshqaruv vertikal kesimida joylashtirganda quyidagi manzara namoyon bo'ladi.

1. O'quvchilar umumiy musiqa ta'limini egallaydigan umumta'lim maktablari bo'yicha:

- Tuman xalq ta'limi bo'limi;
- Shahar xalq ta'limi bo'limi;
- Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi;
- Xalq ta'limi vazirligi.

2. *Maxsus musiqa ta'limi beradigan ta'lim muassasalari - bolalar musiqa va san'at maktablari, akademik litseylar boshqaruv organlari:*

- Tuman madaniyat boshqarmasi;
- Shahar madaniyat boshqarmasi;
- Viloyat madaniyat boshqarmasi;
- Madaniyat vazirligi.

3. *Musiqa ta'limiga yo'naltirilgan san'at va madaniyat kollejarining boshqaruv organlari:*

- Shahar madaniyat boshqarmasi;
- Viloyat madaniyat boshqarmasi;
- Madaniyat vazirligi.

4. *Oliy musiqa ta'limi (umumta'lim maktablari uchun pedagog kadrlar tayyorlash - universitetlarning musiqa kafedralari):*

- ❖ Oliy o'quv yurti;
- ❖ Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

4.1. *Oliy musiqa ta'limi (maxsus musiqa mutaxassislari tayyorlash - O'zbekiston davlat konservatoriyasi):*

- ❖ Madaniyat vazirligi.

4.2. *Madaniyat sohalari uchun mutaxassis va pedagog kadrlar tayyorlash (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti):*

- ❖ Madaniyat vazirligi.

4.3. *Milliy raqs va xoreografiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash (Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi):*

- ❖ Madaniyat vazirligi.

Musiqa ta'limi yuqorida keltirilgan shaklda boshqariladi. Bunda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar, kompyuter texnikasi va mulytimedia vositalari, moddiy-texnik baza, jihozlash va boshqa masalalar ham yuqori boshqaruv organlari tomonidan tashkil etiladi va nazorat qilinadi.

Hozirgi sharoitda musiqa ta'limi menejmentiga ehtiyoj sezilmoqda. Musiqa ta'limi menejmentining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Pedagogik menejment, bu o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishning tamoyillari, metodlari, texnologik usullari va tashkiliy shakllarining yaxlit majmuasini tashkil etadi va pedagogik menejment yuritilishi musiqa ta’limini yaxlit jarayon tarzida ham tashkil etish, boshqarishni optimallashtirishga imkon yaratadi.

- Ta’lim jarayoni. Bu yosh avlodga musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarni tizimli tarzda shakllantirishning asosiy va yagona tuzilmasi bo‘lib, barcha tadbirlar ushbu jarayonning sifatli tashkil etilishiga qaratiladi.

- O‘quv-biluv jarayonining menejeri - pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi va pedagoglar jamoasini boshqaruvchi o‘quv muassasasi rahbari, ya’ni, o‘quv-tarbiyaviy jarayonini boshqarish sub’yektidir. Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari rahbariyati tomonidan qo‘yilayotgan talablardan biri, ta’lim muassasasiga rahbar - o‘quv jarayonini tashkil etuvchi menejer bo‘lishi zarur, degan talabdir.

Shu munosabat bilan, istiqbolda musiqa ta’limi sifatini oshirish bosh mezon sifatida ko‘rsatilayotgan ekan, o‘quv jarayonini tashkil etuvchi menejerga ehtiyoj kuchayib boradi.

- O‘quv jarayoni monitoringi. Bu kadrlar buyurtmachilari talablariga asosan rejalashtiriladigan kvotalar asosida ta’lim muassasasiga talabalarni qabul qilishdir. Boshqa tomondan, jamiyatda ma’lum kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha malakali kadrlarga nisbatan namoyon etilayotgan ehtiyojni o‘rganish ham muhimdir. Ta’lim marketingi orqali ushbu ehtiyoj aniqlanishi va shu asosda rejalashtirish amalga oshirilishi mumkin.

- Talabalar va ularning ota-onalariga oliy o‘quv yurti va o‘qitiladigan fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi. 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalari yoki umumiy qabul miqdori 2018-2019 o‘quv yiliga nisbatan 20%ga oshirilishi ko‘zda tutilmoqda. Shu munosabat bilan, istiqbolda oliy ta’lim olishni istagan yoshlarga birdaniga bir nechta oliy ta’lim muassasasiga hujjat topshirish imkoniyati berilishi mumkin.

- Kredit modul tizimiga o‘tish. Bunda talabalarga o‘qitiladigan fanlar ketma-ketligi va professor-o‘qituvchilarni tanlash imkoniyati berilishi mumkin.

• Ta'lim xizmatlari bozorining shakllantirilishi. Bu hozirgi kunda oliy ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablardan biridir. Echim sifatida muqobil oliy ta'lim muassasalari - xususiy oliy yurtlari ochilishiga ruxsat etish ko'zda tutilganligini qayd etish lozim.

• Ta'lim xizmatlari tarmoqlarining kengaytirilishi. Bu yuqorida ta'kidlangan, xususiy sektorning ta'lim bozoriga kirib kelishi va boshqa muqobil ta'lim xizmatlari tarmoqlarining kengayishi hisobiga amalga oshishi kutilmoqda.

Ta'lim xizmatlari bozorining o'ziga xosligi marketing sub'yektlari munosabatlari bilan belgilanadi. Ularga:

- Umumiy va maxsus musiqa ta'limi muassasalari;
- Ta'lim xizmatlari iste'molchilari (ota-onalar va ularning farzandlari);
- Musiqa ta'limi tuzilmasidagi vositachilar; barcha darajadagi boshqaruv, litsenziyalash va ruxsat berish organlari, moliya institutlari;
- Ta'lim xizmatlari bozorida ishtirok etadigan jamoat tashkilotlari kiradi.

Muxtasar qilib aytganda, respublikamiz oliy musiqa ta'limiga dadil kirib kelayotgan ta'lim menejmenti sifat va natijadorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lishi mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqiy ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish xususiyatlari.
2. Uzluksiz musiqiy ta'lim tizimiga nimalar kiradi?
3. Musiqa ta'limining ikki ko'rinishini tavsiflang.
4. Pedagogik menejment deganda nimani tushunasiz?
5. Ta'lim marketingi qanday vazifani bajarishga yo'naltiriladi?
6. Ta'lim xizmatlari bozori deganda nimani tushunasiz?

MUSIQACHINING PEDAGOGIK FAOLIYATI VA VAZIFALARI.

Reja:

1. Ijrochilikning pedagogik jihatlari.
2. Rivojlantiruvchi mashqlarni tashkil etish.
3. Musiqachining pedagogik vazifalari.

4. Musiqa asaridagi ma'lum parchalarni o'rganish ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar: musiqachining pedagogik faoliyati, musiqachining vazifalari, ijrochilik faoliyati, ijrochilik faoliyati pedagogikasi, analizatorlar sezuvchanligi, musiqiy eshitish tasavvurlari.

Musiqachi pedagogik faoliyatda endi faqatgina musiqachi emas, balki pedagog sifatida ham o'z iqtidorini namoyon etishi va ta'lim oluvchilar bilan pedagogik faoliyatni amalga oshirishi tialab etiladi.

Ijro faoliyatida har qanday harakatda bo'lgani singari ikkita zlement, ya'ni bosh miyada zarur tasavvurlarni shakllantiruvchi va harakatni bevosita amalga oshirish bilan bog'liq ijro etuvchi elementlar mavjud bo'ladi. Harakat yo'nalishi ongda qay tarzda tasavvur etilsa, u xuddi shu zaylda, ya'ni tasavvur etilganidek harakat qila boshlaydi.

Vokal ijroda tovush hosil qilishning o'ziga xos usullari mavjud. Bularniig qaysisini amaliyotda qay yo'sinda qo'llash ustozning yo'l-yo'riqlari orqali amalga oshiriladi. Xonanda ijro jarayonida ijro harakatlarini, shuningdek tasvirlanadigan badiiy-musiqiy obrazni ifodalash jarayonini muntazam nazorat qilib borishi lozim.

Cholg'u ijrochiligida ideomotor tasavvurlar, ya'ni, ongda tasavvur etilgan barmoqlar harakatini bajarish uchun erkin o'tirish, bo'shshish, ko'zni yumish va ijro harakatlarini tasavvur etib bajarish yoki ularni tovush chiqarib kuylashi talab etiladi. Hatto ma'lum harakatlarni yaxshi o'zlashtirib olgan taqdirda ham bu usuldagi mashqlarni to'xtatmaslik lozim. Chunki ular ijroviy harakatlarni dasturlashtiruvchi elementlarni zarur holatda saqlashga yordam beradi.

Harakatlarni ijroning umumiy holdagi sifatiga emas, balki ma'lum qismlardagi aniq harakatlar bajarilishi sifatiga qaratish lozim. Ma'lum ijroviy tavsiya va buyruqlarni o'ziga-o'zi berib borish orqali ham yuqori badiiy saviyadagi ijroga erishish imkoni paydo bo'ladi.

Bunday holda faqatgina yo'l qo'yilgan xatolar anglanadi, ularni tuzatish esa ancha mushkul. Ko'p bora takrorlash orqali musiqachi

zarur natijani qo‘lga kiritishi mumkin. Lekin bu usulda ishlab, musiqachi shuni yoddan chiqarmasligi lozimki, har bir noaniq bajarilgan harakat bosh miyadagi dasturlashtiruvchi qismda elektr impulysi hosil bo‘lishi bilan bog‘liq asab izlarini qoldiradi. Asab tarangligi holatida, masalan, cholg‘u yoki vokal ijro jarayonida bu izlar tormozlanishi yoki jonlanishi mumkin, natijada ijro sifati zarur darajada bo‘lmaydi.

Rivojlantiruvchi mashqlarni ijro etish jarayonida organizm bosqichma-bosqich tayyorgarlik holatiga kiradi, pulysning chastotasi, nafas olish ritmi, analizatorlar sezuvchanligi, fikrlash jarayonlari tezligi oshadi.

Barcha yo‘nalishdagi musiqachilar, ayniqsa, vokal va puflab chalinadigan, damli cholg‘ular ijrochilarining kasbiy o‘sishi uchun to‘g‘ri nafas olish muhimdir. Nafas olishning uchta tipi mavjud:

❖ Yuqori qism, tomoqdan nafas olish, bunda elkalar ko‘tarilib, pasayib turadi.

❖ O‘rta, ya‘ni ko‘krak, qovurg‘alar orasi bilan nafas olish, bunda qovurg‘alar qisqarib turadi.

❖ Pastki, ya‘ni diafragma bilan nafas olish, bunda diafragma pastga, qorin esa oldinga kengayadi.

To‘liq, samarali nafas olish quyidagicha amalga oshiriladi: nafas chiqarib bo‘lgandan so‘ng to‘liq chuqur nafas olinadi, bu paytda qorin oldinga kengayadi, so‘ngra qovurg‘alar ichkariga torayadi va nihoyat, havo o‘pkaning yuqori qismini to‘ldiradi. Nafas chiqarish paytida nafas oldin o‘pkaning yuqori qismidan, keyin ko‘krakdan va qorinning pastki qismidan chiqadi. To‘liq nafas olish ichki organlar - jigar, buyrak va boshqalarni massaj qiladi va ularda qon aylanishini yaxshilaydi. Faqatgina burun orqali nafas olish lozim, og‘izdan nafas olish bosh aylanishiga va mushaklarning ortiqcha qisqarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Xonandalardagi muhim kasbiy sifatlardan biri bu ichki eshitishdir. Ba‘zan ichki eshitish va musiqiy eshitish tasavvurlarini bir-biri bilan aynanlashtirishadi. Musiqiy eshitish tasavvurlari bu — musiqiy tonlarni cholg‘u yoki ovoz yordamisiz ongda tasavvur etishdir. Musiqani ichki eshitish qobiliyati ijrochiga asar ustida cholg‘u asbobisiz ham ishlashga yordam beradi, bunda eshitish

tasavvurlari yordamida ijroning mazmuni va sifati yaxshilanadi. Albatta, har qanday musiqaning notasini tushuna olish zarur. Agar asar notasini ijro etish kerak bo'lsa, oldin uni ko'z yugurtirib o'qish lozim.

Ushbu qobiliyat xotira imkoniyatlari bilan ham bog'liq. Musikiy xotirani rivojlantirish barobarida biz musiqiy eshitish tasavvurlari va tovush balandligini eshitish qobiliyatini rivojlantiramiz. Biroq, vokal ijro jarayonida eshitish xotirasini rivojlantirish murakkablashadi, bunga xotiraning motor (harakat) va ko'rish turlari qo'shilishi sabab bo'ladi. Asarni eshitib o'rgangandan ko'ra, xotiraning yuqoridagi turlari orqali o'rganish engil kechadi.


Zamonaviy musiqa o'qitish uslubiyotida "ko'raman - tinglayman - ijro etaman" iborasi keng tarqalgan. Uning mazmuni ijro etilishi lozim bo'lgan musiqaning ichki eshitish jarayonini oldindan faollashtirishdan iborat. Agar musiqachi ichki eshitish orqali ijro etish lozim bo'lgan musiqani emas, balki o'zi ijro etgan musiqani tinglasa, natijalar yuqori bo'lmasligi aniq.

Xonanda kasbiy faoliyatida musiqiy xotiraning o'rni muhimdir. Talab darajasidagi musiqiy xotira vokal ijroda ijodiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishning muhim omillaridan biriga aylanadi. Bu vokal asarni tez eslab qolish, uning xotirada mustahkam o'rinishi va hatto uzoq vaqtdan so'ng ham aniq ijro etilishiga imkoniyat yaratadi. Vokal asarni mazmunan idrok etish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim (5-rasmga qaralsin).

Turli emotsiyalarni ifodalash va boshqalarga uzatish bilan shug'ullanuvchi musiqa san'ati vakillari faoliyati tabiatini musiqa o'qituvchilari yaxshi bilishlari lozim. Bu esa ushbu emotsiyalarni o'z ijodlarida yanada kuchliroq aks ettirishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Quvonch emotsiyasi - yaqin do'stlar bilan uchrashuv, ko'pdan beri ko'rmagan joylarda bo'lish, tabiat va san'atga qiziqish va oshno bo'lish, salomatlikning joyida ekanligini his etganda; negativ emotsiyalar esa - g'azab, jahl, qo'rquvdan xalos bo'lish jarayonida paydo bo'ladi. Ijobiydan ko'ra salbiy emotsiyalar inson hayotida

ko‘proq uchrab turadi. Xarakteriga ko‘ra ularni faol – qo‘rquv, g‘azab va passiv - g‘am, qayg‘uga bo‘lishadi.



5-rasm.

Musiqqa vositasida emotsiyalarni ifodalash uzoq an‘analarga ega. Ya‘ni, musiqqa harakatni namoyon qiladi, har qanday harakatda esa quvvat mavjud va ular ma‘lum xossalarga ega. Inson musiqadan o‘z xarakteri yoki ushbu lahzadagi kayfiyatiga muvofiq ravishda zavqlanadi. Qadimgi allomalar ta‘limotiga ko‘ra, musiqqa hayot oqimining tashqi tomonini insonning ichki, psixologik holati bilan muvozanatga keltiradigan vosita bo‘lib hisoblanadi.

Affektlar nazariyasi tarafdorlari musiqqa insonning barcha ruhiy-hissiy holatlarini aks ettirishga qodirligini e‘tirof etganlar. Tomoshabinlar qalbiga chuqur hissiy ta‘sir etish uchun ifodalaydigan kechinmalarini musiqachi avvalo, o‘z qalbida aks ettirishi zarurligi talab qilingan. Famgin holatni ijro etganda o‘zi ham ushbu holatni aks ettirishi, quvnoq holatlarni ifodalamoqchi bo‘lganida o‘zi ham yayrab, yuz-ko‘zlari charaqlab ketishi lozim, deyiladi.

Musiqqa tarbiyasi o'quvchilarni turli emotsional holatlar bilan tanishtirib, ularning hatto temperamenti¹⁸ doirasiga kirmaydigan emotsiyalarni ham his etishga o'rgatadi, bu esa atrof-borliq va boshqa insonlar bilan muloqot hamda munosabat o'rnatishlari doirasini kengaytiradi hamda chuqurlashtiradi.

Ushbu emotsiyalarni modellashtirish tamoyili orqali insonning musiqada aks ettirilgan qaysidir qadriyatlarga nisbatan munosabati xarakterini ilg'ab olish qiyin emas. Jumladan, g'amgin xaraktyerdagi musiqqa qaysidir qimmatli qadriyatlarini yo'qotgan insonning salbiy emotsiyalarini aks ettirishi mumkin.

Quvnoq xaraktyerdagi musiqqa (yalla, lapar va h.k.) esa o'zi uchun muhim va qimmatli sanalgan narsalarga erishgan kishi kayfiyatini beradi. Jangovarlikni ifodalovchi musiqqa (madhiya, marsh va h.k.) esa o'z maqsadi uchun kurashayotgan kishi hissiyotlarini aks ettiradi. Sokin musiqqa (mumtoz musiqqa va xalq musiqasining ayrim namunalari) kishini hayot va uning rang-barang ko'rinishlari haqidagi falsafiy mushohadalarga chorlaydi.

Iroda kuchi haqida gapirilganda ma'lum, rejalashtirgan ishni amalga oshirishda ma'naviy va jismoniy kuchlar etishmayotganda o'zining bilimi, kuchi va iqtidorini to'la safarbar etish, o'zini chidam, sabot, sabr-toqat bilan faoliyat yuritishga majbur qila olish kuchi tushuniladi. Irodaviy harakatlar - qat'iylik, maqsad sari intilish, jasorat, mustaqillik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini boshqara olish va chidam kabi faoliyat qirralari orqali namoyon bo'ladi. Biroq, bu sifatlarga chuqurroq nazar tashlansa, ushbu shaxs sifatlari nafaqat iroda yoki kuchli intilish bilan, balki kishining ma'lum predmetga qiziqishining ham chuqurligi bilan bog'liq.

Shaxsning irodaviy sifatlari turli holatlarda turlicha namoyon bo'ladi. Shu bois, kishi ayrim holatlarda iroda sifatlarining yuqori darajasini namoyon etsa, boshqa holatlarda past darajasini namoyon etishi mumkin. Ya'ni, o'zi ustidan hukm yurita olsa, ixtiyorsiz

¹⁸ Temperament (*lot.* – qismlarning maqbul nisbati): shaxsning barqaror individual psixofiziologik xususiyatlari. Temperament shaxs xarakteri shakllanishining asosini tashkil etadi.

impulyslar oldini olsa va o‘zi zarur deb hisoblaganlarini kuchaytira olsa, irodaviy faoliyatni amalga oshirgan hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, bola o‘z xulq-atvorini tasavvur obrazlari ta’sirida boshqara olgan paytdan boshlab unda shaxs sifatleri paydo bo‘lishi boshlanadi. O‘z hatti-harakati uchun ota-onasining salbiy reaksiyasini tasavvur qilgan bola bunday harakatdan saqlanadi. Ushbu harakatlar tasavvur obrazlari orqali nazorat qilinadi va irodaviy harakatlar asosida yotadi. Shunday qilib, o‘z-o‘zini nazorat qilish funksiyasi shakllana boshlaydi.

Irodaning yuqori darajasi bu boshqalar oldida javobgarlik mas’uliyatini his etishdir. O‘z harakatlarining o‘zi va boshqalar uchun ahamiyatini tushunish kishining tafakkuri rivojlanishi uning diqqati, idroki, xotirasi va tasavvuri darajasiga bog‘liq. Shuning uchun shaxsning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning xarakterida irodaviy sifatlar shunchalik kuchli namoyon bo‘ladi.

Vokal ijrochiligi faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun turli ovoz mashqlarini bajarish muhimdir. Agar o‘z xonandalik mahoratini mustahkamlash uchun turli vokal mashqlar ijro etishni odat tusiga kiritmasa, kasbiy faoliyatda yuqori samaradorlikka erishishi mushkul, albatta.

Agar inson o‘z harakatlarini kuchli affekt yoki o‘zini yo‘qotib qo‘yganda, qo‘rquv va taajjublanish paytida boshqara olmasa, bu harakatlar ixtiyorsiz harakatlar deb ataladi. Masalan, ommaviy ijro paytida kuchli hayajonlanish natijasida xatoga yo‘l qo‘yish mumkin. Irodaviy hatti-harakatlar orqali o‘z faoliyatini ma’lum maqsadga yo‘naltirganda kishi tashqi va ichki omillarni engib o‘tadi. Ijodiy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar ba’zan kasalliklarni, moddiy qiyinchiliklarni, charchoqni, hamkasblari tomonidai tushunmovchilik va ijtimoiy fikrni ifodalovchi tanqidni boshdan kechirishlariga to‘g‘ri keladi. Irodaning muhim jihatlaridan biri o‘z harakatlarining erkinligini anglash va qabul qilinadigan qarorlar oldida yuksak mas’uliyatni his etishdir.

Vokal ijro jarayonining psixologik xususiyatlari shundan iboratki, kontsertda yoki imtihonda muvaffaqiyatli ijro etish uchun xonanda qulay ijro tayyorgarligi holatida bo‘lishi zarur. Qulay ijro holati psixologik parametrlari jihatidan sportchilardagi jangovar

holatga muvofiq keladi. Shu bois, ushbu holatni xuddi sportdagi singari 3 ta muhim o‘lcham - jismoniy, hissiy va aqliy jihatdan o‘rganish o‘rinlidir.

O‘zini jismoniy jihatdan yaxshi his qilganda, sog‘lom organizmda gavda kuchli, engil va bo‘ysunuvchan bo‘ladi. Xonanda jismoniy jihatdan yetuk bo‘lishi uchun yugurish, voleybol va suzish singari sport turlari bilan mashg‘ul bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Ma‘lumki, ko‘pgina taniqli ijrochilar sahnaga hatto salomatliklari talab darajasida bo‘lmagan paytda ham chiqqanlar. Zamondoshlariga ko‘ra, M.Uzoqov, K.Otaniyozov, B.Zokirov, S.Raxmaninov, E.Gilelys, A.Karoyan shular jumlasidandir. Ushbu xonanda va sozandalar sahnaga chiqqanda, jismoniy jihatdan o‘zlarini nisbatan yaxshi his qila boshlaganlar. Kontsert paytidagi stress organizmning himoya kuchlarini faollashtirgan va kasallik chekingan. Tayyorgarlikka ega va o‘zini yaxshi his qilgan paytda musiqachining ijrochilik apparatida, ya‘ni qo‘llari, barmoqlarida o‘ziga xos sezgilar namoyon bo‘ladi va klaviatura, kamoncha, grif yoki mundshtukni o‘ziga xos tarzda his qiladi.

Vokal asari ijro etish uchun tayyor bo‘lgach, tasavvur etilgan auditoriya yoki imtihon komissiyasi oldida ijro etish uchun maxsus mashqlar orqali tayyorlanish foydadan xoli bo‘lmaydi. Bunda musiqa elektron manbada yozilgan, tayyor bo‘lishi lozim, shundan so‘ng tinglovchilar o‘rnida qator bo‘sh stullarga nigoh qaratiladi. Ijro paytida barcha kutilmagan vaziyatlarga tayyor bo‘lish lozim. Ushbu usul sahnadagi hayajonning vokal ijro sifatiga ta‘sirini tekshirish, oldindan bo‘sh joylarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu usul orqali qaytadan ijro etish oldin aniqlangan hayajonlanish darajasini kamaytiradi.

*Meditatsiya*¹⁹ holatiga kirish. Bu usul “shu yerda va hozir” tamoyiliga asoslangan bo‘lib geshtalytterapiyada²⁰ keng qo‘llaniladi.


¹⁹ Meditatsiya - (lot. *meditatio* - fikrlash) - ma‘naviy-diniy yoki sog‘lomlashtirish maqsadida qo‘llanadigan psixik mashqlar yoki ushbu mashqlar yordamida erishiladigan alohida psixik holat.

²⁰ Geshtaltterapiya (nem. *gestalt* - yaxlit obraz) - psixoterapiyadagi gumanistik yo‘nalish.

Bu usul kuylashni chuqur anglash va sezishga asoslangan. Hozirgi lahzada diqqat bir nuqtaga, ya'ni ijroga qaratiladi.

Diqqatni eshitish sezgilariga qaratganda bir tovushdan boshqa tovushga o'tishning barcha usullari, tovushlarni bir-biri bilan qo'shganda intonatsiya qilinadigan mazmun ilg'ab olinadi. Tovushlarning go'yoki ta'mi, yumshoq yoki qattiqligi sinaladi, xuddi gullar singari hidlab ko'riladi, turli ranglarga bo'yalgandek idrok etiladi. Tovush olamiga singib ketish quyidagi mashqlar orqali amalga oshiriladi (6-rasmga qaralsin).

Diqqatni harakat sezgilariga qaratganda barmoqlarning klavish yoki torlarga tekkizilish xarakteri anglanadi, harakat erkinligi yoki mushaklarda keraksiz qisqarishlar yuz berishi aniqlanadi va ular tuzatiladi.



6-rasm.

Amerikalik psixolog E.Shextel olamni idrok etishga nisbatan ikkita yondashuvni aniqladi. Ulardan biri sub'yektiv - markazlashtirilgan idrok bo'lib, bunda inson ob'yektni o'z-o'zicha emas, balki o'z qiziqishlari nuqtai nazaridan idrok etadi. Meditatsiya holatida asarni ijro etish dastlab sekin sur'atda boshlanadi va shunday ustanovka beriladiki, ijro paytida hech qanaqa tashqi fikr unga xalaqit bermasin.

Agar ongda tashqi fikr paydo bo'lsa, fikrni bo'lmasdan yana ohista ijro jarayoniga tomon diqqatni yo'naltirish lozim. Meditativ ijro sensor sintezni (hissiy tahlil) shakllantiradi va ular to'g'ri shakllantirilgan malakaning asosiy belgilari hisoblanadi. Eshitish, harakat va mushak sezgilari, fikrlab tasavvur qilish alohida-alohida emas, balki yaxlit izchillikda amalga oshadi.

Qulay ijro holatiga xalaqit beruvchi 2 ta salbiy holat mavjud, bular sahna hayajoni va apatiya (befarqlik, loqaydlik)dir.

Birinchi vaziyatda o'sib boruvchi hayajon kuchayib boruvchi tormozlanish jarayoni orqali muvozanatlashadi. Bu ko'pincha yoshlarda asab tuzilmasining qo'zg'alishi tormozlanish kuchidan ortiqroq bo'lganda yuz beradi. Hayajonlanish kuchi taranglik, titroqli harakatlarda, qo'l va oyoq titrashlarida, tez sur'atda gapirish, ayrim so'z va bo'g'inlarni yutib qolishda, shuningdek, alohida mimika va jestikulyatsiyada (qo'llar harakati) namoyon bo'ladi.

Muntazam va tez-tez omma oldida chiqib turganda organizm murakkab psixologik vaziyatlarga moslashadi, kishi o'z hayajonini boshqarishga o'rganadi. Agar ommaviy ijrolar orasi uzoq muddatli bo'lib, 2-3 oyni tashkil etsa adaptatsiya hosil bo'lmaydi. Ommaviy chiqish oldidan xonanda o'ziga quyidagi savollarni berishi maqsadga muvofiq.

➤ Siz muvaffaqiyatli ijrongiz oldidan nimalarni his qildingiz, o'yladingiz va amalga oshirdingiz?

➤ Izchil suratda o'zingizda qulay ijro vaziyatini yarata olasizmi? Qaysi usullar orqali bunga erishasiz?

➤ Qulay ijro vaziyatiga erishishda sizga kimlar yordam beradi?

➤ Sahnada hayajonsiz chiqish qila olasizmi?

➤ Ijro boshlanishidan qancha vaqt oldin siz qulay ijro vaziyatiga kirayotganingizni sezasiz?

➤ Sizda qulay ijro vaziyati barqarormi? Bu nimaga bog'liq?

➤ Agar siz qulay ijro vaziyatini his eta olmayotgan bo'lsangiz, ushbu holat qanday bo'lishi mumkinligini tasavvur qiling.

Bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, kuchli musiqiy ijrochilik iqtidoriga ega bo'lgan talabalarda qulay ijro vaziyati ko'proq kuzatiladi. Bu ko'rsatkichlar quyidagi qobiliyatlar orqali namoyon bo'ladi (2-jadvalga qaralsin).

Qobiliyatlar	Namoyon etilish shakli
Musiqiy – perseptiv	Musiqi asarini kechinmalar orqali emotsional idrok eta olish
Ekspressiv – kommunikativ	Ommaviy ijro sharoitida asar mazmunini to‘laqonli yetkaza olish
Emotsional – regulyativ	O‘z emoysiyalarini maqbul boshqara olish

Ommaviy ijro boshqalar tomonidan ijrochining o‘ziga bergan bahosini pasaytirish yoki ko‘tarish xususiyati bilan bog‘liq. Bu psixik taranglikni yuzaga keltirib diqqat, xotira, idrok, tafakkur, harakat reaksiyalari kabi muhim psixik jarayonlarning mustahkamligni pasaytiradi. Ruhiy taranglik sharoitida inson har doim ham o‘zini irodaviy kuchlarini nazorat qila olmaydi. Biroq, ijrochilik iqtidoriga ega xonandalarda sahna hayajoni ko‘tarinki ruh baxsh etib, ijroga yordam beradi.

Talaffuz vokal asarning badiiy mohiyatini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Agarda so‘zlar badiiy fikrni ochib bersa, musiqa ularni atroflicha emotsional jilo bilan to‘ldiradi. Xonandalik san’atida so‘z va musiqa bir-birini to‘ldirib, badiiy obraz yaratadi. Aniq talaffuz texnikasiga ega bo‘lish yakkaxon, guruhiy vokal ijrochiligining zarur talablaridandir.

Qo‘shiq yoki ashulaning matnini to‘g‘ri, aniq talaffuz qilish uchun so‘zlardagi mantiqiy urg‘ularga, so‘zning jonli tildagi talaffuz qoidalariga e‘tibor berish lozim. Avvalo qo‘shiq matni mazmuni, undagi badiiy obrazlarni xonandaga tushuntirish va ifodali o‘qib berish maqsadga muvofiq. So‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish matn ustida ko‘p vaqt sarflamasdan, balki uni qo‘shiq aytish bilan birga ko‘rsatib berish imkonini yaratadi. Aniq so‘z talaffuziga erishish esa artikulyatsiya apparati - til, tanglay, lablar, tishlar, jag‘lar faoliyatiga bog‘liq. Ayniqsa, unli tovushlarni hosil qilishda og‘iz bo‘shlig‘i va lablar muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi talaffuz ustida ish olib borganda, so‘zlarning aniq aytilishiga e‘tibor berishi lozim. So‘zning aniq va to‘g‘ri talaffuzi xonanda ovozigacha ijobiy ta’sir etadi.

Ovoz tarbiyasining asosiy mezonlaridan biri xonandalarni to‘g‘ri nafas olishga, uni ushlab va tejamli sarflashga o‘rgatish hisoblanadi. Nafas olishni o‘rganish yakka xonandalik darslarida yaxshi natija beradi. Qo‘llarni biqinga qo‘ygan holda nafas olish kerak. Nafas olishni kuzatish uchun qo‘llarni qovurg‘alar bo‘ylab pastga, yon tomonga yurita berish va bunda qorin bo‘shlig‘ining oldinroqqa chiqishini, qovurg‘alarning yon tomonga kengayishini kuzatish mumkin.

Nafasni qo‘l ishorasi bilan olib, bir tekis, shoshilmasdan chiqarishni o‘rganish talab etiladi. Nafas asarning tempiga, jumalarning katta-kichikligiga qarab bir maromda tez, engil, tekis, chuqur olinishi maqsadga muvofiq. Nafas olishda gavda, bo‘yinning to‘g‘ri erkin holatda bo‘lishiga, kiflarning ko‘tarilmasligiga va nafasning diafragma olinishiga erishish zarur. Nafas tejam bilan sarflanishi kerak. Qo‘shiq aytganda haddan tashqari ko‘p nafas olish mumkin emas.

Ushbu qoidalar xonandaning kasbiy shakllanishida, ijro jarayonida uning emotsional-psixologik holati barqaror bo‘lishiga erishish uchun muhimdir.

Zanjir usuli ayrim polifonik xor asarlarida yoki cho‘zib turiladigan tonika va dominantada uzoq muddat nafas olish mumkin bo‘lgan paytlarda qo‘llaniladi. Katta asarlar ijro etishda kuy cho‘zilib qolmasligi uchun xonandalar birdaniga bir vaqtda emas, balki navbatma-navbat nafas oladilar. Ya‘ni, bir xonanda nafas olganda, yonidagi ikkinchi xonanda ijroni davom ettiradi. Bu xonanda nafasni rostlagach, u boshqalardan ajralmagan holda ijro partiyasiga qo‘shiladi, natijada kuy uzluksiz taralaveradi. Bu usul zanjir yoki ulama nafas olish bo‘lib, mazkur ijro holatiga ijrochini psixologik tayyorlash muhimdir.

Xonandalarni qo‘shiq aytishga tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlar ovoz sozlash tarbiyasi turkumiga kiradi. Ma‘lumki, har bir mashg‘ulot xonandalarning ovozlari qo‘shiq kuylashga tayyorlash va eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi mashqlar ijro etishdan boshlanadi. Bu mashqlar ovozni to‘g‘ri hosil qilishga, to‘g‘ri nafas olishga, yaxshi ansambly

va jarangdorlikka erishishga qaratiladi, natijada xonandalarning ovoz imkoniyatlari mustahkamlanadi.

Har bir o'quvchi va o'qituvchi vokal pedagogikasi tamoyillari, uslubiy ko'rsatmalarini bilishi hamda yodda tutishi zarur. Ovoz ustida ishlash jarayonida ovoz elementlari harakatda bo'lishi talab qilinadi. Ya'ni nafas, hiqildoq, nutq a'zolari va ovoz rezonatorlari bir-biriga uyg'un va bir-biriga o'zaro bog'liq, ta'sir ko'rsatgan holda harakatlanadi. To'g'ri uyg'unlashish natijasida murakkab ovoz apparati tizimi ishlay boshlaydi.

Ovoz apparati faoliyatini markaziy asab tizimi boshqaradi. Shu tufayli har bir tovush xonanda musiqiy qobiliyatining natijasi deb baholanishi zarur. Shu boisdan bo'lajak ijrochining ruhiy holati, ichki, ma'naviy olami katta ahamiyatga ega. Yosh xonandalarning musiqiy, vokal eshitish qobiliyatlarini to'g'ri rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Vokal eshitish qobiliyati ovozning o'ziga xos tembr sifatlarini idrok qilishga va uning fiziologik shakllanishini tushunib etishga yordam beradi.

Professional xonandaning tovushi oddiy so'z tovushidan sezilarli darajada farq qiladi, chunki uning akustik spektrida ovoz formantalari bor. Yuqori ovoz formantalari 2500-3000 gts atrofida, past ovoz formantalari esa 500-600 gts atrofida namoyon bo'ladi. Tovush to'g'ri hosil bo'layotganligini eshitish va tushunish, ayrim muskullarni haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik, qabul qilingan umumiy estetik talablar doirasidan chiqmaslik muhimdir.

Vokal ovozni to'g'ri yo'naltirish, unli va undosh tovushlarni to'g'ri ifodalash va tahlil qilishda vokal san'ati ustalarini doimiy tinglash katta yordam beradi. Ovozni to'g'ri ishlata bilishni tarbiyalash o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. O'qituvchi o'z shogirdlarining ovozini rivojlantirish yo'lida turli usullardan foydalanadi. Bunda talabga javob bera oladigan mashqlar, vokalizlar hamda tavsiya etilgan musiqa asarlari qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchiga ijrochilik yo'llarini o'z ovozida namoyish etadi, ko'rsatmalar beradi. Unli va undosh tovushlarning o'zidan keyin keladigan tovushlarga ta'sirini tushuntiradi, fonetik usullarni ishlatadi.

Ariya, romans yoki qo‘shiqqlar ijrosida talabanning ovoz unsurlari to‘liq ishtirok etadi va badiiy ifoda vositalarini aniq ko‘rsatib beradi. Bunda xonandaning e‘tibori musiqiy obraz taassurotiga qaratilgan bo‘ladi va u ovoz apparati faoliyatiga deyarli ahamiyat bermaydi. Xonandani tarbiyalashda ham mashg‘ulotlarning boshlang‘ich davri hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘quvchi dastlabki qadamidanoq o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri fahmlashi juda muhim. Ovoz diapazonining o‘rta qismida yoqimli, xush ovoz bilan kuylay olish, murakkab bo‘lmagan asarlarni ifodali ijro eta bilish shular jumlasidandir.

Tajribali pedagog yangi talaba (o‘quvchi) bilan dars boshlashdan avval, uning vokal va musiqiy qobiliyati imkoniyatlarini, ovozi qaysi tipga mansubligini, musiqiy xotirasi va ritm hissini o‘rganmog‘i zarur. O‘quvchining asab tizimi holati va psixologiyasidan xabardor bo‘lishi lozim. Mashg‘ulotlarning dastlabki davrini “tanishish davri” deb bejizga aytishmaydi. Aynan shu davrda o‘qituvchi va o‘quvchi orasida ijodiy psixologik munosabat vaziyati yuzaga keladi. Bunda darhol o‘quvchining ovozida kuzatilgan ayrim nuqsonlarni tezkorlik bilan tuzatishga kirishish tavsiya etilmaydi. Chunki, bu o‘quvchining ijodiy imkoniyatlarini cheklab qo‘yishi mumkin. T

Mashg‘ulotlarning boshlang‘ich davrida talaba ovoziga ortiqcha og‘irlik yuklamaslik tavsiya etiladi. Aks holda bu faoliyatdan nafaqat ovoz apparati, hatto asab tizimi ham toliqib qolishi mumkin. Agar talabanning ovozi dars nihoyasida yomonroq yangray boshlasa, mashqlar haddan tashqari ortiq bo‘lganidan dalolat beradi. Bunday hollarda mashg‘ulotlar miqdorini qisqartirish talab etiladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqa ijrochiligining pedagogik jihatlari.
2. Rivojlantiruvchi mashqlar qanday tashkil etiladi?
3. Musiqachining pedagogik vazifalarini sanab bering.
4. Cholg‘u ijrochiligida ideomotor harakatlar qay tarzda amalga oshiriladi?
5. Rivojlantiruvchi mashqlarning vazifasini tushuntiring.
6. Vokal ijroda nafas olishning nechta tipi qo‘llaniladi?

MUSIQA PSIXOLOGIYASINING UMUMIY ASOSLARI.

Reja:

1. Musiqa psixologiyasining paydo bo'lishi tarixidan.
2. Musiqa psixologiyasi mustaqil fan sifatida.
3. Musiqa psixologiyasining tarmoqlari.

Tayanch tushunchalar: Musiqa psixologiyasi, hissiyot, kechinma, mimika, emotsiyalar, musiqiy idrok, musiqiy tasavvur, musiqiy mazmun, musiqiy tafakkur, katarsis, individual-psixologik xususiyatlar.

Inson tomonidan anglanadigan yoki anglanmaydigan jarayonlar, holatlar va hodisalarning sub'yektiv olami psixologiyaning ob'yekti bo'lib hisoblanadi. Musiqa psixologiyasi fani dastlab eshitish organlariga oddiy tonlarning ta'sirini o'rganish doirasida paydo bo'lib, "tonpsixologiya", ya'ni xususiy tonlarga ega bo'lmagan tovushlar haqidagi fan sifatida rivojlandi.

1946 yili Bernda G.Reveshning "Musiqa psixologiyasiga kirish" nomli kitobi bosilib chiqqan. Mazkur kitobda muallif musiqa psixologiyasini mustaqil, xususiy ahamiyatga ega bo'lmagan hodisa sifatida baholab, umumiy psixologiyaning bir qismi sifatida talkin etgan edi.

1963 yilda A.Vellekning "Musiqa psixologiyasi va estetikasi" kitobi nashr ettirildi. Unda Vellek Kurt g'oyalarini rivojlantirib, "Parsinomiya qonuni"ni ilgari surgan edi. Bu qonunga asosan idrok - faol bilish jarayoni sifatida, "ilgarilovchi aks ettirish" tamoyili asosida ishlaydi. Tinglovchi musiqiy fikr davomining farazini yaratadi; ma'lum daqiqada yangrayotgan musiqiy ohang - uning yaxlit bo'lagi, asarning ma'lum qismi bo'lib, yaxlitlikni hosil qilish tamoyillaridan kelib chiqiladi. Idrok jarayonida yaxlitdan qismlarga va qismlardan yaxlitga tomon doimiy harakat amalga oshiriladi.

Vellek va geshtalytpsixologiyaning (yaxlitlik psixologiyasi) boshqa vakillari ushbu fanni yaxlitlik, obrazlilik, tashkillashtirilganlik, konstantlik (o'zgarmaslik) haqidagi tasavvurlar bilan boyitdilar.

Rus psixologlari B.M.Teplov, E.V.Nazaykinskiy, V.V.Medushevskiy, G.S.Tarasov, L.L.Bochkarev va boshqalar musiqa psixologiyasining turli muammolarini tadqiq etdilar. Amalga oshirilgan keng miqyosli ilmiy tadqiqotlar natijasida mazkur olimlar tomonidan musiqa psixologiyasi qo‘llanmalarining bir nechta variantlari yaratildi.

Bularga, A.L.Gotsdiner (Gotsdiner A.L. Музыкальная психология. - М.: Магистр, 1993), M.S.Starcheus (Starcheus M.S. Музыкальная психология. - М.: Изд-во Моск. гос. консерватории, 1993), L.L.Bochkarevning (Bochkarev L.L. Психология музыкальной деятельности. - М.: ИПРАН, 1997), V.I.Petrushinning (Petrushin V.I. Музыкальная психология. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1997) va R.G.Qodirovning (Qodirov R.G. Музыкальная психология. О‘quv qo‘llanma. - Т.: Музыка, 2005. - 80 б.) qo‘llanmalarini misol qilib keltirish mumkin.

Shuningdek, keyingi yillarda chiqqan ishlardan biri G.P.Ovsyankinaning “Музыкальная психология” (Ovsyankina G.P. Музыкальная психология. СПб.: Изд-во “Союз художников”, 2007) darsligidir. Mazkur “Музыкальная психология” darsligi pedagogika universitetlarining musiqa fakultetlari, shuningdek, konservatoriyaning kompozitorlik fakulteti talabalari, musiqa kolleji, litseyi va maktabi o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. Unda A.I.Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetida faoliyat ko‘rsatayotgan G.P.Ovsyankina tomonidan mazkur fanni o‘qitish borasida erishilgan ko‘p yillik amaliy tajribalar natijalari umumlashtirilgan.

Ushbu qo‘llanmalar musiqiy faoliyatlar psixologiyasini turli nuqtai nazarlar doirasida talqin qilishga imkon yaratdi va kitobxonlar keng doirasini bu boradagi bilimlar bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda.

Musiqa psixologiyasining eng ko‘p tadqiq etilgan sohasi musiqiy idrok psixologiyasi bo‘lib, bu muammoni o‘rganishga rus musiqashunos va nazariyotchilari B.V.Asafyev, B.L.Yavorskiy, Yu.N.Tyulin, L.A.Mazel, E.V.Nazaykinskiy, V.V.Medushevskiy, psixologlar B.M.Teplov, M.V.Blinova va S.N.Belyayeva-Ekzempliyarskayalar ulkan hissa qo‘shdilar.

Musiqiy faoliyatlar psixologiyasi bo'yicha amalga oshirilgan psixologik va pedagogik aspektdagi tadqiqotlardan Yu.B.Aliyev, V.K.Beloborodova, N.A.Vetlugina, A.L.Gotsdiner, L.M.Kadsin, A.N.Soxor, K.V.Tarasova, V.I.Petrushin va boshqalarning ishlarini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu mualliflarning ishlarida musiqa psixologiyasining fan sifatida shakllanishi, uning amaliy va funktsional jihatlari, musiqa ta'limini rivojlantirishda tutgan o'rni va boshqa nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil etilgan.

Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasini izchil tadqiq etgan psixolog B.M.Teplov fikricha, musiqa asarini asosiy mazmuni sezgilar, emotsiyalar va kayfiyatlarda namoyon etiladi. Nemis musiqashunosi E.Ganslik ta'biricha, musiqa bu faqatgina tovushlar o'yinidir va u o'zida hech qanday mazmuni aks ettirmaydi. Musiqiy mazmun sifatida Ganslik musiqiy shakllarni tasavvur qildi.

Taniqli musiqachi va nozik didli psixolog B.M.Teplov E.Ganslik bilan bahsga kirishib, musiqiy kechinmalar hosil bo'lishidagi o'ziga xos xususiyat ma'lum mazmuni aks ettiruvchi tovushlar ifodasini anglashdir, - degan edi. Musiqiy mazmuni aniq so'zlar bilan ifodalashning iloji yo'q, deganda E.Ganslik haq edi. Biroq, B.M.Teplovning haqiqiy musiqiy asardagi emotsional mazmun aniq, "noaniq"ligi uning so'zlar bilan ifodalanishidadir, degan so'zlarida esa jon bor.

B.M.Teplovning ilmiy xulosalariga ko'ra musiqaning chuqur mazmundorligini faqatgina musiqiy bilish emas, balki uning sarhadlaridan chiqib ketuvchi umumiy bilish vositalari nuqtai nazaridan to'liq anglash mumkin.

Musiqiy obrazlar olami o'z-o'zidan oydin va ravshan bo'lib qolmaydi. Musiqa asarini tushunish, uni to'g'ri idrok qilish va ijro etish uchun ijrochi ushbu musiqani yaratgan bastakor yashagan davr, uning hayotga nisbatan qarashlari, insonlarga, tabiatga, san'atga bo'lgan munosabati bilan qiziqishi, bu borada ma'lum bilimlarga ega bo'lishi lozim. Albatta, musiqa yaratish jarayonida kompozitor yoki bastakor o'z davri muammolarini his etishga harakat qiladi, hayratlanadi, tashvishga tushadi yoki qayg'uradi. Agar inson ushbu kechinmalarning asl sabablari negizini anglab etsa, shunda musiqani chuqur his etadi va tushunadi.

Lekin idrok faqatgina tinglovchining musiqada ifodalangan kechinmalarga mulohaza bildirish jarayoni emas, balki faol bilish jarayonidir. Tinglovchi ham ma'lum tajribaga ega bo'lgan ijrochi singari idrok etayotgan asari mazmuniga o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda quvonchini, qayg'usini, tashvishini, umidlarini jo etadi. Shunda musiqiy idrok jarayoni ikki shaxs ichki dunyosining; ya'ni bir tomondan - tinglovchi, ikkinchi tomondan bastakorning badiiy muloqotiga aylanadi. Agar yuksak darajadagi ijroni tinglashga muvaffaq bo'linsa, bu uch yaqin maslakdosh - bastakor, ijrochi va tinglovchining badiiy-ijodiy muloqotini o'zida aks ettiradi.

Musiqqa asarini tinglash orqali egallaydigan tasavvur va taassurotlari ko'lami nimalarga bog'liqligiga oydinlik kiritish maqsadida, tinglovchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlari borasida bilimlarga ega bo'lish talab etiladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqqa psixologiyasi tushunchasi mohiyatini tushuntiring.
2. Musiqqa psixologiyasi mustaqil fan sifatida qaysi vazifalarni bajaradi?
3. Musiqqa psixologiyasining qaysi tarmoqlari mavjud?
4. Parsinomiya qonunini tushuntiring.
5. Musiqqa psixologiyasi sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlar nomlarini sanab bering.
6. Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasining predmeti va ob'yektini tushuntiring.

MUSIQACHINING SHAXSIY FAZILATLARI VA FAOLIYATI.

Reja:

1. Sozandaning ijrochilik faoliyati psixologiyasi.
2. Sozanda faoliyatida taktily va motor-harakat usullari.
3. Ideomotor aktlar psixologiyasi.
4. Yakka ijroning psixologik jihatlari.
5. Jamoaviy ijro xususiyatlari.
6. Orkestr tarkibida ijroning psixologik xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Yakka ijro, jamoaviy ijro, musiqiy tajriba, didaktik qobiliyatlar, umumiy pedagogik nazariyalar, sinxron ijro, diqqat, sezgilar, analizator, retseptor, organik sezgilar, o‘tkazuvchi asab yo‘llari, sozanda, taktily va motor-harakat usullari, ideomotor harakatlar, ekstravert, introvert.

Musiqa o‘quv mashg‘ulotlarida ko‘p hollarda musiqa asarini parchalar, taktlar, frazalar, jumlar doirasida ijro etib, o‘rgatishga to‘g‘ri keladi. Shu bois, cholg‘u yoki vokal ijrochiligining muhim, o‘ziga xos jihatlari borasida ma‘lum bilim va tasavvurlarga ega bo‘lish zarurdir.

Ko‘pgina klavishli va torli cholg‘u sozlarida tovush hosil qilish zarb, chertish, tortish va bosish orqali amalga oshiriladi. Ushbu usullardan qanchalik samarali foydalana olish ijrochining mahoratiga, unda shakllangan ko‘nikma va malakalarga bog‘liq. Ayniqsa, fortepiano va alohida sozlashni talab etmaydigan puflama cholg‘u sozlaridan farqli o‘laroq, torli va chertib chalinadigan cholg‘u sozlarini aniq sozlash har bir ijrochidan katta e‘tibor hamda mahoratni talab etadi.

Miyada tug‘ilgan fikr, g‘oya - motor (harakat) reaksiyasini qo‘zg‘atadi, shu bois bunday hodisalar ideomotor aktlar²¹ nomini olgan. Ideomotor obrazlarni qo‘llaganda ijro harakatlari rejasini dastlab ongda shakllantirib, so‘ngra uni amalda bajarishga o‘tish lozim. Agar harakatlar natijasiz kechsa, ongda tasavvur mazmunini tekshirish va korrektsiyalash; tasavvur obrazlarini harakat apparatidan o‘tkazish, bunda zarur sezgilarni hosil qilish zarur.

Harakatni aniq bajarishga uni tovush chiqarib aytish ham yordam beradi. Masalan, “bu akkordlarni kuchli, yorqin ijro etish zarur”, “mi notasini kichkina barmoq bilan bosish lozim”, “oktavalarni qo‘lni bo‘sh qo‘ygan holda ijro etish kerak”, “Ikkinchi oktava soly notasini kuylaganda tovushni erkin, xuddi gapirgandek yo‘naltirish lozim”, “Cho‘zib ijro etiladigan taktlarni ijro etganda

²¹ Ideomotor aktlar (*yun.* ideya - g‘oya, motor – harakatga keltiruvchi va akt – harakat, faoliyat): miyada tug‘ilgan fikrning harakatga aylanishi: psixoterapiyadagi gumanistik yo‘nalish.

soz tovushini mazmun dramaturgiyasiga monand holda chiqarish maqsadga muvofiq” va h.k.

Ideomotor harakatlar orqali ijro etishni o‘rganuvchi musiqachilar o‘z ijrolarini “chetdan kuzatuvchi kishi” maqomida amalga oshirishga harakat qilganlari uchun ko‘p hollarda xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Bunda ular asarni aniq, ishonchli, xatolarsiz ijro etishga harakat qilmasdan, chetdan kuzatadilar. Mashq qilishning bu turiga yondashuv jarayonida harakatni qanday amalga oshirishni miya aks ettiradi. Lekin harakat dasturi bevosita ijro bosqichiga, ya’ni, bevosita harakatlarga aylanmaydi. Zarur harakat obrazini mushak harakati orqali o‘tkazib, kerakli sezgilarni hosil qilgachgina bu kamchiliklarni tuzatishi mumkin.

Aytish lozimki, professional san’atkorlar faoliyati uzoq yillar davomida har kuni bajariladigan jismoniy va ruhiy jihatdan murakkab bo‘lgan faoliyatdir. Yangi kirib kelayotgan yosh musiqachilar va doimiy raqobat natijasida bu mas’uliyat yanada oshib boradi. Shu bois, bugungi kunda faqatgina o‘z ustida tinimsiz ishlovchi, chidam, sabr-toqatli, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk mutaxassislar yutib chiqadi.

Kuchli musiqiy qobiliyat, ajoyib ustozlar, kasbiy yetuklikka erishish yo‘lida mustahkam iroda kuchiga ega bo‘lish mumkin, lekin musiqachida uning ish faoliyati jadvalini bir maromda ushlab turishga imkoniyat beruvchi salomatlik talab darajasida bo‘lmasa, istalgan natijaga erishish qiyin.

Kasbiy mahoratni takomillashtirish uchun qancha vaqt va qanday mashq qilish lozimligi to‘g‘risida tajribali musiqachilar doimo bahslashib kelganlar. Bunda ular o‘z faoliyatlari davomida qo‘llagan turli usullar, maslahatlar, qiziqarli voqealarni kuzatish mumkin. Har kungi mashg‘ulotlarning eng muhim qismi asarni ijro etishga tayyor bo‘lish uchun ma’lum mashqlarni bajarishdir. Bu mashqlar nafaqat ijro jarayonida qatnashuvchilarni, balki avvalo musiqachining yaxlit psixik apparatini faol ish jarayoniga tayyorlashni o‘z ichiga oladi.

Qator musiqachilar mashqlar bajarishda asosan gammalarni ijro etishni taklif etishgan. Ayrim ijrochilar gammalarni barcha tonalliklarda, kamida ikki marta ijro etishni maqsadga muvofiq deb

bilishadi. Bunda gammalarni oktavalarda ijro etish va turli kompozitorlarning yaratgan mashqlarini chalish taklif etilgan. Ertalabki mashqlarni diqqat talab etadigan ijroning texnik tomonlariga qaratish, tushdan keyingi mashqlarni ifodaviy jihatlarga qaratish foydalidir. Eng muhimi, diqqatni bir nuqtaga jamlay olishdir. Agar miya boshqa fikrlar bilan band bo'lsa, mazkur faoliyatga doir taassurotlarni to'liq qabul qilmaydi va bunday mashg'ulot vaqtni behuda sarflashga olib kelishi mumkin.

Yosh ijrochilar o'z mashg'ulotlarini rejalashtirganda kasbiy o'sishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning har kunlik, haftalik, oylik rejasini tuzishi, yaqin kunlarda amalga oshiriladigan maqsadlardan istiqboldagi maqsadlargacha barchasini aniq-ravshan tasavvur qilib, o'z oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'yib borishi zarur.

Inson qanchalik jismoniy jihatdan chiniqqan bo'lsa, u shunchalik turli jismoniy yuklamalarga chidamli bo'ladi. Jumladan, sog'lomlashtiruvchi yugurishning muhim natijalaridan biri, insonning nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan sog'lomlashishidir. Muntazam yugurib turuvchilarda o'z-o'zini baholash, o'ziga ishonch kuchayadi, ular muloqotga kirishuvchan bo'lib, yanada ekstravertlashadilar²². Oxirgi holat musiqachilar uchun ayniqsa muhim bo'lib, musiqa asarlarini omma oldida ijro etishga ko'maklashadi. Aqliy faoliyat vakillari, jumladan cholg'uchilar uchun og'irlik markazini o'zgartiruvchi mashqlar foydalidir. Jumladan, qo'llarii erga qo'yib, oyoqlarni yuqoriga ko'targan holda turish, yotgan holatda oyoqlarni boshdan nariga tomon uzatish, turli egilishlar shular jumlasidandir. Bu mashqlar miyada qon aylanishini yaxshilaydi, uning tomirlarini mustahkamlab, diqqat va xotiraga ijobiy ta'sir etadi.

Profilaktika maqsadida ritmik nafas olish mashqlarini bajarish mumkin; bunda 4 chorak sanoqda nafas olish, 4 chorak nafasni saqlab turish, 4 chorak davomida nafas chiqarish va yana 4 chorak davomida tutib turish tavsiya etiladi. Bunday nafas olish usuli ruhiy-asab toliqishlari oldini oladi.

²² Ekstroversiya – intilishlari tashqi olamga yo'naltirilgan shaxs.

Charchoqda, ruhiy asab toliqishlari, stressni yo‘qotishda umumiy nuqtalarni massaj qilish, autogen mashqlar va meditatsiya muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini massaj qilish yuzdan boshlanadi. Kaftning ichki tomoni bilan xuddi yuvingandagi singari peshona, yuz, chakka, so‘ngra ko‘krak, qo‘llarni barmoqlardai boshlab elkagacha massaj qilinadi. Aylanma harakatlar bilan soat strelkasi yo‘nalishida ko‘krak, qorin, elka va buyrak sohalari massaj qilinadi. Oyoqlar panjalaridan yuqoriga qarab massaj qilinadi.

Tovush balandligini eshitish qobiliyati orqali musiqiy tovushlarni mutlaq aniqlash imkoniyati yaratilsa va cholg‘uchilar (klavishli cholg‘ulardan tashqari)da kerakli notalarga tushish ta‘minlansa, tovush harakatini eshitish qobiliyati kuyni yaxlit idrok etishni ta‘minlaydi. Aynan tovush tusi va harakatini eshitish qobiliyati orqali bu ma‘lum kuyning satoda, g‘ijjakda yoki nayda ijro etilganligini aniqlab olamiz. Tovush harakatini eshitish qobiliyati bilan musiqada kayfiyat va badiiy obrazni ifodalash bir-biriga bog‘liqdir. Mazmuni intonatsiya qilish, ifodalash san‘atidir. Ushbu intonatsiya mazmuni tovush balandligini eshitishda mujassamlashgan va u orqali biz kuyni tanib olamiz hamda ijro etamiz.

Eshitish qobiliyati interval va ladni his qilishga bo‘linadi. Intervalni his qilish qo‘shni tovushlar orasidagi interval munosabatini, ladni his qilish kuy tovushlarining laddagi barqaror tovushlarga munosabatini aks ettiradi. Ladni his qilish, tovush harakatini eshitish qobiliyatining asosini tashkil etib, intervalni eshitish ladni his qilishga nisbatan hosila xususiyat bo‘lib hisoblanadi, chunki har bir interval lad ichida o‘zining aniq o‘rniga ega.

Ladni eshitish tamoyillari asosida venger kompozitori va pedagogi Z.Kodayning musiqiy eshitishni rivojlantirish tuzilmasi yaratilgan va “nisbiy (relyativ) lad solmizatsiyasi tuzilmasi” nomini olgan. Unga ko‘ra lad ichida har bir tovush o‘z xarakteriga ega va u tonika bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Ushbu tuzilma bo‘yicha kuy bosqichlaridagi ladni anglash orqali musiqiy eshitishni tarbiyalash asos qilib olingan. Musiqiy tovushning lad tuzilmasi musiqiy mohiyatni tashkil etadi. Uni chuqur o‘zlashtirish uchun

tuzilmada qo‘l ishoralari va har etti bosqichning bo‘g‘inli nomlari qo‘llaniladi. Binobarin, eshitish qobiliyati tovush balandligini va uning laddagi funksiyasini yaxlitlikda anglash imkoniyatini yaratadi.

Garmonik va polifonik eshitishni tarbiyalash kuydagi ikki va undan ortiq ovozlarning birgalikdagi harakatini eshita olish bilan bog‘liqdir. Rivojlangan polifonik eshitish qobiliyatiga ega bo‘lgan orkestr cholg‘uchisi o‘z ijrosi davomida boshqa cholg‘ular ijrosini, pianinochi esa asosiy kuydan tashqari barcha tovushlar harakatini (bas, yordamchi tovushlar, polifonik asarda esa nafaqat yuqori, balki barcha tovushlarni) tahliliy eshitish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Garmonik eshitish ohangdoshlik (garmoniya) ga yo‘naltirilgan musiqiy eshitishdir. Agar polifonik eshitish va uning rivojlanishi musiqa tovushlarini gorizontal bo‘yicha eshita olishga qaratilgan bo‘lsa, garmonik eshitish tovushlarni vertikal bo‘yicha tinglash sifatiga javob beradi. Cholg‘u sozlari xususiyatlariga ko‘ra garmonik eshitish torli cholg‘u, puflab chaluvchi sozandalardan ko‘ra chertib chaluvchilarda yaxshiroq rivojlanadi. Shunga qaramasdan, eshitishning bu turi barcha musiqachilar uchun ahamiyatlidir, zero musiqiy tafakkur qonunlari ko‘p hollarda garmonik izchillik qonunlari orqali namoyon bo‘ladi. Garmonik eshitish ladni eshitish asosida, sezgi xususiyatlari orqali tonika, dominanta va subdominant ohangdoshliklari - uchtovushliklar, septakkordlar va ularning aylanmalarini tinglash asosida paydo bo‘ladi.

Garmonik eshitishni rivojlantirishning quyidagi metodlari zamonaviy musiqa pedagogikasi amaliyotida qo‘llanilmoqda:

- ❖ musiqa asarini garmonik tahlil qilish va sekin sur‘atda ijro etib tovushlar tuzilmasini eshitish;
- ❖ turli akkordlarni melodik shaklda ketma-ket ijro etish;
- ❖ asarning garmonik asosini saqlagan holda kuy tuzilishini rivojlantirish (variatsiya);
- ❖ turli kuylarga garmonik jo‘rnavozlik tanlash;
- ❖ murakkab bo‘lmagan ommaviy kuylarni boshqa tonalliklarga transpozitsiya qilish.

K.Shtumpf²³ tomonidan ishlab chiqilgan tovush balandligining ikki tarkibga egaligi to'g'risidagi nazariyada aytilishicha, oddiy tovushlar to'liqini chastotasi o'zgarishi bilan tovushning ikkita sifati - balandligi va tembri o'zgaradi.

Akustika nazariyasiga ko'ra, cholg'u sozining tembri faqatgina turli registrlarda o'zgaradi. Biroq, tembr tovush hosil qilish kuchiga qarab ham o'zgarishi ma'lum. Tovush dinamikasi to'g'ridan-to'g'ri uning tembri bilan bog'liqdir. Ijroda yoqimli tovush hosil qilishga erishish aynan cholg'u sozining tembr imkoniyatlarini chuqur bilishga asoslanadi. Tembr-dinamik eshitish qobiliyatini rivojlantirishda sinesteziya²⁴ qonuniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida tahlil etgan barcha tovush balandligi, kuy harakati, polifonik, garmonik, tembr-dinamik eshitish qobiliyatlari musiqachi o'zida ichki eshitish va u bilan bog'liq bo'lgan musiqiy eshitish tasavvurlarini rivojlantirgan taqdirdagina yuksalishi mumkin.

Ayrim pianinotchilar yangi asarni diqqat bilan qarab chiqib, kontsertda ijro etishni, boshqalari royalsiz mashq qilishni xush ko'rishi ma'lum. Buning uchun o'rindiqa qulay o'rtnashib, o'z diqqatini musiqiy eshitish tasavvurlari obrazlariga yo'naltirgan holda asarni boshdan-oxirigacha sekin sur'atda, parchalar holida va yaxlit ichki eshitish orqali idrok etib ijro etishgan.

Karl Shtumpf oddiy va tarkibli tovushlarni idrok etish qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullandi. U tovush xossalarini, uning balandligini, zichligi va yorqinligini tadqiq etdi. Natijada K.Shtumpfnig ishlari psixologik jihatdan musiqiy idrok tabiatini chuqur o'rganishga shart-sharoitlar yaratdi. Musiqiy eshitish tasavvurlarini rivojlantirishda quyidagi musiqiy-psixologik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

– kuyni turli tonalliklarda ijro etish (transpozitsiya);

²³ K.Shtumpf oddiy va tarkibli tovushlar idroki qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullandi. U tovush xossalarini, balandligini, zichligi va yorqinligini tadqiq etdi.

²⁴ Sinesteziya - neyrologik fenomen bo'lib, bir sensor (hissiy) yoki kognitiv (bilishga oid) tuzilmadagi qo'zg'atuvchi faoliyati boshqa sensor tuzilmada erkin tarzda aks etishi hodisasi.

– kuyning ma’lum jumlasini cholg‘u asbobida va “ichki eshitish tasavvuri” orqali navbatma-navbat ijro etish.

Ijrodan oldin musiqa asarining aniq eshilitish obrazini yaratish musiqachining kasbiy mahorati yuqoriligini ko‘rsatadi va bu yo‘nalishda muntazam ish olib borish maqsadga muvofiq.

Buyuk g‘arb kompozitorlari F.List, V.Motsart, A.Toskanini, S.Raxmaninov, o‘zbek kompozitorlari M.Ashrafiy, S.Boboyev, M.Leviyev va boshqalar kuchli musiqiy xotiraga ega bo‘lganlar. Buyuk musiqachilar ko‘p kuch sarflamasdan amalga oshiradigan ijroni takrorlash uchun oddiy musiqachilar musiqiy qobiliyatlarga ega bo‘lsalarda, uzoq vaqt mashaqqat bilan mehnat qilishlariga to‘g‘ri keladi.

“Musiqiy xotira ijrochilik faoliyatida muhim rol o‘ynaydi va rivojlantirishning sun’iy usullariga qiyin bo‘ysunadi. Shu bois har bir sub’yektga tabiiy berilgan imkoniyatlar bilan qanoat qilishga undaydi”²⁵. Unga qarama-qarshi, musiqiy xotirani maxsus pedagogik ta’sir jarayonida rivojlantirish mumkin, degan fikrlar ham mavjud.

Yoddan ijro etish musiqachining ijroviy imkoniyatlarini kengaytiradi. R.Shumanning fikricha, - “Notadan ijro etilgan akkord, xotira orqali, yoddan ijro etilgan akkordning yarmisicha ham erkin jaranglamaydi”²⁶. Ma’lumki, musiqa asarini eslab qolishda harakat, hissiy, ko‘rish, eshitish va mantiqiy xotiradan foydalanampz. Har bir cholg‘uchi individual qobiliyatlariga tayangan holda o‘zi uchun qulay bo‘lgan xotira turidan foydalanadi.

Albatta, cholg‘uchida hech bo‘lmaganda uchta xotira turi zarur. Jumladan, eshitish xotirasi musiqa san’atining barcha sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish uchun; mantiqiy xotira kompozitor fikrini rivojlantirish qonuniyatlarini, asar mazmunini tushunish bilan bog‘liq xotira; harakat xotirasi ijrochi, cholg‘uchi uchun nihoyatda zarur bo‘lgan xotira turidir. Bugungi kundagi ijrochilik nazariyasiga ko‘ra eshitish va motor (harakat) xotirasi cholg‘u ijrochiligida zarur bo‘lgan xotira turlaridir.

²⁵ Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей. М., 1947. – С.61.

²⁶ Шуман Р. О музыке и музыкантах. Сборник статей в двух томах. Т.2. М., 1973. – С.254.

Eshitish va harakat xotirasi musiqiy xotiraning eng muhim komponentlaridir. Musiqiy xotiraning boshqa barcha turlari esa yordamchi xotira turlari bo'lib hisoblanadi. Eshitish xotirasi musiqiy xotirada yetakchi bo'lib hisoblanadi, shunga qaramasdan ijro etiladigan cholg'u musiqasini sof harakat xotirasi orqali eslab qolish keng tarqalgan.

Matnni eslab qolish harakatlari psixologiyada uch guruhga bo'linadi:

- ✓ mazmun jihatidan guruhlash;
- ✓ mazmun jihatidan tayanch nuqtalarni aniqlash va;
- ✓ qiyoslash jarayonlari.

Mazmun jihatidan guruhlash usulining mohiyati shundaki, bunda asar alohida guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlar esa mantiqiy tugal mazmunga ega bo'lgan bo'laklardir. Ijro jarayonida esdan chiqib qolsa xotira tayanch nuqtalarga murojaat qilish orqali uni aniqlab oladi. Biroq, tayanch nuqtalarni oldindan ijro jarayonida eslash, ijro erkinligiga xalaqit beradi.

Qiyoslash jarayoni. Bu usul asosida o'rganiladigan asarning tonal, garmonik asos, tovush yo'nalmasi, kuy va akkompanementidagi ayrim xarakterli xususiyatlarni bir-biri bilan qiyoslash uchun fikrlash operatsiyalarini qo'llash yotadi. Asarni tahlil etish uchun musiqiy nazariy bilimlar sayozligi sezilganda musiqa materialining oddiy elementlari - intervallar, akkordlar, sekventsialarga murojaat qilish lozim.

Musiqa asarining nota matnini chuqur tahlil etish uning tez o'rganilishi va eslab qolinishiga imkon yaratadi. Musiqa asarini yodlash, eslab qolishning bir necha turlari mavjud: Ko'p ovoqli cholg'u (yoki fortepiano) musiqasini yodlashda uni 4 yoki 8 takt hajmda, vertikal bo'yicha, ya'ni akkordni melodik va garmonik shaklda ekanligini nazarda tutib, harakat yo'nalishi va akkordni aniqlab, tez eslab qolish mumkin. Asarni cholg'u asbobida ijro etmasdan, uning nota matnini tahliliy o'rganish orqali yodlash, solfedjio qilish muhimdir.

Ijro etib yodlash, asarning umumiy shakli va badiiy obrazini to'liq tasavvur qilish uchun zarur sur'atda ijro etish. Bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yilsa ham hechqisi yo'q. So'ngra uning tonal

rejasini, qiyin joylarini aniqlab, shu qismlarni alohida o'rganish talab etiladi. Asarning badiiy mazmunini o'rganish va ifodalash ustida ishlaganda uning o'zi eslab qolinadi. Yodlash jarayonida erkin, ixtiyoriy eslab qolish usulidan foydalanish lozim. Bunda yodlash maxsus mnemonik usullardan²⁷ oqilona foydalanishga asoslanishi lozim.

Musiqqa asarini yodlashda asosan ikki xil metodikadan foydalaniladi:

Birinchisi, ixtiyoriy eslab qolish, bunda asar - shakl, faktura, garmonik tuzilma, tayanch nuqtalarni aniqlash orqali eslab qolinadi.

Ikkinchisi, eslab qolish ixtiyorsiz diqqatga asoslanadi va badiiy obrazni to'laqonli yoritishga qaratiladi. Bunday izlanish jarayonida asarni ixtiyorsiz eslab qolish mumkin.

Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, musiqqa materialini ko'p marta takroriy ijro etish oldingilarni tiklash emas, unga nimadir yangi jihatlarni qo'shish orqaligina samarali bo'lishi mumkin.

Musiqqa asarlarida emotsiyalarning ifodalanishi. Inson rivojlanishi jarayonida sezgilar hissiyot, emotsiyalardan keyin paydo bo'ladi. Agar emotsiyalar dastlabki ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lsa, sezgilar dunyoqarash, insonning o'z-o'ziga, boshqa insonlarga va yaxlit jamiyatga munosabati bilan bog'liqdir. Sezgilar insonning boshqa insonlar bilan muloqoti, ijtimoiy tajriba to'plashi jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Sezgilar insonni o'rab turgan boshqa insonlar, predmetlar, tabiat hodisalari ahamiyatini o'zida aks ettiradi. Bular ijobiy, salbiy yoki neytral bo'lishi mumkin. Ba'zan sezgilarda qarama-qarshilik yuzaga keladi, ya'ni, ijobiy sezgilar salbiy sezgilar bilan aralashib ketadi. Bu psixologiyada sezgilar ambivalentligi²⁸ deb aytiladi. Masalan, sevgi nafratga o'tganda kuzatiladigan rashk hissi yoki ona o'z sevgan bolasidan xafa bo'lishi, arazlashi shular jumlasidandir.

²⁷ Mnemonika – yunonchadan olingan bo'lib, yodda saqlab qolish san'ati: katta hajmdagi ma'lumotlarni xotirada saqlash texnikasiga aytiladi.

²⁸ Ambivalentlik (lot. *ambo* – sezgi va *valentia* – kuch) – nimagadir ikkilangan munosabatning paydo bo'lishi: bir ob'yekt shaxsda bir vaqtning o'zida ikki xil, bir-biriga qarama-qarshi hisslarni uyg'otishi.

Emotsiyalar inson hayotida muhim moslashtiruvchi funksiyani bajaradi, ya'ni, hayotning qiyin, murakkab damlarida ushbu vaziyatdan chiqib olish uchun organizmning zaxiradagi imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Buni biz inson g'amdan yig'laganda, qo'rquvdan qochganda yoki g'azab bilan raqibiga tashlanganda kuzatishimiz mumkin. Ijobiy va salbiy hissiy holatlar ijtimoiy malakalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tovush, mimika, harakatlar kabi emotsiyalarning namoyon bo'lishi hatto hayvonlarda ma'lum signal ahamiyatiga ega, insonda esa noverbal kommunikatsiya tili sifatida qo'llaniladi. Emotsiyalar yuqumlilik xarakteriga ega, bir inson nimanidir o'zida his etsa, bu tezda boshqa kishiga o'tadi.

Emotsiyalar paydo bo'lishi sabablari va dinamikasini tushuntiruvchi U.Jeyms, K.Lange, U.Kennon, P.Bard, S.Shexter va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar mavjud.

Kognitiv dissonansga doir shunday nazariyalardan biri amerikalik psixolog Leo Festingerga taalluqli. Bu nazariyaga ko'ra insonning kutishlari bilan faoliyati natijalari konsonansga ega bo'lsa, u ijobiy emotsiyalarni o'zida his qiladi. Bu nazariya kuzatishga asoslanadi. Unga ko'ra inson u yoki bu vaziyatni qanday idrok etishi yoki qanday baholashiga qarab u yoki bu emotsiyani his qiladi.

Muloqot jarayonida suhbatdoshining emotsiyalarga qarab uning istagi, motivatsiyasi, niyati, maqsadi, muddaosini anglash hamda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida o'zining va suhbatdoshining emotsiyalarini boshqara olish qobiliyati emotsiyalar koeffitsienti darajasini belgilaydi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchining mahorati natijasi uning emotsiyalar koeffitsientiga bog'liqligini ilmiy-psixologik izlanishlar natijalari ko'rsatmoqda.

Emotsiyalar koeffitsienti IQ dan farqli ravishda mavjud holatga to'g'ri baho berish va unga oqilona ta'sir ko'rsatish qobiliyati bo'lib hisoblanadi. Emotsiyalar koeffitsientining yuqoriligi muloqotda kishilar nimani istashi va nimaga ehtiyoj sezishini, kuchli va kuchsiz tomonlarini intuitiv tarzda bilish, stressga berilmaslik va muloyim muomalada bo'lishga imkon yaratadi²⁹.

²⁹ Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. — М.: АСТ, 2008.

Emotsional intellekt fenomeni borasida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan biri Ruven Bar-On bo'lib hisoblanadi. U EI kontsepsiyasining nazariyotchisi sifatida emotsional va ijtimoiylik tushunchasini fanga kiritdi. U EI ni diagnostika qilishning raqamli hisoblash variantini taklif etdi.

Ruven Bar-On emotsional intellektning kontseptual va psixometrik modelini yaratdi. 1982 yildan boshlab ushbu modelga bo'lgan qobiliyatni va insonning hatti-harakatlari hamda faoliyati samaradorligining turli aspektlarini o'rgana boshladi. Bu model orqali u inson mehnati samaradorligiga ijobiy ta'sir etadigan omillar psixologik baho miqyosini kengaytirishga ko'maklashishi va natijada "psixologik baxtiyorlik"ka olib kelishi mumkinligini ifodaladi.

Emotsiyalar insonning kayfiyati ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lar ekan, uning qanday ifodalanishi atrofdagilarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, shaxslararo muloqot jarayonida insonning hissiy holati muloqot maqsadini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Emotsional intellekt yoshlar hayotida muhim moslashtiruvchi funksiyani bajaradi, birinchidan, ulardagi shaxslararo munosabatlarni, o'quv mashg'ulotlarida interaktiv faoliyatni amalga oshirganda muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Ikkinchidan esa hayotning ma'lum darajadagi murakkab damlarida ushbu vaziyatdan chiqib ketish uchun organizmning zaxiradagi imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Buni xafagarchilik yoki qo'rquv, turli stresslar, ichdan ezilish, xavotirlanish kabi turli salbiy emotsional holatlarda kuzatish mumkin.

1. O'quvchini faol harakatga yetaklovchi motivatsiyani o'zgartirishda quyidagi mimika reaksiyasi mashqlari ijobiy natija berishi mumkin³⁰.

Mashqni hamma birdaniga, o'tirgan holda, bir-birining emotsional reaksiyasini ko'rmasdan va bir-biriga ta'sir etmagan

³⁰ Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. Для преподавателей и студентов вузов и колледжей. – Учебное пособие. - Оренбург: 2004. – С.211.

holda bajarishadi. Mashq vazifasi o'qituvchi tomonidan vaziyatni belgilab berish bilan boshlanadi.

1-vaziyat. Dars boshlandi. Eshik ochiladi. Kirgan talabaga qarang: talabchanlik bilan - "Tezgina o'tir!"; ajablangan holda - "kutmagan edim"; achinish bilan - "fikrni bo'layapsan"; savolnamo - "nimadir yuz berdimi?"; ta'na bilan - "ishlashga xalaqit berayapsan"; quvonch bilan - "xayriyat!" deyishingiz mumkin.

2-vaziyat. Talabani chaqirasiz. U aytadi: "Men vazifani bajarmadim". Sizning reaksiyangiz: ma'qullayman: - "tushunaman, qanchalik senga noqulay"; muhokama qilaman: - "bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi"; kutaman: - "endi nima bo'ladi, nima bilan tushuntirasan"; yonini olishga tayyor: - "ha, senga kasalliging tufayli darsda qatnashmaganing xalaqit berdi"; hayron holatda: - "buni sendan kutmagan edim"; yoki: - "bu nechanchi marta bo'layapti"; befarq holatda: - "buning menga farqi yo'q" kabi emotsional jihatdan javob reaksiyalarini namoyon etishingiz mumkin.

Ish yakunida vaziyatlar yuzasidan kuzatilishi mumkin bo'lgan emotsional reaksiyalar va ularning teskari ta'siri birma-bir tahlil etiladi. Har bir vaziyatdagi reaksiyani namoyon etishda mimika vazifa mazmunini yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi.

Affektlar nazariyasi tadqiqotchilari tinglovchilarda qaysi holatlarda u yoki bu emotsiyani qo'zg'atish uchun musiqaning qanday ifoda vositalaridan foydalanish zarurligini aniqlashgan. Musiqada ifodalanadigan emotsiya hamisha ma'lum g'oya bilan bog'liq va bu g'oya kayfiyat orqali namoyon bo'ladi. "Musiqaning maqsadi - g'oyaga mos affektlarni uyg'otishdir. Ma'lum g'oyalar ma'lum affektlarni ko'zg'atadi, ular ta'sirida esa muvofiq g'oyalar paydo bo'ladi"³¹. She'riy matn musiqiy affektga yo'nalish berib, uning ta'sir kuchini oshiradi. Musiqiy kechinmalarni ifodalashda emotsiyalar asos bo'lib hisoblanadi.

➤ Ijtimoiy yetuk shaxs do'stlari ko'p, muloqotga kirishish qobiliyatiga ega, optimizm hissiga ega bo'lishi lozim, bular sangviniklar bo'lishadi;

³¹ Шестаков В.П. От этоса к аффекту. М., 1975. – С.280.

➤ qo‘yilgan muammoni chuqur va asosli o‘rganish flegmatiklarga xos;

➤ shaxslararo muloqot jarayonida ziyraklik, ehtpyotkorlik, tashabbuskorlikni namoyon etish melanxoliklarga xos;

➤ aniq maqsadga erishish yo‘lida ruhiy-asab energiyasini to‘plab safarbar etish, o‘z hayotiy qadriyatlari va mezonlarini faol yoqlash xoleriklarda kuzatiladi.

Odatda bir musiqa asarida turli xususiyatga ega bo‘lgan bir nechta emotsiyalar tasvirlanadi. Bu emotsiyalarning xususiyati estetik belgilar deb ataladi va tadqiqotchi V.G.Rajnikov tomonidan ularning lug‘ati tuzilgan. Bu tadqiqotchi insonning ma‘lum ob‘yektga munosabatini ifodalovchi kechinmalarning yaxlit spektrini 27 modallikda jamlagan va ularning har biri o‘z navbatida 20 dan 40 tagacha belgilarni o‘z ichiga olgan³².

Musiqa asari ijrosida rang-barang emotsional kechinmalarni ifodalash imkoniyatining kengligi ijrochining o‘z psixikasida ushbu kechinmalarni hosil qila olish qobiliyatiga bog‘liq.

Hayotda ma‘lum muvaffaqiyatlarga erishganlar ustida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, qobiliyatlar yoki qulay sharoit emas, avvalo, ma‘lum maqsad tomon eltuvchi mustahkam iroda kuchiga tayanish ularning muvaffaqiyatga erishishida asosiy rol o‘ynagan. Chunki hayotda erishayotgan ko‘pgina yutuqlarimiz avvalo o‘z ustimizdan g‘alaba qozonishimizdir, zero turli to‘siqlarni engishda sabr-toqat, chidam, omilkorlik mavjud tabiiy kamchiliklarimizni to‘ldirib, kasb egasi sifatida shakllanishga imkon yaratadi.

Ijtimoiy rivojlanishga muhim hissa qo‘shgan ko‘pgina fan va san‘at arboblari odatda mustahkam, bukilmas iroda kuchiga ega bo‘lishgan. Bu o‘rinda O.Balzakning quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinlidir: - “Katta iroda kuchisiz katta iqtidor egalari bo‘lishi mumkin emas... Iroda iqtidordan ko‘ra ko‘proq darajada iftixor predmeti bo‘lmog‘i lozim. Agar iqtidor tabiiy xususiyat bo‘lsa, kuchli iroda bu o‘z instinktlari, mayllari ustidan qozoniladigan har daqiqalik g‘alabadir”³³.

³² Петрушин В.И. Музыкальная психология. – М.: Гуманитарно-издательский центр ВЛАДОС. 1997. – С.270.

³³ В мире мудрых мыслей. М., 1962. - С.84.

Insonda iroda kuchi etarli darajada bo'lsa, unda tasavvur orqali paydo bo'luvchi motiv yoki mazmun kuchli bo'ladi. Tasavvur etilgan mazmun insonning ijtimoiy ehtiyojlari, o'zining ijtimoiy kontekstda mavjudligi, hayotdagi ijtimoiy me'yorlarni hurmat qilishi va qo'llab-quvvatlashi bilan chambarchas bog'liqdir.

Demak, irodani kuchaytirish mexanizmi oddiy intilish emas, balki yuksak maqsad orqali yuklangan vazifani amalga oshirishga ko'maklashuvchi tasavvur kuchi bo'lib hisoblanadi. Irodaviy harakatlar orqali inson hali mavjud bo'lmagan o'z kelajagi bilan bog'lanadi.

Kishini ijobiy harakatga yetaklovchi motivatsiyani o'zgartirish orqali zaxiradagi ichki kuchlarni ishga solish imkoniyati mavjud. Bu quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

Motivni almashtirish orqali. Masalan, ertalab uyqudan turish paytida mening motivim uyqudek istirohatni davom ettirishga qaratilgan bo'lsa; lekin vaqt ziq va men bilamanki, ertalabki jismoniy mashqlar vaqtini o'tkazib yuborsam, kun bo'yi bo'shashib yuraman va rejalashtirgan ishlarimni bajarishga ulgurolmayman. Shunda boshqa motiv amal qila boshlaydi, ya'ni ko'p ish bajarishga tayyor bo'lish uchun badantarbiya qilish lozim. Men turaman va uni bajarishga kirishaman.

Yangi motiv tomon harakatni yo'naltirish orqali. Masalan men, seminar mashg'ulotiga tayyor bo'lish uchun darslikning ma'lum betlarini o'qib o'rganishim, konspekt qilishim lozim. Qaysidir paytda charchadim va bu mashg'ulot jonimga tegdi. Shunda men harakat motivini o'zgartirib o'zimdani so'rayman: darsga tayyorlanishni keyinga sursam qanday bo'larkin? Shunda yakuniy natijani tasavvur qilgach, o'z faoliyatimda davom etaman.

Kishining pozitsiyasi va rolini o'zgartirish orqali. Qaysidir asarni yaxshigina ijro etgach, o'zimga-o'zim savol beraman: agar sening o'rningda Turg'un Alimatov yoki Abduhoshtm Ismoilov bo'lganlarida qanday ijro etgan bo'lardilar? O'z rolimni xayolan - o'quvchidan yetuk ustozga almashtirib asarni boshqacha ijro etishga kirishaman.

O'zi va boshqalar uchun oqibatni anglash orqali. Avtobus haydovchisining ish faoliyati ma'lum maqsadga yo'naltirilgan kuchli

diqqatni talab etadi. Kun bo‘yi avtobus boshqargan haydovchi o‘zini erkin tutgan holda, diqqat bo‘lmasdan, bamaylixotir ham avtobus haydashi mumkin. Biroq, avtobusdagi yo‘lovchilarning xavfsizligini, ularni manzilga sog‘ va salomat yetkazish lozimligini eslab, o‘zini qo‘lga oladi hamda diqqat bilan yo‘lida davom etadi.

Harakatni yanada kengroq ijtimoiy motivatsiyaga safarbar qilish orqali. Ko‘pgina hollarda inson o‘zi uchun qila olmagan ishni boshqalar uchun qila oladi. Eksperimentlardan birida kishilarga uch vaziyatda avtobusni itarish taklif etilgan:

- ✓ shunchaki itarish;
- ✓ yuqori natija ko‘rsatish uchun itarish;
- ✓ odamlar yomg‘irda qolib ketganligi sababli, ularni tezroq manziliga yetkazish lozimligini tasavvur qilib itarish. Oxirgi variant bo‘yicha eng yuqori natijalar ko‘rsatilgan.

Har bir harakatni amalga oshirish ma‘lum kuch sarflashni talab etadi. Ko‘p hollarda bir nechta muqobil variantlar orasidan to‘g‘risini tanlash paytida motivlar kurashi yuzaga chiqadi. Bu kurash ichki ziddiyat bilan namoyon bo‘ladi. Ayniqsa kuchli kechinmalar hayotning burilish nuqtalarida, masalan, kasb tanlash, o‘quv yurtini tanlash, umr yo‘ldoshi tanlashda paydo bo‘ladi. Qat‘iyatsiz kishi qaror qabul qilishda ikqilanib, ko‘pincha rad etilgan variantlarga qaytadi va o‘z qarorini o‘zgartiradi. Bunday ikqilanishlar ko‘p marta qaytarilib, asablarni qaqshatadi.

Bunday hatgi-harakatlarning zararli ekanligi psixologiyada *Buridan eshagi* bilan bog‘liq voqeada aniq ifodalab berilgan. Ikkita pichan g‘arami o‘rtasida turgan eshak kay birini oldin esam ekan, deya ikqilanib bir qarorga kelolmay oqibatda ochlikdan o‘ladi.

Qat‘iyat yoki qat‘iyatsizlikning namoyon bo‘lishi kishining ichki imkoniyatlari, individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq. Qat‘iylik va o‘z harakatining to‘g‘ri ekanligini ta‘kidlovchi kishilar va isteriklardir³⁴. Psixasteniklar³⁵ ishonchsizlikni namoyon etuvchi kishilar bo‘lishadi.

³⁴ Isterika - asab toliqishi, talvasa va tomir tortishishi orqali namoyon bo‘ladigan psixik holat.

³⁵ Psixasteniya - ruhiy buzilish bilan namoyon bo‘ladigan asabiy holat.

Irodaning muhim xususiyatlariga qat'iylik bilan birga chidam, mustaqillik kiradi. Chidamlilik - g'azab, qo'rquv, tanglik kabi salbiy affekt holatlarida o'z-o'zini boshqara olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, u omadsizlik paytlarida ham asqotadi. Ba'zan taniqli ijodkorlarning asarlari borasida tanqid qilinganlari ham uchraydi, lekin bu holat ijodkorlarni ruhini so'ndira olmaydi.

Demak, cholg'u ijrochiligida zarur bo'lgan kasbiy sifatlarni shakllantirish maqsadida yuqorida keltirilgan ish usullaridan oqilona foydalanish ijobiy pedagogik natijalar omili bo'ladi.

Cholg'u ijrochiligi ijrochidan murakkab ruhiy yuklamalarga bardosh berishni, o'rganilgan cholg'u asarining nota matnini bexato ijro eta olishni, orkestr ijrochiligida esa o'zi kabi boshqa cholg'uchilarning ijro jarayonini bevosita kuzatib borish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi. Bunda jamoaviy ijroning yaxlit musiqa asari darajasida yangrashiga erishish, turli cholg'u asboblarning rang-barang tovush tembri sadolanishini to'laqonli idrok eta olish talab qilinadi.

Demak, yosh cholg'u ijrochilari musiqa o'qitish va tarbiyalash jarayonida ijtimoiy tajribaning uch asosiy elementini o'zlashtiradilar. Bular:

- musiqiy bilim;
- musiqiy faoliyat usullari;
- badiiy ijodiy faoliyat tajribasidan iborat.

Musiqiy tajriba – mutaxassislik bo'yicha uslubiy darslik va o'quv qo'llanmalar, o'quv dasturlari, zarur metodik adabiyotlar orqali o'zlashtiriladi. Ushbu o'quv materiallari mukammal bo'lishi mumkin, biroq, ular o'quvchining o'qituvchi bilan jonli muloqoti, jonli ijro, faol musiqiy faoliyatning o'rnini bosa olmaydi. Barcha zarur o'quv vositalari bilan musiqa o'quv jarayoni tashkil etilishi faqatgina o'qituvchi va o'quvchining psixologik hamkorligi orqali o'zining yuqori samaradorligiga erishadi.

Musiqa o'qituvchisi shaxsining kasbiy imkoniyatlari, intellektual va emotsional ta'sir doirasi qanchalik keng bo'lsa, o'z tarbiyalanuvchisining barkamol shaxs sifatida shakllanishiga shunchalik ko'p ijobiy ta'sir qiladi. O'qituvchi faoliyati uchun didaktik va kommunikativ qobiliyatlar muhimdir.

Didaktik qobiliyatlar ma'lum fan doirasidagi bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda namoyon bo'ladi. Predmetni bilish va uni qanday qilib o'quvchiga yetkazishni bilish, bir-biridan farq qiluvchi jihatlardir.

O'qituvchi barcha fanlar kabi musiqa fanlaridan dars berganda, o'quv jarayonini tashkil etishning asosi bo'lgan umumiy pedagogik nazariyalardan xabardor bo'lishi shart. Shulardan L.Zankovning bolani "yuqori murakkablik darajasida o'qitish" nazariyasi; P.Galperinning "aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi" nazariyasi; V.Davidovning "aniq bilimlardan ko'ra umumlashtirilgan bilimlarning ustuvorligi" nazariyasi; A.Matyushkinning o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan "muammoli o'qitish kontseptsiyasi" kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Katta ijodiy muvaffaqiyatlarga erishadigan iqtidorli musiqa o'qituvchilarining muhim, o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular har bir musiqiy-nazariy va amaliy (nota) materialni o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, psixologik xususiyatlari, boshqa o'quv predmetlari bilan integratsiyasi mazmuniga qarab, turlicha usullar bilan etkazadilar.

O'quvchilar bilan muomala o'rnatishga qaratilgan kommunikativ qobiliyatlarga: empatiya, o'quvchining ma'naviy dunyosini birgalikda his etish; ushbu damdagi uning kayfiyatini aniq, nozik sezish; musiqa fani mazmuni hamda o'z sezgi va kayfiyatlarini aniq ifodalay olish kiradi. Samimiylik, emotsionallik, tovushning boy intonatsiyasi, ifodali harakatlar, yuqori badiiy darajada ijrochilik mahorati, pedagoglik salohiyati va yoqimli mimika - bularning barchasi ushbu qobiliyatning namoyon bo'lishi uchun asos vazifasini bajaradi.

Cholg'u ijrochiligining yakkanavozlik ko'rinishida cholg'uchiga individual, yakka o'ziga tegishli bo'lgan va faqat o'zini nazorat qilish orqali sifatli ijroni ta'minlash vazifasi qo'yiladi.

Orkestr tarkibidagi ijroda esa bundan-da murakkabroq vazifa qo'yiladi. Orkestr sozandasi nafaqat o'zining individual ijrosi sifatini nazorat qilishi, balki, orkestrdagi boshqa barcha sozandalarning

ijrosini tinglashi, nazorat qilishi, ular ijrosining ritmik jihatini tahlil qilgan holda ular bilan sinxron ijroga erishishi talab etiladi.

Ayniqsa, tovush dinamikasi va ijro sur'ati muhim ahamiyatga ega bo'lib, umumiy ijroning yaxlit holdagi yangrashi sifatini ta'minlavchi unsurlar hisoblanadi. Shu munosabat bilan yakkanavoz va orkestr tarkibida ijro etuvchi sozandalarning ijroviy vazifalari o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi va bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida yakkanavozlik malakalarini shakllantirish uchun yuqoridagi xususiyatlarni alohida ularga o'rgatish, mashq qildirish talab qilinadi.

Masalan, o'zbek xalq cholg'u asboblari ansamblida ijro etish sozandadan barcha cholg'uchilar bilan unison tarzda ijro etish, alohida hollarda solo ijro etish talab etiladi. Birok, xalq cholg'u asboblari orkestrida ko'p ovozli ijro amaliyoti mavjudligi sababli, har bir cholg'u sozining alohida, o'z ovoz partiyasi borligi, ular nota matnida ko'rsatilgan tarzda va ko'rsatilgan notalarni ijro etishlari zarur. Bu esa o'quvchilardan alohida diqqatni, kuzatuvchanlikni talab etadi.

Sozandaning kasbiy shakllanishida uning sezgilari sifati muhim ahamiyatga ega. Diqqat – musiqachi faoliyati barcha turlari, eng avvalo ijrochilik va o'quv faoliyati samaradorligining muhim, zarur shartidir. Diqqat ijrochining hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va ijro faoliyatiga qaratilganligidir. Diqqat - sezgi, xotira, tafakkur va harakat jarayonlarida namoyon bo'lishi mumkin.

Sezgilar predmet, hodisalar va moddiy borliqning alohida xossalari, sifatlarining sezgi organlarida aks etishidir. Sezgilar paydo bo'lishi uchun avvalo qo'zg'atuvchi bo'lishi lozim. Musiqiy faoliyatlarda musiqiy tovush obrazlari sezgi, aniqrog'i eshitish sezgisi ob'yekti bo'lishi mumkin.

Qo'zg'atuvchilar sezgi organlariga ta'sir etuvchi real olam predmetlari va hodisalaridir. Musiqiy tovush sezgisi eshitish organi - quloqlar orqali amalga oshiriladi. Demak, tovushlar ta'siri eshitish organida qo'zg'alishni keltirib chiqaradi. Tovush sezgisi faqatgina o'z tuzilishi bilan ancha mukammal bo'lgan asab to'qimalari

tuzilmasini qo'zg'atganda yuzaga keladi. Shuningdek, bosh miya to'qimalarining ishtiroki ham zarur.

Tovush sezgisining fiziologik asosi eshitish sezgisi organlarining murakkab faoliyati orqali amalga oshiriladi. Barcha qo'zg'atuvchilarni tahlil qiluvchi to'qimalar tuzilmasi analizator deyiladi. Musiqiy faoliyatda musiqiy tovushni sezish dastlab tovush analizatorida aks etadi.

Analizator o'ziga xos uchta bo'limlari bilan ajralib turadi:

- periferik (retseptor);
- uzatuvchi (o'tkazuvchi);
- markaziy (miya).

Barcha sezgi organlari - ko'z, quloq, burun, teri va boshqalar periferik (retseptor) bo'limni tashkil etadi. Demak, musiqiy tovushlarni sezish periferik retseptorlar orqali amalga oshiriladi.

Retseptorning joylashuviga ko'ra, analizatorlar ichki va tashqiga bo'linadi. Retseptorlar tana yuzasida (eksteroretseptorlar) va ichkarisida (interoretseptorlar) joylashadi. Eksteroretseptorlar tashqi qo'zg'atuvchilarni sezadi. Interoretseptorlar esa organizm ichida yuz beradigan o'zgarishlarni sezadi. Organik sezgilar ularning faoliyati bilan bog'liq.

Harakat analizatori boshqa analizatorlar ichida alohida o'ringa ega, uning retseptorlari (proprioretseptorlari)³⁶ to'qimalarda joylashgan. Ular gavda holati va harakatini sezishga moslashgan. Shuningdek, proprioretseptorlar turli ob'yektlarning xossalari, sifatini aniqlash, masalan, qo'l bilan paypaslab aniqlashda ishtirok etadi.

Ma'lumot va axborotni qabul qilish o'zida quyidagi bosqichlarni aks ettiradi: Q-SO-AI-AS-YaO-XE-PA-FF-JM-TT-MA-D. Ya'ni, qo'zg'atuvchi (Q) sezgi organlariga (SO) ta'sir etadi, bunda asab impulslari (AI) paydo bo'ladi. Ular qayta ishlanadi va alohida sezgilar (AS) shakllanadi, shundan predmetning yaxlit obrazi (YaO) hosil bo'ladi. Bu obraz xotira etalonlari (XE) bilan taqqoslanadi va

³⁶ Proprioretseptorlar, proprioretseptorlar - lot. *proprius* - xususiy, o'ziga xos; *receptor* - qabul qiluvchi - ma'nolarini bildiradi. Mushaklarda, bog'lamlarda joylashgan bo'lib, ular faoliyati haqida ma'lumot beruvchi sensor organlarning periferik qismidir.

predmetni aniqlash (PA) yuz beradi. So'ngra fikrlash faoliyati (FF), joriy ma'lumot (JM) va oldingi tajribani taqqoslash (TT) orqali ma'lumotni anglash (MA) amalga oshadi. Diqqat (D) ma'lumotni qabul qilish va tushunishga qaratilishi lozim³⁷.

Sezgilar – predmetlar alohida xossalarining sezgi organlarida aks etishidir. Musiqiy faoliyatlarda asosan eshitish va teri-taktily sezgilari ishtirok etadi. Sezgilar bir paytning o'zida ham ob'yektiv, ham sub'yektivdir. Ob'yektivligi shundan iboratki, unda hamisha tashqi qo'zg'atuvchi aks etadi musiqa ijrosini tinglash, eshitish). Sub'yektivligi esa – ular hamisha asab tuzilmasi va individual xususiyatlarga bog'liqdir, ya'ni, shaxsning eshitish sezgilari qay darajada rivojlangan yoki holati qanday ifodalangan.

Analizator deb tashqi va ichki muhitdagi ma'lum qo'zg'atuvchilar ta'sirini qabul qilishga yo'naltirilgan anatomofiziologik apparatga aytiladi. Har bir apparat uch qismdan iborat bo'ladi:

- Retseptor – tashqi ta'sir energiyasini asab impulslariga aylantiruvchi sezgi organidir (musiqada eshitish sezgi retseptorlari). Har bir retseptor faqat o'zi uchun xarakterli bo'lgan, ma'lum ta'sirni qabul qilishga moslashgan;

- O'tkazuvchi asab yo'llari. Bu yo'llar orqali signallar, ya'ni musiqiy tovush obrazlari impulysi miyaga uzatiladi;

- bosh miya qobig'i yarim sharlaridagi *miya markazi*. Qabul qilingan ma'lumotlar miya markazida qayta ishlanadi va shu orqali biz musiqiy ohanglarni mazmun tashuvchi unsur sifatida eshitamiz hamda undagi mazmunni anglaymiz.

Inson yigirmatacha analizator tuzilmalariga egadir. Bu tuzilmalarni tasniflashning bir necha variantlari mavjud.

Hozirgi davrda ingliz fiziologi I.Sherington tomonidan ilgari surilgan sezgi turlarini tasniflash keng tarqalgan. U sezgilarning uch asosiy turlarini ajratib ko'rsatdi:

³⁷ Baxriyev A. Psixologiya. Universitetlarning gumanitar yo'nalishdagi talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Buxoro-2007. - 64 b.

- eksteroretseptiv – tana yuzasida joylashgan retseptorlarga tashqi qo‘zg‘atuvchilarning ta‘sir etishi natijasida paydo bo‘ladi, cholg‘u ijrochiligida barmoqlarning sezgi faoliyati;

- interoretseptiv (organik) – ular organizmda yuz berayotgan o‘zgarishlar haqida (ochlik, tashnalik, og‘riq) signal beradi;

- proprioretseptiv – muskul to‘qimalari, paylarda joylashgan bo‘lib, ular yordamida miya harakat va gavda holati haqida ma‘lumot olib turadi.

Deyarli barcha eksteroretseptiv sezgilar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- distant – ko‘rish, eshitish biz uchun sifatlardir;
- kontakt – hid bilish, ta‘m bilish.

Hid bilish sezgilari bunda oraliq o‘rinni egallaydi. Qo‘zg‘atuvchi modalligiga ko‘ra sezgilar - ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta‘m bilish, taktil, statik, harorat, og‘riq, tashnalik va ochlikni sezish turlariga bo‘linadi.

Ko‘rish sezgilari – distant sezgi turlardan biridir. U inson psixikasi faoliyatining normal kechishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ko‘z orqali organizm barcha ma‘lumotning deyarli 85% ini qabul qiladi. Bu sezgilarning paydo bo‘lishi sababi yorug‘lik nurlarining ko‘z to‘r pardasidagi sezuvchan qismga ta‘sir etishidir. To‘r parda ko‘rish analizatorining retseptori hisoblanadi.

Eshitish sezgilari distant sezgi turiga kiradi va musiqiy faoliyatlarda muhim o‘rin tutadi. Eshitish sezgilarining qo‘zg‘atuvchilari tovush to‘lqinlaridir. Tovush to‘lqinlari – bu havo zarralarining uzunlama titrashidir. Ular tovush manбайдan barcha tomonlarga bir tekisda tarqaladi. Eshitish sezgilari:

- tovush balandligini aks ettiradi, u to‘lqin chastotasiga bog‘liq;
- balandlik, tebranish amplitudasiga bog‘liq;
- tovush tembri – tovush to‘lqinlarining tebranish shakliga bog‘liqdir.

Vibratsiya sezgilari eshitish sezgilari bilan o‘xshash xossaga ega va qayishqoq jismning tebranishini aks ettiradi. Insonda maxsus vibratsiya retseptorlari aniqlanmagan. Tashqi va ichki muhitning vibratsiyalarini butun organizm to‘qimalari aks ettiradi. Ta‘kidlash

lozimki, ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan ayrim kishilarda sensibilizatsiya jarayoni natijasida vibratsiya sezgilari rivojlanishi holatlari kuzatilgan.

Musiqiy kasbiy faoliyatlarni amalga oshirishda sezgilar, ayniqsa eshitish sezgisining hal qiluvchi o‘rni mavjud. Chunki, tovush obrazlarini eshitish va undagi badiiy mazmuni anglash aynan ushbu sezgilar orqali amalga oshiriladi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Yakka ijroning psixologik jihatlariga nimalar kiradi?
2. Jamoaviy ijro xususiyatlarini gapirib bering.
3. Orkestr tarkibida ijroning psixologik xususiyatlari nimalarda namoyon etiladi?
4. Xonanda faoliyatiga qanday talablar qo‘yiladi?
5. Xonandaning ijrochilik faoliyati psixologiyasigi nimalar kiradi?
6. Xonandaning ijro jarayonidagi hayajonini engish usullarini gapirib bering.
7. Xonandaning ovoz apparatini tavsiflang.

MUSIQA SAN’ATIDA BILISH JARAYONLARI.

Reja:

1. Psixik bilish jarayonlari xususida.
2. Diqqat va sezgilarning psixologik imkoniyatlari.
3. Idrok va tafakkur jarayonlari.
4. Xotira va xayol bilish jarayonlari.

Tayanch tushunchalar: sezgi, diqqat, musiqiy xotira, musiqiy tafakkur, xayol, retseptor, eksteroretseptor, interoretseptor, organik sezgilar, proprioretseptorlar.

Bilish jarayonlari orqali inson axborot mazmunini anglaydi, ob’yektiv olamni aks ettiradi. Bilish jarayonlari orqali ob’yektiv olam inson ongida sub’yektiv obrazga aylanadi.

Bilish jarayonlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- diqqat;

- sezgi;
- idrok;
- tafakkur;
- xotira;
- xayol.

Diqqat - kishi faoliyati barcha turlari, eng avvalo mehnat va o'quv faoliyati samaradorligining muhim va zarur shartidir. Diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligidir. Diqqat sezgi, xotira, tafakkur va harakat jarayonlarida namoyon bo'lishi mumkin. Diqqat bilish jarayoni musiqiy faoliyatning samarali tashkil etilishida iuhim o'rin tutadi.

Sezgilar - ushbu damda predmet, hodisalar va moddiy borliqning alohida xossalari, sifatlarining sezgi organlarida aks etishidir. Sezgilar paydo bo'lishi uchun avvalo qo'zg'atuvchi bo'lishi lozim.

Qo'zg'atuvchilar bu sezgi organlariga ta'sir etuvchi real olam predmetlari va hodisalaridir. Ularning ta'siri qo'zg'alishni keltirib chiqaradi. Sezgilar faqatgina o'z tuzilishi bilan ancha mukammal bo'lgan asab to'qimalari tuzilmasini qo'zg'atganda yuzaga keladi. Shuningdek, bosh miya to'qimalarining ishtiroki ham zarur. Sezgilarning fiziologik asosi sezgi organlarining murakkab faoliyatidir. Qo'zg'atuvchilarni tahlil qiluvchi to'qimalar tuzilmasi analizator deyiladi. Musiqiy ijrochilikda sezgilar muhim ahamiyatga ega bo'lib, umumiy natija sifatiga bevosita daxldordir.

Analizator o'ziga xos uchta bo'limlari bilan ajralib turadi:

- periferik (retseptor);
- uzatuvchi (o'tkazuvchi);
- markaziy (miya).

Barcha sezgi organlari - ko'z, quloq, burun, teri va boshqalar *periferik (retseptor) bo'limni* tashkil etadi. Musiqiy ijrochilikda asosan eshitish sezgisi, xususan, cholg'u ijrochiligida teri-taktily sezgisi faol ishtirok etadi.

Retseptorning joylashuviga ko'ra, analizatorlar ichki va tashqiga bo'linadi. Retseptorlar tana yuzasida (eksteroretseptorlar) va

ichkarisida (interoretseptorlar) joylashadi. Eksteroretseptorlar tashqi qo'zg'atuvchi-larni sezadi. Interoretseptorlar esa organizm ichida yuz beradigan o'zgarishlarni sezadi. Organik sezgilar ularning faoliyati bilan bog'liq.

Harakat analizatori boshqa analizatorlar ichida alohida o'ringa ega, uning retseptorlari (proprioretseptorlari) to'qimalarda joylashgan. Ular gavda holati va harakatini sezishga moslashgan. Shuningdek, proprioretseptorlar turli ob'yektlarning xossalari, sifatini, masalan, qo'l bilan paypaslab aniqlashda ishtirok etadi, bu cholg'u ijrochiligida muhimdir.

Diqqatning ko'rinishi va xossalari. Insonga turli qo'zg'atuvchilar muntazam ta'sir etib turadi. Inson ongi bu ob'yektlarning barchasini birdaniga ma'lum aniqlikda qamrab olishga qodir emas, ba'zilar aniq, ba'zilar g'ira-shira ilg'ab olinadi, ba'zilar esa umuman sezilmaydi. O'rab turgan ob'yektlardan inson o'zi uchun qiziqarli bo'lganlarini ajratadi. Insonning har qanday faoliyati ma'lum ob'yektni ajratish va unga diqqatni qaratishni talab etadi.

Diqqat deganda ongning boshqa ob'yektlardan to'la xoli bo'lgan holda ma'lum ob'yektlar yoki faoliyatga qaratilganligi va yo'nalganligi tushuniladi. Jamoaviy cholg'u yoki vokal ijrochiligida diqqatning ahamiyati ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Chunki, o'z ijrosi bilan birga, boshqa ijrochilarning ham ijrosini kuzatib borishi va sinxron ijroga erishishi talab etiladi. Ma'lum ob'yektni ajratishda diqqatning tanlanganligi namoyon bo'ladi. Diqqat:

- ixtiyorsiz;
- ixtiyoriy;
- ixtiyoriydan keyingi tarzida bo'lishi mumkin.

Ixtiyorsiz diqqat quyidagi holatlarda:

- tashqi ta'sirlar - qo'zg'atuvchilar xususiyatlari: ularga qo'zg'atuvchining kuchi va kutilmaganligi; yangiligi, o'ziga xosligi, qo'zg'atuvchining kontrastligi, ob'yektning harakatliligi kiradi;
- ichki intilish natijasida, shaxsning yo'nalganligi orqali namoyon bo'ladi.

Ongli tarzda qo'yilgan maqsad natijasida hosil bo'ladigan diqqat ixtiyoriy diqqat deyiladi. Musiqa ijrochiligida bu diqqat turi hamisha irodaviy harakatlarni talab etadi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsizdan tashqari ixtiyoriydan keyingi diqqat turi ham mavjud bo'lib, u asosan ixtiyoriy diqqatdan so'ng paydo bo'ladi. Ixtiyoriydan keyingi diqqat ixtiyoriy diqqat (maqsadni anglash), shuningdek, ixtiyorsiz diqqat (uni saqlab turish uchun irodaviy harakatlarni talab etilmaydi) xossalariga ega bo'ladi.

Musiqiy faoliyatda diqqatning beshta xossasini ajratib ko'rsatishadi:

➤ diqqatning to'planishi – diqqatni ma'lum asar ijrosiga, boshqa barcha narsalardan xoli bo'lgan holda saqlab tura olish;

➤ diqqatning barqarorligi - diqqatni ma'lum asar ijrosiga uzoq muddat saqlab tura olish;

➤ diqqatning hajmi – diqqat orqali ma'lum aniqlikda idrok etiladigan jamoaviy ijrochilar (ovoz partiyalari) soni;

➤ diqqatning taqsimlanishi – ikki va undan ortiq ijrochilarning bir vaqtning o'zida faoliyatni amalga oshirishi yoki ularni nazorat qilishdir;

➤ diqqatning ko'chishi – yangi vazifa qo'yilishi natijasida diqqatning ma'lum taktlardan boshqa taktlariga yoki bir ijro faoliyatidan boshqasiga o'tishidir.

Sezgilar va ularning asosiy turlari. Sezgilar – predmetlar alohida xossalarining sezgi organlarida aks etishidir. Sezgilar bir paytning o'zida ham ob'yektiv, ham sub'yektivdir. Ob'yektivligi shundan iboratki, unda hamisha tashqi qo'zg'atuvchi aks etadi. Bunga jamoaviy ijrodagi jo'rnavoz, orkestr, xor dirijyori faoliyatini keltirish mumkin, sub'yektivligi esa – ular hamisha oliy asab tuzilmasi va individual ijrochilik imkoniyatlari va xususiyatlariga bog'liqdir.

Analizator deb tashqi va ichki muhitdagi ma'lum qo'zg'atuvchilar ta'sirini qabul qilishga yo'naltirilgan anatomofiziologik apparatga aytiladi. Har bir apparat uch qismdan iborat bo'ladi:

• *retseptor* tashqi ta'sir energiyasini asab impulslariga aylantiruvchi sezgi organidir. Cholg'u ijrochiligida barmoqlar

harakati orqali retseptor faqat o'zi uchun xarakterli bo'lgan, ma'lum ta'sirni qabul qilishga moslashganligi;

- *o'tkazuvchi asab yo'llari*. Bu yo'llar orqali signallar miyaga uzatiladi;

- bosh miya qobig'i yarim sharlaridagi *miya markazi*.

Inson yigirmatacha analizator tuzilmalariga egadir. Bu tuzilmalarni tansiflashning bir necha variantlari mavjud bo'lib, asosan quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

- sezgini hosil qiluvchi retseptor bilan qo'zg'atuvchi o'rtasidagi bevosita ta'sirning bor yoki yo'qligi;

- retseptorlarning joylashishiga ko'ra;

- evolyutsiya jarayonida paydo bo'lish vaqtiga ko'ra;

- qo'zg'atuvchi tabiati (modalligi) ga ko'ra.

Hozirgi davrda ingliz fiziologi I.Sherington tomonidan ilgari surilgan sezgi turlarini tasniflash keng tarqalgan. U sezgilarning uch asosiy turlarini ajratib ko'rsatdi:

- eksteroretseptiv – tana yuzasida joylashgan retseptorlarga tashqi qo'zg'atuvchilarning ta'sir etishi natijasida paydo bo'ladi, bu aynan musiqiy cholg'u ijrochiligi faoliyatida namoyon etiladi;

- interoretseptiv (organik) – ular organizmda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida (ochlik, tashnalik, og'riq) signal beradi;

- proprioretseptiv – muskul to'qimalari va paylarda joylashgan bo'lib, ular yordamida miya barmoqlar harakati hamda gavda holati haqida ma'lumot olib turadi.

Barcha eksteroretseptiv sezgilar distant – *ko'rish, eshitish* va kontakt – *hid bilish, ta'm bilish* turlariga bo'linadi.

Hid bilish sezgilari bunda oraliq o'rinni egallaydi. Qo'zg'atuvchi modalligiga ko'ra sezgilar - *ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, taktil, statik, harorat, og'riq, tashnalik va ochlikni sezish* turlariga bo'linadi.

Ko'rish sezgilari – distant sezgi turlardan biridir. U inson psixikasi faoliyatining normal kechishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'z orqali organizm barcha ma'lumotning deyarli 85%ini qabul qiladi. Bu sezgilarning paydo bo'lishi sababi yorug'lik

nurlarining ko‘z to‘r pardasidagi sezuvchan qismga ta’sir etishidir. To‘r parda ko‘rish analizatorining retseptori hisoblanadi.

Eshitish sezgilari ham distant sezgi sezgi turiga kiradi va inson musiqiy faoliyatlarida muhim o‘rin tutadi. Eshitish sezgilarining qo‘zg‘atuvchilari musiqiy tovush to‘lqinlaridir. Musiqiy tovush to‘lqinlari – bu havo zarralarining uzunlama titrashi, tovush to‘lqini paydo bo‘lishidir. Ular tovush manbai, ya’ni cholg‘u sozidan barcha tomonlarga bir tekisda tarqaladi. Eshitish sezgilari:

- tovush balandligini aks ettiradi. U o‘z navbatida to‘lqin chastotasiga bog‘liqdir;
- tovush kuchi - tebranish amplitudasiga bog‘liq;
- tovush tembri – tovush to‘lqinlarining tebranish shakli vaxususiyatlariga bog‘liqdir.

Vibratsiya sezgilari eshitish sezgilari bilan o‘xshash xossaga ega va qayishqoq jismning tebranishini aks ettiradi. Insonda maxsus vibratsiya retseptorlari aniqlanmagan. Tashqi va ichki muhitning vibratsiyalarini butun organizm to‘qimalari aks ettiradi.

Hid bilish sezgilari distant sezgilarga kiradi. Hid bilish sezgilari hidlarni aks ettiradi. Hid bilish organlari hid bilish to‘qimasi bo‘lib, burun bo‘shlig‘ining yuqori qismida joylashgan. Moddalarning ta’im bilish retseptorlariga ta’siri orqali *ta’im bilish sezgilari* hosil qilinadi. Bu kontakt sezgi turiga kiradi. Ta’im bilish retseptorlari – tilning ustki qismi va halqumda joylashgan.

Teri sezgilari inson terisida joylashgan: taktil sezgilar musiqiy cholg‘u ijrochiligida muhimdir, bundan tashqari og‘riq va harorat ham bir nechta analizatorlar tuzilmasi orqali hosil qilinadi.

Taktil sezish tuzilmasi butun inson organizmini qamrab olgan. U bosim, teriga tegish, vibratsiya sezgilarini o‘zida aks ettiradi. Lablar va barmoqlar uchlarida eng ko‘p taktil to‘qima-retseptorlar to‘plangan.

Agar tana yuzasiga tegilsa, so‘ngra bosilsa, og‘riq sezgilarini hosil qilish mumkin. Og‘riq sezgilari eng oldin paydo bo‘lgan sezgilardan biridir. Ular organizmga qo‘zg‘atuvchidan naribroq bo‘lishni bildiradi.

Teri sezgilarining uchinchi ko‘rinishi *harorat sezgilaridir*. Bu sezgi turi inson organizmi va uni o‘rab turgan olam bilan issiqlik

almashinuvini amalga oshirish bilan bog'liq. Tanadagi harorat retseptorlari notekis joylashgan. Inson elkasining orqa qismi sovuqqa, ko'rkagi esa issiqqa ko'p sezuvchidir.

Statik sezgilar makonda gavda holatidan darak beradi. Statik sezgirlik retseptorlari o'rta quloqdagi vestibulyar apparatda joylashgan. *Organik sezgilarga* sovuqni sezish, tashnalik, zichlik, shuningdek, og'riq va jinsiy sezgilar majmuasi kiradi.

Analizatorlar va ularning muhim xarakteristikalarini. Sezgilarning eng past darajasi - qo'zg'atuvchining minimal kattaligidir. Agar qo'zg'atuvchining intensivligi ushbu darajadan past bo'lsa, u organizm tomonidan sezilmaydi. Musiqiy faoliyatlarda bu eshitish sezgisi bo'lib, *p* yoki *pp* ni sezish darajasi minimal kattalik, eng yuqori darajasi esa – analizator to'laqonli darajada seza oladigan maksimal kattalikdir. Differentsial, farqli daraja - qo'zg'atuvchilar orasidagi eng kam farqdan iborat. Sezgilar intensivligi Veber-Fexner qonuni orqali aniqlanadi: bunda, sezgi intensivligi qo'zg'atuvchi kuchi logarifmiga to'g'ri proporsionaldir.

Sezgilarning vaqtli darajasi - bu sezgi paydo bo'lishi uchun zarur bo'lgan qo'zg'atuvchi ta'sirining minimal davom etishidir. Makon darajasi idrok organi tomonidan zo'rg'a seziladigan qo'zg'atuvchining minimal o'lchami bo'lib, reaksiyaning latent (yashirin) davri signal berilganidan, sezgi paydo bo'lguniga qadar o'tadigan vaqtni bildiradi.

Sezuvchanlikni o'zgartirishning ikkita shakli mavjud: 1) adaptatsiya, tashqi ta'sirlarga moslashish uchun sezuvchanlikni o'zgartirish; 2) sensibilizatsiya, ichki omillar va organizm holati ta'sirida sezuvchanlikni o'zgartirishdan iborat.

Idrokning turlari, xossalari va o'zgarishlari. Sezgi organlari orqali qabul qilingan va qayta ishlangan musiqa natijasida ongda badiiy musiqiy obrazlar shakllanadi. Bu obrazlarning shakllanishi jarayoni musiqiy idrok yoki musiqiy pertseptsiya deb aytiladi. Musiqiy idrok sezgi organlariga bevosita ta'sir etuvchi musiqiy tovushlar aks etishi jarayonidir.

Musiqiy idrokning to'rtta bosqichi mavjud:

- a) musiqa tovushlarini ilg'ab olish;
- b) ularni ongdagi, tajriba va xotiradagi obrazlar bilan qiyoslash;

v) ularni identifikatsiyalash;

g) musiqiy tovushlar orqali ularning qaysi musiqa asariga tegishli ekanligini bilib olish.

Ilg'ab olish va farqlash musiqiy pertseptiv harakatlarga, identifikatsiya va bilib olish esa anglab olish harakatlariga kiradi. Har qanday sensor jarayonning oxirgi fazasi - ilg'ab olishdir. Musiqiy idrok jarayonining keyingi va asosiy bosqichi qiyoslash orqali farqlashdir. Bu bosqichning natijasi musiqiy pertseptiv obraz etaloni shakllanishidir. Musiqiy obraz shakllangach, identifikatsiya orqali bilib olish mumkin bo'ladi.

Identifikatsiya – bu idrok etiladigan musiqani xotiradagi musiqiy obrazlar bilan yoki ushbu lahzada bevosita idrok etilayotgan ikkita musiqa asarini taqqoslashdir. Musiqiy idrokni ixtiyoriy va g'ayriixtiyoriyga ham bo'lish mumkin. Bunday bo'lish musiqiy idrokning yo'nalganligiga bog'liqdir. Agar ixtiyoriy musiqiy idrok hech qanday faoliyatga yo'naltirilmagan bo'lsa, u kuzatish deyiladi. Kuzatishning asosiy xususiyatlari: a) ma'lum maqsad; b) vazifaning aniqligi; v) uni amalga oshirishning rejaliligi va tuzilmaliligidir.

Musiqiy idrok quyidagi xossalarga ega:

- appertseptsiya, ya'ni, musiqiy idrokning inson oldingi psixik tajribasiga bog'liqligi;

- musiqiy yaxlitlik va tuzilmalilik. Musiqiy idrok hamisha asarning yaxlit obrazini tashkil etadi. Shuningdek, musiqiy idrok sezgilar majmuasi bo'lmay, balki, biz hamisha umumlashtirilgan tuzilmani idrok etamiz;

- anglanganlik, ya'ni, musiqiy idrok musiqiy tafakkur bilan chambarchas bog'liq;

- tanlanganlik – inson ongida bir musiqa asariga nisbatan ikkinchi, boshqa musiqa asarining ustuvor ahamiyat kasb etishidir.

Quyidagi holatlar idrok buzilishining tipik xususiyatlarini ko'rsatadi:

- gipersteziya;
- giposteziya;
- agnoziya³⁸;

³⁸ Idrokning buzilishi.

- gallyutsinatsiya³⁹;
- psevdogallyutsinatsiyalardir⁴⁰.

Gipersteziya odatiy tashqi qo'zg'atuvchilarga nisbatan sezuvchanlikning ortishini tushuniladi. Kuchli jismoniy yoki hissiy emotsional charchoq uning sabablari bo'lishi mumkin.

Giposteziya gipersteziyaga qarama-qarshi hodisa bo'lib, sezuvchanlikning pasayishidir. Bu hodisaning sababi ham charchoq, lekin aqliy charchoqdir. Uning yana bir sababi depressiyadir.

Tafakkur miya atrof-olamni aks ettirishining oliy shakli bo'lib, ancha murakkab psixik bilish jarayonidir. Musiqiy tafakkur psixik aks ettirishning ancha umumlashgan, bilvosita shakli bo'lib, anglanayotgan musiqa asarlari orasida munosabat va bog'lanishlarni amalga oshiradi. Musiqiy tafakkur funksiyasi hissiy musiqiy idrok doirasidan chiqib, bilish chegaralarini kengaytirishdan iborat.

Musiqiy tafakkur insonga bevosita idrok etmayotganlarini "bilish" uchun imkon yaratadi. Musiqiy tafakkurning vazifasi musiqiy ohanglar o'rtasidagi munosabatlar, aloqalarni aniqlaydi va tasodifiy o'xshashliklardan ularni ajratadi. Inson musiqiy tafakkuri rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi.

Intellektual rivojlanish bosqichlari:

- ko'rgazmali-harakatli tafakkur;
- ko'rgazmali-obrazli tafakkur;
- so'z-mantiqiy tafakkur.

Inson bosqichma-bosqich ushbu tafakkur rivojlanishi pog'onalarini bosib o'tadi. Bola esa ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, muloqotga kirishadi. Shunday qilib, ko'rgazmali-harakat tafakkuri ikki yoshli bolalarda hali nutq yaxshi o'zlashtirilmagan paytdan boshlab kuzatiladi.

Bola musiqiy tafakkurida elementar oddiy umumlashtirish ishtirok etadi. Bu umumlashmalar musiqaning qandaydir belgilari asosida, bolani emotsional o'ziga jalb etgan hollarda amalga

³⁹ Gallyusinatsiya (lot) – mazmunsiz aljirash, amalga oshmaydigan orzu; tashqi qo'zg'atuvchi ta'sirisiz ongda paydo bo'ladigan obraz. U kuchli charchoq, alkogol ichish, ayrim psixik va nevrologik kasalliklar natijasida paydo bo'ladi.

⁴⁰ Psevdogallyusinatsiya – yolg'on gallyusinatsiya.

oshiriladi. Masalan, u yorqin, yuqori tonlarda jaranglaydigan, engil musiqalarga alohida reaksiya bildirishi mumkin.

Bolalarning musiqiy tafakkuri orqali bir qarorga kelishida transduktsiya⁴¹ ko‘proq kuzatiladi. Musiqiy tafakkur rivojlanishida u musiqiy ohanglarni idrok etishning: tushunishdan oldingi va tushunish bosqichlarini o‘tadi.

Tushunishdan oldingi bosqich bola musiqiy tafakkuri rivojlanishining dastlabki bosqichi bo‘lib, bolaning musiqiy fikrlashi tarqoq holda, musiqani anglashi o‘ziga xos bo‘lib, ayrim yorqin jihatlariga urg‘u beradi. Tushunish bosqichi darhol shakllanmaydi, u bir necha pog‘onani bosib o‘tadi. Nazariy holatlardan foydalanish o‘z tajriba doirasidan chiqqan paytda, ya’ni 18 yoshda musiqiy tafakkur jarayoni o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoniga o‘tadi.

Tafakkurning ko‘rgazmali-harakatli ko‘rinishi real predmetlar va ular bilan bajariladigan amallarga, ularni qayta tasavvur etishga tayanadi; aksincha, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur real predmetlarga emas, ularning xotirada mavjud obrazlariga tayanadi. Bu turning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda predmetlar va xossalar misli ko‘rilmagan, keng darajada taqqoslanadi; so‘z-mantiqiy tafakkurda tushunchalar bilan mantiqiy amallar bajariladi.

Musiqiy fikrlash jarayoni qandaydir badiiy-musiqiy vazifani echishga yo‘naltirilgan harakatdir. Vazifani qo‘yish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) maqsad; b) sharoit; v) uni echish. Muammoni echish musiqiy fikrlash jarayonining tugallanishi bo‘lib hisoblanadi. Har qanday musiqiy fikrlash jarayoni tushuncha va obrazlarda amalga oshadi.

Insonning musiqiy fikrlash jarayoni fikrlash operatsiyalari orqali amalga oshadi:

- tenglashtirish;
- analiz;
- sintez;
- mavhumlashtirish;
- umumlashtirish;
- konkretlashtirish.

⁴¹ Bir alohida tasodifdan barcha umumiy tasodiflar osha boshqasiga o‘tish.

Tenglashtirish musiqalarni ularda o'xshashlik va farqlar mavjudligini aniqlash maqsadida taqqoslashdir. Biz ma'lum musiqa asarini boshqasi bilan faqatgina taqqoslash orqali, uni aynanlashtirib yoki farqlab anglaymiz.

Analiz musiqa asarini tarkibiy qismlarga xayolan bo'lish, ulardagi alohida qismlar, belgilar va xossalarni ajratib tasavvur qilishdir. Sintez esa musiqa asarining alohida qismlari, bo'laklari va belgilarini xayolan yaxlit qilib birlashtirishdir. Analiz va sintez bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir-biri bilan yaxlit jarayonni tashkil etadi. Biz hamisha sintetik yaxlit bo'lganni analiz qilamiz, analitik alohidalikni esa sintez qilamiz.

Mavhumlashtirish musiqa asarining muhim deb hisoblangan xossa va belgilarini bir vaqtning o'zida boshqa, muhim bo'lmagan belgi va xossalardan xayolan ajratishdir. Musiqiy anglash jarayonida nafaqat qaysidir musiqa asarini tahlil etish, balki asarning kichik bir qismini alohida o'rganish uchun ajratish zarurati ham paydo bo'ladi. Bu uchun esa mavhumlashtirish qo'llaniladi.

Konkretlashtirish mohiyatan mavhumlashtirish va umumlashtirish jarayoniga qarama-qarshi bo'lgan jarayondir, umumiyga xos bo'lgan umumiydan ongda xususiya o'tishdir. Tafakkurning 3 ta asosiy shakllari mavjud: a) tushuncha; b) fikrlash; v) xulosaga kelish. Tushuncha tafakkur shakli bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy va muhim xossalari aks etadi.

Bir qarorga kelish musiqiy tafakkur shakli bo'lib, unda musiqa asari ijrosining ma'lum jihatlari ta'kidlanadi yoki rad etiladi. Bir qarorga kelishning umumiy, xususiy yoki alohida holdagi shakllari mavjud. Xulosaga kelish musiqiy tafakkur shakli bo'lib, ushbu jarayonda kishi turli qarorlarni taqqoslab, tahlil qilib o'zining yangi qarorini chiqaradi. Bunga misol qilib, ijroni baholash, ikkita ijrodan birini tanlash holatlarini keltirish mumkin.

Xulosaga kelishning ikki ko'rinishi mavjuddir. Bu induktiv va deduktiv xulosaga kelishdir. Induktsiya xususiy qarordan umumiy qarorga kelishga erishish usuli bo'lib, alohida musiqiy fakt va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonuniyatlar va qoidalar o'rnatishdir. Deduktsiya esa musiqa asari borasida umumiy

xulosadan xususiy xulosaga kelish usulidir, alohida musiqiy fakt va hodisalar asosida umumiy qonun va qoidalar o'rnatishdir.

Musiqiy tafakkur ma'lum motivatsiya ta'sirida paydo bo'ladi. Bunda motivatsiya ikki tipga bo'linadi, ya'ni, maxsus musiqiy bilish motivlari va o'ziga xos bo'lmagan motivlar. Maxsus musiqiy bilish motivlari asar ijrosi bo'yicha yangi, nimanidir bilish istagi paydo bo'lganda, masalan qiziquvchan ijrochilarda paydo bo'ladi. O'ziga xos bo'lmagan musiqiy bilish motivatsiyasi tashqi omillar ta'sirida, masalan, o'quvchiga asarning alohida parchasini ijro etish vazifasi qo'yilganda paydo bo'ladi. Lekin, har qanday sharoitda musiqiy tafakkur masalani qo'yish orqali paydo bo'ladi. Bu masala ushbu kishi yoki boshqa kishi tomonidan qo'yilishi mumkin.

Musiqiy fikrlash faoliyati, boshqa psixik jarayonlar singari individual farqlar bilan ajralib turadi. Insonning individual musiqiy tafakkuri xususiyatlari, bu avvalo musiqiy o'qitish jarayonida uni badiiy rivojlantirishdan iboratdir.

Musiqiy tafakkurdagi farqlar aql-zakovatning sifati orqali namoyon bo'ladi. Aql-zakovatning bu ko'rsatkichlari shaxsning o'ziga xos xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi. Musiqiy tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining mustaqil suratda yangi musiqiy vazifalar qo'yishi va ularni echish uchun boshqa insonlarning musiqiy tajribasini ijodiy o'zlashtirib olishi tushuniladi.

Musiqiy tafakkurda quyidagi uslublar ajratib ko'rsatiladi: a) sintetik; b) idealistik; v) pragmatik; g) analitik; d) realistik. Musiqiy tafakkurning sintetik uslubi yangi asar yaratish, ma'qul bo'lmayotganlarini o'zgartirish, fikrda eksperimentlar o'tkazishda namoyon bo'ladi. Musiqiy tafakkurning idealistik uslubi inson intuitiv tarzda amalga oshiradigan, badiiy muammolar ichiga kirmasdan ularga global baho beradigan kishilarda bo'ladi.

Musiqiy tafakkurning pragmatik uslubi o'z shaxsiy musiqiy tajribasiga tayanadigan va badiiy ma'lumotlarni engil egallaydigan kishilarga xosdir. Pragmatiklar yuzaki bo'lsada, badiiy muammolarning tez echilishi yo'llarini axtarishadi.

Musiqiy tafakkurning analitik uslubi musiqiy muammoni har tomonlama ob'yektiv o'rganishga yo'naltirilgandir. Aql-zakovatning analitik uslubiga ega kishi musiqiy muammoni mantiqiy, uslubiy va

chuqur echish uchun intiladi. Musiqiy tafakkurning realistik uslubi faqatgina ma'lum faktlarga tayanadi. Realist uchun faqatgina ko'rish va qo'l bilan paypaslab aniqlash mumkin bo'lgan narsalar "real"dir.

Musiqiy tafakkurni faollashtirish uchun turli usullar qo'llaniladi. Ulardan biri fokal ob'yektlar metodidir. Uning maqsadi ijro jarayonida original g'oyalar qidirishdan iborat. Buning uchun fokal ob'yekt (ya'ni, barchaning diqqat markazida turgan musiqa asari va bir necha tasodifiy asar)lar tanlab olinadi. Ushbu tasodifiy musiqa asarining belgilarini fokal ob'yektlarga ko'chirib, qiziqarli to'qnashuvlarga erishish mumkin.

"Morfologik tahlil metodi" shundan iboratki, dastlab musiqa asarining asosiy xususiyatlari ajratiladi, so'ngra ularning har biri bo'yicha turli variantlar o'rtaga tashlanadi. "Nazorat savollari metodi" esa ma'lum badiiy vaziyatga daxldor, muvaffaqiyatga olib boruvchi savollar ro'yxatini qo'llashni ko'zlaydi.

Musiqiy xotira va uning asosiy jarayonlari. Musiqiy xotira deb insonning oldingi tajribasi orqali idrok etgan, his etgan, o'ylaganligini eslash orqali namoyon bo'ladigan musiqiy aks etish, esda saqlash va esga tushirishiga aytiladi. Bizning miyamiz juda muhim xossaga ega, u nafaqat musiqiy ma'lumotlarni qabul qiladi, balki o'zida saqlaydi va to'playdi. Barcha musiqiy hodisalarning sezgi analizatorlariga ta'siri natijasida miyada hosil bo'ladigan obrazi izsiz yo'qolmaydi. Ular bu musiqiy hodisalar bo'lmaganida ham xotira tasavvurlari shaklida saqlanadi. Musiqiy xotira musiqachi faoliyatida muhim ahamiyatga egadir, ya'ni, musiqiy xotirasi kuchli rivojlanmagan boladan kelgusida yaxshi musiqachi chiqishi mushkul.

Musiqiy xotira tasavvurlari ilgari idrok etilgan, hozir esa fikrda tiklanadigan musiqa obrazidir. Musiqiy tasavvurlar shaxsda ma'lum musiqa borasidagi bilim, ko'nikma va malakalar shaklida amal qiladi. Tasavvurlarning quyidagi turlari mavjud: a) ko'rish; b) eshitish; v) hid bilish; g) ta'm bilish. Musiqiy faoliyatlarda aynan eshitish tasavvurlari amal qiladi va faoliyat sifatiga ma'lum darajada javob beradi.

Xotira tasavvurlari idrok obrazlariga qaraganda albatta kuchsizroq, lekin shunga qaramasdan, ular bizning musiqiy

xotiramiz mustahkam bo'lishiga yordam beradi. Xotira tarkibida alohida jarayonlar mavjud, ular: eslab qolish, esda saqlash, esdan chiqarish, qayta esga tushirish va bilib olishdan iborat.

Ma'lum musiqa asarini eslab qolish fiziologiya nuqtai nazaridan - qo'zg'alish izlarining miyada paydo bo'lishi va mustahkamlanishidir. Shuningdek, u inson ongida mavjud bo'lgan oldingi musiqa materialini bilan aloqa o'rnatilishidir. Miyamizda aks etgan va musiqiy xotirada mustahkam o'rnatilgan alohida voqealar, faktlar, predmetlar va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish assotsiatsiya⁴² deyiladi. Assotsiatsiyasiz insonning psixik hayoti, shuningdek, musiqiy xotira faoliyati normal kechishi amri maholdir.

Esda saqlash o'rganilgan musiqiy materialni miyada saqlash, ya'ni miyada izlar va aloqalarni saqlashdir. Esdan chiqarish xotiradan tashlab yuborish, izlarni yo'qotish, aloqalarni to'xtatishdir. O'z xarakteri bilan qarama-qarshi bo'lgan bu ikki jarayon o'zida bir jarayonning turli xarakteristikalarini, ya'ni, eslab qolish - esdan chiqarishga qarshi kurashni aks ettiradi.

Esdan chiqarish tabiiy va aniq maqsadli jarayondir. Agar u bo'lmasa, bizning miyamiz ko'pgina keraksiz malumotlar bilan to'lgan bo'lar edi. Qayta esga tushirish oldin idrok etilgan musiqiy fikrlar, eslab qolingani musiqa asarlarining xotira tasavvurlari orqali ongda qayta hosil bo'lishi jarayonidir. Bilib olish - qayta idrok etilganda tanib olish hissining hosil bo'lishidir. Qayta esga tushirish bilib olishdan shunisi bilan farq qiladiki, xotirada o'rnatilgan musiqiy obrazlar qayta idrok etishga tayanmasdan "jonlanadi". Bu ikki jarayon bir-biriga o'xshasada farqli tomonlari ham bor.

Xotiraning turlari va darajalari. Xotiraning turlari paydo bo'lishi rang-barangdir. Bu musiqiy faoliyatda xotiraning ahamiyati bilan izohlanadi. Musiqiy xotirani turlar bo'yicha klassifikatsiyalashda uch asosiy mezon tayaniladi: 1) esda saqlash ob'yekti, ya'ni nima eslab qolinadi (musiqa asari yoki uning fragmenti); 2) xotiraning irodaviy yo'naltirilishi darajasi (bunga ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat kiradi); 3) xotirada saqlashning davomiyligi. Bu mezonlarga asosan quyidagi xotira turlari mavjud:

⁴² Assotsiatsiya (lot. – qo'shish): birlashtirish, o'zaro aloqa. Ma'lum predmet, voqea yoki hodisalar o'rtasida qonuniyatli aloqalarning paydo bo'lishi.

a) obrazli xotira; b) so‘z– mantiqiy xotira; v) harakat (motor) xotirasi; g) emotsional (hissiy) xotira.

Obrazli xotira oldin idrok etilgan musiqa ohanglari, asarlar va badiiy-musiqiy hodisalarning esda saqlanishi va qayta esga tushirilishidan iborat.

So‘z–mantiqiy xotira fikrlar, tushunchalar, so‘zlar tuzilishining eslanishi, esda saqlanishi va qayta esga tushirilishida ifodalanadi. Vokal asarlarda matn mazmunini to‘laqonli anglash, uni tahlil etish shu turga xosdir.

Harakat (motor) xotirasi harakat va uning tuzilmalarini eslab qolish hamda qayta esga tushirishda namoyon bo‘ladi. Bu cholg‘uchilarda barmoqlarning klaviaturada, applikatorada, grifda harakat malakalarining shakllanishi orqali aks etadi. Qandaydir harakatni fikrda tasavvur qilish hamisha muskullarning seziladigan harakati orqali namoyon bo‘ladi.

Emotsional (hissiy) xotira oldin his etilgan musiqiy kechinmalarni xotirada aks ettirishdir. Oldin his etilgan salbiy va ijobiy kechinmalar izsiz yo‘qolmaydi. Ular emotsional (hissiy) xotira orqali eslanadi. Musiqiy faoliyatlarda ijro etilgan asarning emotsional manzarasi, ta’sir kuchi xotirada saqlanib qoladi va aynan o’sha emotsionallik va assotsiativlik asosida qayta tiklanadi. Emotsional xotira inson shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Boshdan kechirilgan va esda saqlab qolingan emotsiyalar u yoki bu harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik uchun harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. Emotsional xotira inson ma’naviy rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitdir.

Xotiraning bir nechta darajalari bo‘lib, ularning har birida axborotlar quyidagicha saqlanadi:

Sensor xotira 0,1–0,5 sekund davomida retseptorlar darajalarida ancha aniq ma’lumotlarni o‘zida saqlash imkoniyatiga ega; hozirgina qabul qilingan xotira ma’lumotlari qisqa muddatli xotirada 20 sekundgacha saqlanishi mumkin. Qisqa muddatli xotira asosida qabul qilingan ma’lumotning takrorlanishi natijasida u uzoq muddatli xotiraga aylanishi mumkin. Operativ xotira qisqa muddatli xotira ma’lumotlarini uzoq muddatli xotiraga o‘tkazishga xizmat

qiladi, oraliq xotira esa qabul qilingan ma'lumotni bir necha soat davomida saqlashni ta'minlaydi. Kun bo'yi oraliq xotira ma'lumotlarga to'lib boradi va kechki uyqu vaqtida tozalanadi.

Esdan chiqarishning to'liq, qisman, uzoq muddatli va qisqa muddatli ko'rinishlari mavjud. To'liq esdan chiqarganda musiqiy materialni qayta tasavvur qilish, uni tanib olish mumkin bo'lmaydi. Agar inson voqea–hodisa yoki predmetni xatolar bilan eslasa yoki tanib bilsa, lekin uni qayta tasvirlay olmasa qisman esdan chiqarishga misol bo'la oladi.

Uzoq muddatli esdan chiqarish shundan iboratki, kishi ma'lum musiqiy materialni ma'lum vaqt davomida eslay olmaydi. Agar kishi esdan chiqqan asarni ma'lum vaqtdan so'ng eslasa, qisqa muddatli esdan chiqarish deb yuritiladi.

Esdan chiqarish jarayoni bir tekis kechmaydi - avval u tez, so'ngra sekinroq kechadi. Bunday o'zgaruvchanlikka qaramasdan, psixologiyada reministsentsiya⁴³ fenomeni aniqlangan. Uning mohiyati shundaki, yodlangan material darhol emas, bir-ikki kundan so'ng yaxshi eslanadi.

Esdan chiqarish jarayoniga bir necha omillar ta'sir etadi. Birinchi va eng muhimi, bu vaqtdir. Ma'lumki, esdan chiqarish aynan vaqt davomida yuz beradi. Shuning uchun xotirada mustahkam saqlashning muhim yo'li takrorlashdir. Esdan chiqarish kasbiy musiqiy faoliyat bilan ham bog'liq. Esdan chiqarishning yana bir muhim omili bu mavjud musiqa asarining muhimligi darajasidir. Agar undan foydalanilmasa, u tabiiyki esdan chiqariladi.

Xayol va uning turlari. Xayol inson tomonidan oldin idrok etilmagan voqea va hodisalar obrazining yaratilishidir. Inson oldin hech qachon idrok etmaganini tasavvur qilishi mumkin. Shuning uchun xotira tasavvurlari bilan birga, xayol tasavvurlari yoki xayol mavjuddir. Xayolning zarurligi shundaki, uningsiz inson normal hayot kechira olmas edi, chunki, u o'z faoliyatining natijasini tasavvur etishi zarur. Xayolsiz fan, texnika yoki san'atda taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Xayol faoliyati bo'lmasa inson ko'p

⁴³ Reministsentsiya (lot. – eslash): oldin ma'lum bo'lgan predmet yoki hodisaning alohida elementlari eslanishi.

narsalarni o'zlashtira olmas edi. Xayol faoliyati hamisha real borliqqa daxldordir. Amaliyot – xayol obrazlari mezonidir.

Inson xayoli bir necha ko'rinishlardan iborat: ixtiyoriy va ixtiyorsiz, qayta yaratuvchi va ijodiy xayol shular jumlasidandir. Ixtiyorsiz xayol – xayolning eng oddiy ko'rinishidir. Bunday xayol, bizdan ko'p kuch talab etmaydi: qiziqarli musiqa asarini ijro etib, kishi undagi badiiy obraz namoyon etilishi bilan yashaydi. Ixtiyoriy xayol inson tomonidan yoqimli musiqa asarini ijro etish jarayonida paydo bo'ladi: masalan, cholg'uchi tog' yoki daryolarni ijroda tasvirlab, unda o'zini tasavvur etishga harsakat qiladi.

Qayta yaratuvchi xayol haqida gapirganda, inson o'zi tasavvur etib biladigan narsasi nazarda tutiladi: masalan, o'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi. Xayolning bu ko'rinishi o'qitish jarayonida muhimdir. Musiqiy faoliyatlarda xayolning bu turi muhim bo'lib, musiqa asari notasini ko'rib ham uning ijrosini xayolan tasavvur etish imkoni mavjud.

Ijodiy xayol ijodiy faoliyat jarayonida yangi obrazlarni mustaqil yaratishdan iboratdir. Ayniqsa, musiqa ijod etish, biron musiqa asarini ehtiros bilan, unga qalbidan nimanidir qo'shish orqali ijro etishda ijodiy xayol katta ahamiyat kasb etadi. Shu uchun ham musiqa ijrochiligida ijodiy xayol elementlariga keng urg'u beriladi. Bu esa yuqori malakali ijrochilarni tayyorlashda muhimdir.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Psixik bilish jarayonlarini ta'riflang.
2. Diqqat bilish jarayoni xususiyatlarini gapirib bering.
3. Musiqiy idrok fenomenining xususiyatlarini ta'riflang.
4. Musiqiy tasavvur va tafakkurga ta'rif bering.
5. Musiqachi faoliyatida xotira va xayol bilish jarayonlarining ahamiyati nimalarda ifodalanadi?
6. Analizatorlarning vazifasi nimadan iborat?

MUSIQA SAN'ATIDA SHAXSIY PSIXOLOGIK FARQLAR.

Reja:

1. Musiqachi faoliyatida individual-psixologik xususiyatlar.

2. Musiqiy faoliyatlar muvaffaqiyatida maxsus musiqiy qobiliyatlarning ahamiyati.

3. Musiqiy jarayonlarda irodaviy sifatlarning namoyon etilishi.

4. Musiqiy ijro jarayonida emotsional-psixologik sifatlarning ifodalanishi xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: musiqachi faoliyati, individual-psixologik xususiyatlar, maxsus musiqiy qobiliyatlar, irodaviy sifatlari, emotsional-psixologik sifatlari.

Barcha insonlar genetik va ijtimoiy shartlangan holdagi, faqat o'zigagina xos bo'lgan shaxsiy psixologik farqlarga, ya'ni, individual-psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Ushbu individual-psixologik xususiyatlar har qanday faoliyat turlarida aks etadi. Individual-psixologik xususiyatlarga temperament, xarakter va qobiliyatlar kiradi.

Psixik faoliyat dinamikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatga, his-tuyg'ularga ham bevosita bog'liq. Misol uchun, inson o'zi temperamentning qaysi turiga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, musiqiy faoliyatga layoqatli, mayli kuchli, intilishi qat'iy, qiziquvchan bo'lsa, uni tashkillashtirishda uyushqoqlikni namoyon etadi, ijrosi sifatli amalga oshadi, unga loqayd munosabat bildirsa, ijro jarayonining sur'ati sekin va sifati yuqori bo'lmaydi.

Shaxsdagi individual dinamik xususiyatlar bilan motivlar, psixologik holatlar va hissiy kechinmalarning dinamik xususiyatlari o'rtasida muayyan darajada tafovut mavjuddir.

Temperament to'rtta tipga ajratiladi:

a) kuchli, muvozanatli, epchil;

b) kuchli, muvozanatsiz, epchil;

v) kuchli, muvozanatli, sust;

g) kuchsiz tip.

Rus psixologi B.M.Teplov inson asab jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffiq bo'ldi. U asab-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rganishda maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda

olingan natijalarni matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdi.

B.M.Teplovga ko'ra, insonda hosil qilinadigan shartli reflekslarning ba'zi individual xususiyatlari o'zaro uyg'unlikka ega, o'zaro bog'liq individual xususiyatlar tizimi asab tizimining muayyan xususiyati bilan tavsiflanadi. Musiqa asarlarini kontsertlarda, talaba esa imtihonda ijro etishi uni yodlash darajasi va sifatiga bog'liq bo'ladi. Bu esa reflektor faoliyat bilan bog'liq. Jumladan, o'zaro bog'langan xususiyatlar, birinchidan, shartli reflekslar so'nishi darajasiga, ikkinchidan, qo'zg'ovchilarning kuchli yoki kuchsizligi bilan shartli reaksiyaning hajmi orasidagi tafovutlarga, uchinchidan, asosiy qo'zg'ovchi sezgirligiga notanish qo'zg'ovchini ijobiy (salbiy) ta'sir o'tkazish darajasiga, to'rtinchidan, boshqa ko'rinishdagi yoki kuchlanishdagi qo'zg'alish jarayonlarining kuchiga bog'liqdir.

Shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayoni to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni labillik-beqarorlik deb ataladi. Shuningdek, senzitivlik (*lot.* - sezish, his qilish ma'nosini anglatadi) va reaktivlik kabi taxminlar ham ilgari surilgan.

Jumladan, shartli reflektor faoliyatining o'zaro bog'liq individual xususiyatlari shaxsda qanchalik ko'p namoyon bo'lsa, temperamentning unga mutanosib xususiyati xuddi shu darajada namoyon yoki aks holatda shuncha kam ifodalanishi kuzatiladi, ya'ni:

1) insonda shartli refleks shakllangan bo'lsada, lekin u tez so'na boshlasa;

2) tashqi qo'zg'ovchi shartli refleksda kuchli tormozlanishni vujudga keltirsa;

3) shaxs kuchsiz qo'zg'ovchilarga kuchli qo'zg'ovchilar singari shiddat bilan reaksiya qaytarsa;

4) odam kuchsiz qo'zg'alish jarayoni bilan uyg'unlashgan xususiyatlarni aniqlasa - insonda kuchli emotsional qo'zg'alish hamda diqqatning chalg'ishi yuzaga keladi. Bunday holatda musiqa ijro etish yoki asarni o'rganish tavsiya etilmaydi, chunki musiqiy faoliyat samarasi ana past bo'lishi mumkin.

Temperamentning u yoki bu xususiyati asab tizimining birorta xislati bilan emas, balki xususiyatlarning turkumlari bilan aloqaga kirishadi. Buning ta'sirida asab tizimi xususiyatlarining miqdoriy munosabatlarida temperament xususiyatlari ham sifat o'zgarishi yasaydi.

Ushbu sohadagi tadqiqotlar ko'rsatishicha, temperamentning psixologik tavsifi bilan I.P.Pavlovning tiplari o'rtasida aloqa hukm surishiga hech qanday shak-shubha yo'q. Temperamentning fiziologik asosi asab tizimining umumiy tiplaridir. Ushbu tiplarning barchasi bir xil ahamiyatga molik emasligi tufayli ularning eng asosiylari kuchli va kuchsiz tiplardan tashkil topadi.

Asab tuzilmasi tiplarining kelib chiqishida irsiyat yo'li bilan shartlangan tip genotipdir. Hozirgi davrda asab tizimining umumiy tipi irsiyatga bog'liq ekanligi haqidagi ma'lumotlar ko'p topilgan.

Temperament asab tizimi umumiy tipining asab-fiziologik xususiyatlariga emas, balki:

- a) tashqi ko'rsatkichi gavdaning jismoniy tuzilishiga,
- b) uning ba'zi qismlari o'rtasidagi aloqaga,
- v) organizm turli tarkiblarining munosabatlaridan tuzilgan organizmning umumiy tuzilmasiga bog'liq.

Bu nazariya asoschilari E.Krechmer⁴⁴ va U.Sheldonlar⁴⁵ hisoblanib, ular talqinicha, tana tuzilishi ham, temperament xususiyatlari ham ichki sekretiya bezlari faoliyatidagi o'zaro munosabatlarning nasliy belgilariga bog'liq bo'lib, tana tuzilishi bilan temperament xususiyatlari orasida muayyan mutanosiblik mavjud.

U.Sheldon fikricha semiz, qorin bo'shlig'i takomillashgan inson shodlikka, muloqotmandlikka, to'yib ovqatlanishga moyil xususiyatga ega. Shuningdek, skelet muskullari taraqqiy etgan

⁴⁴ Ernst Krechmer (1888-1964) nemis psixiatri va psixologi, Tyubingen universitetining professori, Marburg (1926) va Tyubingen (1946) nevrologik klinikalarining direktori, ko'pgina ilmiy va meditsina tashkilotlarining faxriy a'zosi. Uning ishlari bir necha marta oliy Xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lgan. Krechmer o'zining xarakterlar klassifikatsiyasi, shuningdek, meditsina psixologiyasi va psixoterapiya sohasidagi tadqiqotlari bilan ma'lumdir.

⁴⁵ Uilyam Gerbert Sheldon (1898-1977) Amerikalik psixolog, temperamentning konstitutsional nazariyasi muallifi.

shaxslar g'ayratli, faol xislatlidir. Shu bilan birga asab tizimi, bosh miyasi o'rta rivojlangan insonlar o'ta sezgir, sertashvish, xayolotga beriluvchan bo'ladilar.

Mulohaza yuritilgan muammo muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, chunki ichki sekretsiya bezlarining tuzilishi tashqi sharoitlarga, ham faoliyat talablariga to'la-to'kis moslasha olmaydi, binobarin u asab tizimiga bir oz muvofiqlashuvi mumkin, xolos. Xuddi shu omildan kelib chiqqan holda Krechmer bilan Sheldon talqiniga yondashilsa, u holda shaxs temperamentining xususiyatlari tashqi ijtimoiy sharoitlarga, faoliyat talablariga muvofiqlashish ehtimoli mavjud.

Temperament tipologiyasi insonlar temperamentlari bo'yicha qiyoslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o'zaro o'xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoyon bo'ladi. Bu asnoda, eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to'g'risida materiallar to'plangan. Ularda temperament tipi deyilganda, insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisi anglanilgan.

Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarining qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Ya'ni, temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi turlicha aks etishi mumkin.

Temperamentning ayrim xususiyatlarini tashqi ko'rinishga qarab o'lchash mumkin. Shaxsning shiddatlilik, tezlik, impulsivlik darajasini ikkita harakatdan bittasini tanlanmaydigan harakatga nisbatan qancha vaqt mobaynida qaror chiqarishga qarab ham aniqlash mumkin.

Har qaysi tip uchun o'ziga xos xususiyatlarning o'zaro aloqasi, har bir alohida xususiyatning sifat tavsifi temperament tipining boshqa xususiyatlari bilan bog'liqligi ham aks etadi. Masalan, o'zini tuta bilmaslik yoki o'zini tuta bilish temperamentning bitta tipi uchun:

- a) ehtirosli shiddat;
- b) jazava va jazavadagi muvozanatsizlikdir.

Bir xil tip uchun o'zini tuta bilish emotsional-irodaviy me'yor bo'lsa, boshqasi uchun ulug'vorlik va vazminlik namunasi bo'lishi mumkin.

Temperament tiplarini psixik xususiyatlar o'rtasida qonuniy munosabatlar tarzida tushunish temperament to'g'risida tushuncha ma'nosiga mos tushadi. Lekin ushbu tushuncha lotincha temperament atamasiga mos bo'lib - nisbat, munosabat degan ma'nosida keladi.

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar bilan aniqlanishi mumkin:

Senzitivlik yuzasidan insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun qo'zg'ovchining ozgina kuchi, ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi aks etadi.

Reaktivlik to'g'risida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi emotsionallik, ta'sirlanuvchanlik ifodalanishidir.

Faollik borasida inson tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda ob'yektiv hamda sub'yektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishiga qarab fikr yuritiladi.

Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'likligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarda kayfiyatga, favqulodda hodisalarga yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi. Reaksiya tempi bo'yicha turli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechishi tezligiga, harakat tezligiga, nutq sur'atiga va aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

Shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik engillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishi, shuningdek, hatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligi (rigidligi)ga nisbatan baho berishdir.

Ekstravertlik va introvertlik. Shaxsning faoliyati va reaksiya ko'p jihatdan nimalarga bog'likligiga, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha timsollarga,

tasavvurlarga, o'tish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga (introvertlik) taalluqliligiga asoslangan holdagi munosabat ifodasidir.

Sangvinik juda faol, har bir narsaga qattiq kulishi mumkin; yolg'on dalillarga jahli chiqadi. Atrofdagi narsalar diqqatini tez jalb etadi. Imo-ishoralarni ko'p ishlatadi, chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish mumkin. Sezgir bo'lishiga qaramasdan, kuchsiz ta'sirni to'liq seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatda, intizomli, o'zini tiya biladi va boshqara oladi. Hatti-harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o'zgaruvchan. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga tez kirishadi. Xayolot va fantaziyasi yuqori darajada rivojlangan, tashqi ta'sirlarga hozirjavob.

Xolerik sust sezitivlik xususiyatiga ega. Juda faol va reaktiv, ko'pincha reaktivligi faolligidan ustun keladi, betoqat, serzarda, tinimsiz. Sangvinikka qaraganda qiziqishlari, intilishlari barqaror, hatti-harakatlarda qat'iylik mavjud, biroq, diqqatni bir joyga to'plashda qiynaladi, nutq sur'ati tez.

Flegmatik sezitivligi sust, his-tuyg'usi kam o'zgaruvchan, bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ko'ngilsiz hodisa, xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladi. Vazmin, kamharakat, imo-ishorasi, mimikasi ko'zga yaqqol tashlanmaydi, lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Diqqatni to'plashi osoyishta, diqqatni ko'chirishi qiyin, introvertlashgan, kamgap, ichimdagini toplardan. Yangilikni qabul qilishi murakkab, tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob qaytaradi.

Melanxolik sezitivligi yuksak, tortinchoq, g'ayratsiz, xafaxon, kam kuladi. Qat'iyli va mustaqilligi zaif, tez toladi, ortiqcha ishchan emas, diqqati barqaror, his-tuyg'usi sust o'zgaradi, introvertlashgandir.

Irsiyat va turmush sharoitlari temperament tiplari o'rtasidagi tafovutlarning sababchisidir. Shuning uchun irsiy fiziologik xususiyatlari bir xil va bitta tuxumdan yaralgan egizaklarning temperament xususiyatlarini ikkita tuxumdan vujudga kelgan

egizaklarning temperament xususiyatlari bilan qiyoslansa, bu tasdiqlanishi mumkin.

Ma'lumotlarga qaraganda, geterozigot egizaklardan farqli o'laroq, gomozigot egizaklar temperament xususiyatlari shunchalik o'xshashki, hatto ular irsiyat yo'li bilan berilish omillarini 85% tasdiqlash imkoniyatiga ega. Tarbiyaviy muhit turlicha bo'lishiga qaramay, o'xshashlik saqlanib qolishi tajribalarda aniqlangan. Shunga qaramasdan, temperamentning ayrim xususiyatlari o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar inkor etilmaydi, unga favqulodda tashqi hamda ichki sharoitlar ta'sir o'tkazadi.

Musiqiy ijrochilik faoliyatida temperament xususiyatlari alohida o'rin tutadi va muvaffaqiyatlarni ta'minlovchi omil sifatida namoyon etiladi. Temperament ayrim xususiyatlarining turmush sharoiti bilan tarbiyaviy ta'sirida o'zgarishi jarayonini temperament tiplarining takomillashuvidan farqlay olish lozim. Temperament tipi xususiyatlari birdaniga paydo bo'lgan narsa emas, chunki asab tizimining takomillashuvi umumiy qonuniyatlari temperamentga ham ta'sir o'tkazib, o'z izini qoldiradi. Shaxsning kamolotiga binoan, temperament xususiyatlari asab tizimining takomillashuvi bilan bog'liq tarzda ro'yobga chiqq boradi va mazkur jarayon temperament rivojini ta'minlaydi.

Temperamentni musiqiy faoliyat talablariga moslashtirish imkoniyati mavjud, chunki, har qanday faoliyat psixik jarayonlar dinamikasiga muayyan talablar tizimini qo'yadi. Bu esa:

1) musiqiy faoliyat turlarini inson temperamentiga mos holda tanlash,

2) shaxsning qobiliyatlarini, individual xususiyatlarini hisobga olish;

3) temperamentga xos kamchiliklar, salbiy illatlarni bartaraf etish;

4) insonlarda individual ijrochilik faoliyati uslubini shakllantirish;

5) shaxsning musiqiy faoliyatiga ongli, faol va ijodiy munosabatda bo'lishi muvaffaqiyatlar garovidir.

Yurak fikrni harakatlantirgani uchun u fikrimiz asosi, jigar esa hissiyotlarimiz asosidir, deb ta'kidlaydi qadimgi xitoy tabiblari. Ular o'sha davrdayoq temperament haqidagi ma'lumotni yaratdilar.

Eramizdan avvalgi VI-asrda yashagan tabib va faylasuf O.Krotonskiy fan tarixida birinchi bo'lib, fikrlarning bosh miyada tug'ilishi to'g'risidagi taxmini ilgari surdi. "Meditsinaning otasi" Gippokrat tafakkur va sezgi organi miya ekanini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, mana shu qism bilan biz fikrlaymiz, yaxshi va yomonni ajratamiz, ko'ramiz, miya sog' holatda bo'lgandagina biz sog' fikrlaymiz.

Gippokratning ishlari orasida shuhrat keltirgani temperament haqidagi ta'limotdir. Unga ko'ra, inson temperamentini organizmdagi 4 xil suyuqlik: miyadagi shilimshiq modda, yurakdagi qon, jigardagi safro va qora taloqdagi qora safroning nisbati belgilab beradi.

Qonning ustunligi - sangvinik temperamentiga (*lot.* - qon), shilimshiq modda ustunligi - flegmatik temperamentiga (*yun.* - shilimshiq modda), safroning ustunligi - xolerik temperamentiga (*yun.* - safro, o't), qora safro ustunligi melanxolik temperamentiga (*yun.* - qora safro, o't) to'g'ri keladi.

Gerofil birinchi bo'lib, asablar, paylar va bog'lamlar o'rtasidagi farqni aniqladi, ko'zning tuzilishini batafsil ta'riflab berdi. Erazistrat bosh miyaning tuzilishini ta'riflab, katta yarim sharlardagi egri-bugriliklarning ko'pligidan odam aqliy jihatdan hayvonlardan ustun turadi, degan fikrga keldi.

Galen Gippokratning temperament ta'limotini yanada rivojlantirdi. U barcha narsalarning 4 xil holati - iliq, sovuq, quruq va nam - 4 xil suyuqlik 13 ta temperamentni keltirib chiqaradi, degan fikrni ilgari surdi. Shu temperamentlarning bittasi normal bo'lib, 12 tasida normadan chekinish mavjudligini tushuntirdi. Demak, yuqoridagi ilmiy fikrlardan kelib chiqqan holda aytish lozimki, shaxsdagi temperament tipi uning musiqiy faoliyat bilan shug'ullanishida alohida o'rin tutadi.

Xarakter shaxsning o'ziga, atrofidagi kishilarga, mehnat faoliyatiga, hayotga va boshqalarga nisbatan munosabatida namoyon bo'ladigan barqaror xossalari tuzilmasidir. Kishining xarakter

xususiyatlari uning barcha qirralari bilan emas, balki barqaror, o'ziga xos tomonlari orqali baholanadi. Musiqachi faoliyatidagi xarakter xususiyatlarini tanlangan mezon asosida turli vositalar orqali tasniflash mumkin, masalan:

1. Musiqiy faoliyatga daxldor bo'lgan belgilar;
2. Boshqa kishilarga nisbatan munosabatga daxldor belgilar;
3. Insonning o'z-o'zini baholashiga daxldor belgilar.

Fanda xarakter tipologiyasini ko'rsatuvchi ko'pgina g'oya va nazariyalar mavjud.

Gipertim tip. Bu aniq ifodalangan jestikulyatsiya (qo'l va tana harakatlari) hamda mimikaga ega kishilardir. Ular harakatchan, tashabbuskor, muloqotmand va shu bilan birga engil o'ylovchi, jizzaki, qat'iy tartibga rioya etishga qiynaladigan, yolg'izlikni yoqtirmaydigan kishilar bo'lishadi. Bular musiqiy faoliyatda ijobiy natijalarni namoyon etishi mumkin.

Distim tip gipertim tipga qarama-qarshi tipdir. Bu tipdagi kishilarga past darajadagi muloqotmandlik, passivlik, pessimizm xos.

Sikloid tipdagi kishilarga esa sababsiz tarzda kayfiyatning o'zgarib turishi xosdir. Bular musiqiy faoliyatlarda o'zgaruvchan xarakter namoyon etishlari orqali uncha ham yuqori natijalarni ko'rsata olmaydilar.

Shuningdek, xarakterning boshqa tiplari ham mavjud, masalan:

- pedantik tip;
- namoyishkor tip;
- ekstravertlashgan tip;
- introvertlashgan tip;
- sadomazoxist tip;
- konform tip;
- fikrlovchi tip;
- hissiyotli tip.

Insonda xarakter xususiyatlari hayotining birinchi kunlaridan shakllana boshlaydi. Unda mazkur inson bilan birga faoliyat ko'rsatuvchi, uning yonidagi kishilar, masalan ota-onasi katta rol o'ynaydi. 2-3 yoshdan 9-10 yoshgacha bo'lgan davrda bola

xarakterida ijobiy xislatlar shakllanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Aynan shu yosh davri musiqiy faoliyatlar bilan shugʻullanish uchun qulay davr hisoblanadi.

Bolaning boshqalarga munosabatini belgilovchi, kommunikativ xarakter xususiyatlari ilk yoshdan shakllana boshlaydi va musiqa bilan shugʻullanishga koʻmaklashadi. Ishchanlik sifatlarini belgilovchi xususiyatlar keyinchalik, bolalar oʻyinlari orqali shakllanadi va bu aynan musiqa va sanʼat maktablarida tahsil olish davriga toʻgʻri keladi. Oʻsmirlik yoshida xarakterning irodaviy sifatleri shakllanadi, maʼnaviy va dunyoqarashga qaratilgan asoslari esa ilk yoshlik davrida shakllanadi.

Inson hayoti davomida tarkib topadigan tuzilma sifatida xarakter insonning butun umri davomida shakllanib boradi. Hayot tarzi oʻzida fikrlar, hissiyotlar, harakatlar va ularni yaxlitlikda ifodalaydi. Shuning uchun, inson hayoti qay darajada kechsa, shu asosda uning “Men”i va insonning oʻzi shakllanadi. Bu erda ijtimoiy sharoitlar va maʼlum hayotiy holatlar katta ahamiyat kasb etadi, chunki insonning hayot yoʻli ular, ularning tabiiy xossalari va harakatlari orqali kechadi.

Biroq, xarakterning shakllanishi bevosita turli darajadagi rivojlanishga ega boʻlgan guruhlarda (oila, maktab, doʻstlar davrasi, turli fan toʻgaraklari, sport jamoasi va boshq.) amalga oshadi. Shaxs qaysi guruhni oʻzi uchun referent guruh sifatida tan olsa va unga intilsa, uning aʼzolarida guruhda ustuvor hisoblanadigan xarakter sifatleri qaror topadi. Xarakter xususiyatlari shaxsning guruhdagi mavqeiga, uning guruhga integratsiyalashuvi darajasiga bogʻliq boʻladi.

Shuning uchun ota-onalar oʻz bolalarini “yaxshi” umumtaʼlim va bolalar musiqa va sanʼat maktablarida, sport sektsiyalarida, toʻgaraklarda, bolalar ijodiyot markazlarida joylashtirishga harakat qiladilar.

Rivojlanishning yuqori darajasi hisoblanadigan guruhdagi singari jamoada xarakterning aʼlo sifatleri shakllanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Bu birgalikda amalga oshiriladigan jarayon boʻlib, u orqali ham shaxs, ham jamoa rivojlanib boradi.

Ijtimoiy ta'sirni aks ettiruvchi xarakter mazmuni shaxsning hayotiy yo'nalganligi bo'lib, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari, qiziqishlari, ideallari va boshqalardan tarkib topadi. Bu erda musiqa o'qituvchisining musiqa borasidagi targ'ibot yo'nalishida olib boradigan ishlari muhim o'rin tutadi. Zero, ustozning fikri bolalar uchun doimo ustuvor ahamiyat kasb etib kelgan.

Hayotiy maqsadlar mavjudligi xarakter shakllanishining asosiy shartidir. Ushbu maqsadlar kattalar, ya'ni, katta hayotiy tajribaga ega ustozlar va ota-onalar ko'magida aniqlashtirib olinishi maqsadga muvofiq, Maqsadlarning yo'qligi yoki pala-partishligi xakteri shakllanmagan insonga xosdir. Biroq, shaxsning xakteri va yo'nalganligi – bu bir narsa emas. Oqko'ngil, vijdonli, quvnoq kishi, shuningdek, xasis, hasadchi kishi ham o'zini saxiy kishi sifatida ko'rsatishi mumkin.

Shaxsning yo'nalganligi kishining hayotiy rejalari, uning hayotiy faolligi darajasi va maqsadlarini belgilaydi. Shaxsning yo'nalganligi xakterning yaxlitligi, birligi, kuchi asosida yotadi. Yo'nalganlik ham yuqorida ta'kidlanganidek, kattalar ko'magida shakllantiriladi va bu insonning butun hatti-harakatlarida o'z aksini qoldiradi. Xulq-atvor faqatgina sabablar orqali emas, balki, munosabatlarning yaxlit tuzilmasi orqali belgilansada, bu tuzilmada har qachon nimadir oldingi planga chiqariladi va bu, kishi xakteriga o'ziga xoslik bag'ishlaydi.

Shakllangan xakterda e'tiqodlar muhim ahamiyat kasb etadi. E'tiqodlilik uzoq muddatli inson hatti-harakatlari, qo'yilgan maqsadlarga erishishi, bajarayotgan ishining muhimligiga ishonchni belgilaydi. Musiqiy faoliyat bilan shug'ullanish ishtiyoqi kuchli ifodalangan bolalar bilan alohida ishlab, ularga qiziqish uyg'otish zarur. Albatta, xakter xususiyatlari insonning qiziqishlari bilan bog'liq. Qiziqishlarning yuzakiligi va beqarorligi ko'pincha taqlid, mustaqillik va shaxsda yaxlitlik etishmasligi natijasida kelib chiqadi. Va aksincha, qiziqishlarning chuqurligi va mazmundorligi shaxsning aniq maqsadga yo'nalganligidan darak beradi. Qiziqishlarning mos kelishi uchun xakterning mos kelishi shart emas. Jumladan, yaxshi musiqachilar orasida quvnoq va g'amgin, egoist va altruist kishilarni uchratish mumkin.

Xarakterni tushunish uchun kishining dam olishi bilan bog'liq qiziqishlari va nimagadir bog'lanib qolganligini bilish ham muhimdir. Ular xarakterning yangi xususiyatlari, qirralarini ochadi. Masalan, taniqli estrada xonandasi, O'zbekiston xalq artisti B.K.Zokirov rasm chizishga, yozuvchi L.N.Tolstoy shaxmat o'ynashga, mashhur fiziolog I.P.Pavlov gorodki, kimyogar olim D.I.Mendeleyev esa sarguzasht romanlar o'qishga qiziqqan. Insonda ma'naviy yoki moddiy ehtiyojlar ustunlik qilishiga qarab, uning intilishlari, rejaları va yo'nalganligini aniqlash mumkin.

Kishi faoliyatining maqsadlari bilan mos kelishi ham muhim ahamiyatga ega, binobarin, shaxsning nafaqat nima qilishi, balki, qanday qilishi ham ahamiyatlidir.

Xarakterni faqat yo'nalganlik va harakat obrazi birligi sifatida tushunish mumkin. Bir xil yo'nalganlikka ega kishilar musiqa ijrochiligida maqsad sari turli yo'llar bilan ketishi, buning uchun o'zlarining usul va vositalaridan foydalanishlari mumkin. Bu har xillik esa shaxs xarakteridagi o'ziga xoslikni ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, xarakter belgisi sifatida individdagi muvaffaqiyat motivatsiyasi yoki muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini ko'rsatish mumkin. Shunga binoan, ba'zi kishilar uchun muvaffaqiyatni ta'minlaydigan harakatlar, tashabbusning namoyon etilishi, musobaqa vaziyati, taxmin qilishga intilish kabilar, shu vaqtning o'zida boshqalar uchun muvaffaqiyatsizlikdan qochish, javobgarlik va tavakkalchilikdan bosh tortish, faollik namoyon etilishidan, tashabbuskorlikdan qochish xosdir.

Inson xakteri ko'pqirralidir. Bu musiqiy faoliyat jarayonida ko'rinib turadi: ya'ni, bir kishi asar notasini ishni tez, boshqasi esa sekin va sifatiga e'tibor berib o'rganadi, uchinchi esa o'ylab o'tirmasdan ijroni boshlaydi va ma'lum vaqtdan so'ng uddalab bilmagach, o'z harakatlarini vaziyatga ko'ra muvofiqlashtiradi. Inson hatti-harakatlarida kuzatiladigan bu xususiyatlar xarakter xislatlari yoki xarakter qirralari deb aytiladi. Xarakterdagi har qanday xislat yoki qirra hatti-harakatning barqaror stereotipidir.

Kishi xarakteridagi asosiy ma'lumotlarni uning ongli xulq-atvori beradi. Shuning uchun kishi xakteri u yoki bu vaziyatda qanday harakatlarni tanlashiga qarab belgilanadi. Biroq, xarakter xislatlari

o'zi namoyon bo'ladigan vaziyatdan alohida holda bo'lishi mumkin emas, ba'zan muomalali kishi ham alohida vaziyatlarda dag'al kishiga aylanishi mumkin. Shuning uchun xarakterning har qanday xislati – bu ushbu hatti-harakat uchun ma'lum, tipik barqaror hatti-harakat shakli bo'lib, o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan musiqiy mashg'ulotlarda ushbu xislatlarni e'tiborga olishi muhimdir.

Inson xarakter xislatlari namoyon bo'ladigan vaziyat bilan birga uning muhim xarakteristikasi, hatti-harakatning bu ko'rinishi ushbu vaziyatga mos kelishining ehtimolligidir. Har qanday xislat haqida inson xarakterining muhim xususiyati sifatida gapirish mumkin. Biroq, ehtimollik shuni bildiradiki, ushbu xislat doimo paydo bo'lmaydi.

Xarakter xislati o'zida badiiy tafakkurning ma'lum usuli, tushunishni aks ettiradi. Musiqiy faoliyatlarda irodaviy mexanizmlar, hissiyotlar kuchga kiradi. Inson hatti-harakatiga ko'ra, bu paytda uning xarakter xislatlari shakllanib, takomillashib boradi. Xarakter xislatlari shakllanishi hatti-harakat motivlari shakllanishidan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Hatti-harakat motivlari amaliyotga joriy etilib, xarakterda mustahkamlanadi.

Har bir barqaror sifatga ega bo'lgan harakatli motiv, bu kelajakdagi rivojlanuvchi xarakter xislatidir. Motivlarda, jumladan, musiqiy faoliyatlar jarayonida xarakter xislatlari dastlab tendentsiyalar shaklida paydo bo'ladi, so'ngra muntazam u bilan shug'ullanish xarakterni barqaror xossalarga aylantiradi. Xarakter xislatlari shakllanishi yo'li xulq-atvor motivlari shakllanishi va ularni mustahkamlashga yo'naltirilgan harakatlar orqali o'tadi.

Xarakterning umumiy xossalari quyidagilar bilan namoyon bo'ladi:

- kuch – kuchsizlik;
- qattiqlik – yumshoqlik;
- maqsadlilik - qarama-qarshilik;
- kenglik – torlik.

Agar xarakter kuchi deganda kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, murakkab vaziyatlarda o'zini qo'lga olib faoliyat yuritishi tushunilsa, xarakterning kuchsizligi deganda -

qat'iyatsizlik, maqsadga erishish yo'lida "asteniklik", ya'ni, qarashlarning beqarorligi tushuniladi.

Xarakterning qat'iyligi – maqsadga erishish yo'lida qat'iy ketma-ketlik, sabr-toqatlilik, o'z qarashlarini qattiq himoya qilish va boshqalar bilan namoyon bo'lsa, xarakterning yumshoqligi o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslasha olish, ba'zi cheklolarga kelib bo'lsada, maqsadga erishish, jo'yali murosaga kelishda namoyon bo'ladi. Yuqoridagi xislatlar musiqiy ijrochilikda ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Xarakterning maqsadlilik va qarama-qarshilik bilan namoyon etilishi xarakterdagi asosiy va ikkinchi darajali xislatlarning uyg'unligi darajasi bilan belgilanadi. Agar asosiy va ikkinchi darajali xislatlar bir-biri bilan uyg'un bo'lsa, qiziqish va intilishlarda qarama-qarshiliklar mavjud bo'lmasa, bunday xarakter maqsadli, agar u kontrast bo'lsa qarama-qarshi xarakter deb yuritiladi.

Xarakterning yaxlitligi, ko'pqirraliligi ko'pgina vaziyatlarda birta kishining o'zida ham turlicha va hatto teskari xossalar bilan namoyon bo'lishini cheklamaydi. Kishi bir paytning o'zida ham nozik, ham talabchan, ham kechirimli, ham qat'iy xarakter sifatlariga ega bo'lishi mumkin. Bunda kishining xarakteridagi yaxlitlik nafaqat saqlanadi, balki ana shunda yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Xarakterni shakllantiruvchi omillar. Shaxsning atrofdagi real borliqqa munosabatlari majmuasidan munosabatlarning xarakterni hosil qiluvchi omillarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Inson xakteri munosabatlar tuzilmasida namoyon bo'ladi:

- boshqa insonlarga munosabatda (muloqotmandlik – yopiqlik, to'g'ri so'zlik – yolg'onchilik, yumshoqlik – dag'allik va h.k.);
- musiqiy faoliyatga munosabatda (mas'uliyat – mas'uliyatsizlik, mehnatsevarlik – dangasalik va b.q.);
- o'ziga nisbatan munosabatda (kamtarlik – o'ziga bino qo'yish, o'z-o'zini tanqid – o'z-o'ziga ishonch va b.q.);
- mulkka nisbatan munosabatda (saxiylik – baxillik, saranjomlik – isrofgarchilik va b.q.).

Ushbu talqinlarning shartlilikini hamda ko'rsatilgan aspektlarning bir-biriga keng ta'sir etishini ham qayd etib o'tish

lozim. Bu munosabatlar bir paytning o'zida xarakterning muhim xislatlari sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan munosabatlar xarakter shakllanishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etsada, ular bir paytning o'zida va asta-sekin xarakter xislatlariga o'tadi. Xarakter xossalarida ma'lum ketma-ketlik mavjud bo'lib, turli munosabatlarni, masalan, boshqa insonlarga va mulkka munosabatni bir qatorga qo'yish mumkin emas. Chunki ularning mazmuni kishining real borliqdagi mavjudligida turli rollarni bajaradi.

Xarakter va jamiyat. Xarakter shakllanishida kishining jamiyatga va insonlarga munosabati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Inson xakteri jamoadan tashqarida, do'stlik, muhabbat va boshqalarsiz to'la namoyon bo'lishi mumkin emas. Musiqiy faoliyatlar bilan shug'ullanish yoshlarda aynan ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirish uchun muhim omil bo'ladi.

Kishining boshqa insonlar bilan o'zaro munosabati uning ma'lum faoliyatga munosabatida - faollik kuchayishi, taranglik, ixtirochilik, yoki aksincha, og'ir-vazminlik, tashabbussizlik orqali hal qiluvchi ahamiyatni namoyon etadi. Boshqa kishilar va faoliyatga munosabat o'z navbatida kishining o'z musiqiy faoliyatiga, o'z-o'ziga munosabatini shartlaydi. Boshqa insonga nisbatan to'g'ri, baholovchi munosabat o'z-o'zini to'g'ri baholashning asosiy shartidir.

Boshqa kishilarga munosabat nafaqat xarakterning muhim qismi, balki shaxs ongi shakllanishining asosini tashkil etadi. Faoliyat o'zgarganda bu faoliyatning nafaqat predmeti, metodi va operatsiyalari, balki shu bilan birga kishining o'z-o'ziga nisbatan munosabati ham qayta quriladi.

Quyida keltirilgan kichik test orqali shakllangan xarakter borasida ma'lum tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Xarakterni aniqlash testi. *Javoblar:* ("ha" javobiga - 1 ball, "yo'q" javobiga - 0 ball beriladi).

1. Siz do'stlikni qadrlaysizmi?
2. Yangilik sizni o'ziga jalb etadimi?
3. Siz yangi kiyimdan eski kiyimni afzal ko'rasizmi?

4. Hech qanday sababsiz siz o'zingizni biror faoliyatga majbur qila olasizmi?

5. Bolaligingizda uch martadan ko'p turli kasblar egasi bo'lishni xohlaganmisiz?

6. Qiyin vazifani echish jarayonida siz o'zingizda ishonchni his etasizmi?

7. Siz nimanidir yig'ish bilan (masalan, kolleksionerlik) shug'ullanasizmi?

8. Siz o'z qaroringizni oxirgi daqiqalarda tez-tez o'zgartirasizmi?

Kalit: 6 balldan yuqori bo'lsa - Siz muvozanatli kishisiz, ba'zan boshlig'ingiz va do'stlaringizga tashvish keltirib turasiz.

3 balldan 6 ballgacha bo'lsa - Sizing xarakteringiz va kayfiyatingiz o'zgaruvchan. Esingizdan chiqarmang, qat'iylik va sabot bilan harakat qilsangiz, hayotda barcha narsaga erishasiz.

3 balldan kam bo'lsa - Diqqat! Nima uchun siz o'z kuchingizga ishonmaysiz? O'zingizga ko'proq ishonishingiz va o'zingizga do'st topishingiz zarur.

Musiqiy faoliyatlarda, ya'ni, yakkanavoz cholg'u ijrochiligi, yakka xonandalik, xor jamoasida yoki orkestr tarkibida ijro jarayonlarida individual-psixologik xususiyatlarning elementlari yaqqol namoyon etiladi.

Barcha mehnat faoliyati turlari ichida alohida ajralib turadigan kasblar, mehnat faoliyati turlari bor-ki, ular maxsus qobiliyatlarni talab etadi. Bularga rassomlik, haykaltaroshlik, texnik ijodkorlik, tashkilotchilik, shular bilan birga musiqiy qobiliyatlar ham kiradi.

Alohida xususiyatlari va talablari bilan namoyon etiladigan musiqiy faoliyatlarning muvaffaqiyati faqatgina rivojlangan maxsus musiqiy qobiliyatlarning mavjudligi va darajasiga bog'liq bo'ladi.

Musiqiy ijro jarayonining barcha shakllarida (yakkanavoz cholg'u ijrochiligi, yakka xonandalik, jamoaviy ijro va boshq.) ijro faoliyatini amalga oshirar ekan, ijrochi musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqiy eshitish tasavvurlari, musiqiy ritmni his etish (sezish, anglash) va unga nisbatan munosabat bildirish olish imkoniyatlariga tayanadi.

Demak, musiqiy faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxsda kuchli musiqiy qobiliyatlar majmuasi bo'lishi asosiy talab sifatida namoyon bo'ladi. Musiqiy faoliyatning barcha ko'rinishlariga nazar tashlaganda, ularning barchasida rivojlangan musiqiy qobiliyatlar asosiy talab sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, maxsus musiqiy qobiliyatlarsiz - musiqiy tovushlarni, musiqiy intonatsiyani tinglab, eshitib uni adekvat anglash, unga baho berish, uni tahlil qilishning imkoni yo'q.

Shu munosabat bilan, musiqiy faoliyatlar borasida gap ketganda, individual psixologik farqlar muhim ko'rsatkich sifatida aks etadi, ya'ni, individual psixologik farqlar deganda aynan maxsus musiqiy qobiliyatlarga ega bo'lganlar va ega bo'lmaganlar farqlari nazarda tutiladi.

Senzitiv davrda (5-7 yosh) bolalarni musiqiy faoliyatlarga jalb etish ulardan kelgusida yuqori professional darajadagi ijrochilarni tayyorlashga imkon yaratadi. Bunda aynan ularning musiqiy qobiliyatlari darajasi tekshirib ko'riladi va unga baho beriladi, shu asosda musiqiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki shug'ullanish samarasi past bo'lishi borasida bolalarning ota-onasiga pedagogik maslahat beriladi.

Musiqiy qobiliyatlar tug'ma, genetik asosga ega bo'ladi va har bir bolada o'zgacha: kuchli yoki o'rtacha ifodalangan tarzda namoyon etiladi. Yuqorida keltirilganlari umumiy xifatlar bo'lib, musiqiy faoliyatlarni cholg'u ijrochiligi, xonandalik, dirijyorlik yoki kompozitorlik kabi faoliyat ko'rinishlariga ajratganda ularning har biri uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar majmuasi yana alohida talablar bilan aks etadi.

Masalan, cholg'u ijrochiligida barmoqlar harakati, ularning sezuvchanligi, harakat reaksiyasining tezligi kabi parametrlar muhim ahamiyat kasb etsa va o'z talablari bilan namoyon bo'lsa, xonandalikda vokal ovozning mavjudligi, vokal tovushlarni intonatsiya qilish mahorati, diktsiya, nafasni to'g'ri yo'naltira olish va o'z o'rnida nafas olish kabi talablar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Dirijyorlik faoliyatida garmonik eshitish, tovushlarning garmonik va melodik harakatlarini to'g'ri eshitib, tahlil qila olish va ijrochi-cholg'uchilar jamoasini boshqara olish, har bir cholg'uchiga

uning ijro etayotgan passajini emotsional jihatdan to'g'ri, aniq va o'z o'rnida ko'rsata olish talab etiladi.

Kompozitorlik faoliyati esa produktiv faoliyat bo'lib, yangi asar yaratish jarayonining psixologik jihatlaridan boxabar bo'lishni taqozo etadi. Bu birinchi navbatda, musiqiy tovushlarning harakati, musiqiy mavzu, intonatsiya, shakl, faktura, musiqiy kayfiyat, musiqiy dramaturgiya, musiqiy tafakkurning o'ziga xos imkoniyatlari va xususiyatlarini bilgan, tasavvur etgan holda asar yaratish deganidir.

Demak, barcha musiqiy faoliyat turlarida musiqiy qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat sifatida muhim ahamiyat kasb etib, ijrochining kasbiy shakllanishida alohida o'rin tutadi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Musiqachi faoliyatida individual-psixologik xususiyatlar qay tarzda namoyon etiladi?

2. Maxsus musiqiy qobiliyatlarga ta'rif bering.

3. Musiqiy jarayonlarda irodaviy sifatlarning ahamiyatini ta'riflang.

4. Musiqiy ijro jarayonida emotsional-psixologik sifatlarning ifodalanishi xususiyatlarini ifodalang.

5. Shaxs temperamentining musiqiy ijro jarayonidagi o'rnini va ahamiyati qay darajada namoyon bo'ladi, misollar bilan tushuntiring.

6. B.M. Teplovning musiqachi faoliyatida musiqiy qobiliyatlarning ifodalanishi borasidagi amalga oshirgan tadqiqot ishlari borasida.

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari.

Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2016. -566 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekiston NMIU, 2016. - 488 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak / O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil 29 dekabr soni. №271-272.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari

1. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 21 aprel soni.

2. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston ovozi gazetasi. 2017 yil 1 iyun soni.

3. “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 9 avgust soni.

4. “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish

to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 17 oktyabr soni.

5. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017 yil 17 noyabr. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 18 noyabr soni.

6. "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil 29 noyabr soni.

Asosiy adabiyotlar

1. Баришникова З.А., Романова Л.Л. Труд учителя музыки: Художественно-педагогическое творчество // Педагогика, 1995. - №2. - С.31-33.

2. Вахриев А.Р. Musiqiy pedagogika va psixologiya. O'quv qo'llanma (Qo'lyozma). T., O'zDK, 2019. - 192 b.

3. G'oziyev E.G'. Psixologiya (yosh davrlari psixologiyasi). O'quv qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 1994. - 224 b.

4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya I-II kitob. Darslik. T., O'zMU, 2002. - 240 b.

5. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: O'quv qo'llanma. T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. - 130 b.

6. Yosh va pedagogik psixologiya. Petrovskiy A.V. tahriri ostida. Darslik. -T.: O'qituvchi, 1989. - 288 b.

7. Иванченко Г.В. Психология восприятия музыки: подходы, проблемы, перспективы. – М.: Смысль, 2001. – 264 с.

8. Кадыров Р.Г. Музыкальная психологиякалупауа pedagogika: Uchebnoye posobiye. - T.: Musiqa, 2008. – 350 s.

9. Qodirov R.G'. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Ma'ruzalar matni. T.: Musiqa, 2005. - 41 b.

10. Qodirov R.G'. Musiqa pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - T.: Musiqa, 2018. - 616 b.

11. Qodirov R.G'. Musiqa pedagogikasi. O'quv qo'llanma. T., O'zDK, 2009.

12. Qodirov R.G'. Musiqa psixologiyasi (ma'ruzalar kursi): O'quv qo'llanma. - T.: Musiqa, 2005. - 80 b.

13. Kukushin A.S. Didaktika (teoriya obucheniya). – Moskva-Rostov Don, 2003.

14. Petrovskiy A.B. Umumiy psixologiya. Darslik. -T.: O'qituvchi, 1992. - 512 b.

15. Litvinenko O.S. Sovremenniy tendentsii v upravlenii muzikalnim obrazovaniem // Mejdunarodniy jurnal eksperimentalnogo obrazovaniya. - 2009. -№5. - S.45.

16. Mixaylichenko O.V. Osnovi obshey i muzikalnoy pedagogiki: teoriya i istoriya: uchebnoye posobiye. - Sumi: Kozatsykiy val, 2009. - 211 s.

17. Muzikalnaya psixologiya i pedagogika: uchebnoye posobiye dlya inostrannix studentov muzikalnix vuzov / Avt.-sost. Jeleznova T.Ya. - N.Novgorod: Izdatelstvo Nijegorodskoy konservatorii, 2015. - 52 s.

18. Samonenko Yu.A. Psixologiya i pedagogika. Ucheb. posobiye dlya vuzov. – M.: YuNITI-DANA, 2001. – 277 s.

19. Xalabuzar P.V., Popov V.S. Teoriya i metodika muzikalnogo vospitaniya: Ucheb. posobiye. - 2-e izd. pererab. i dop. - SPb, 2000. - S.6-13.

Qo'shimcha adabiyotlar

1.Bochkaryov L.L. Psixologiya muzikalnoy deyatelnosti. – M.: IPRAN, 1997.

2.Baxriyev A.R. Musiqiy faoliyatlar psixologiyasi. Monografiya. – T.: Fan, 2010. - 228 b.

3.Baxriyev A.R. O'quvchilarda musiqiy tasavvurlarni shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan. 2007. - 120 b.

4.Kadsin L.M. Muzikalnoye iskusstvo i tvorchestvo slushatelya: Uchebnoye posobiye dlya vuzov. - M.: Vis'shaya shkola, 1990.

5.Nazaykinskiy E.V. Muzikalnoye vospriyatie kak problema muzikoznaniya // Vospriyatiye muziki: Sb. statey. -M.: Muzika, 1980. -S.91-110.

6. Petrushin V.I. Muzikalynaya psixologiya - M.: Gumanitarno-izdatelystkiy tsentr VLADOS, 1997.

7. Semyonov V.V. Sotsialynaya psixologiya iskusstva: Aktualnie problemi. -L.: Izdatelystvo LGU, 1988.

8. Teplov B.M. Psixologiya muzikalynix sposobnostey. M., 1985.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

2. www.edu.uz

3. www.konservatoriya.uz

4. www.dsmi.uz

Glossariy

Globalashuv – musiqiy-pedagogik jarayonlardagi zamonaviy hodisa. Musiqa madaniyati tendentsiyalarining transkontitental darajada namoyon bo‘lishi.

Dars berish — musiqa o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha o‘qituvchining ma’lum tartibga solingan faoliyati bo‘lib, u ko‘rsatish, o‘rgatish, xabardor qilish, tarbiya, anglatish va musiqiy bilimlarni amaliyotda qo‘llash bilan amalga oshiriladi.

Diskussiya – musiqa o‘quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri: ma’lum musiqa asari yoki janri borasida muhokama, bahs yuritish.

Ijodkor shaxs – musiqiy faoliyatda yuqori natijalar ko‘rsatishga intiluvchan va imkoniyati bor shaxs.

Ijodiy hamkorlik — shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika tamoyili bo‘lib, xor yoki orkestrda o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi ijro faoliyati jarayoni.

Ixtisos (musiqada) - insonning hosil qilgan musiqiy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarining majmui. Kishiga muayyan musiqiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Insonparvarlik - musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri.

Kasbiy malaka — musiqa pedagogikasi yoʻnalishida mehnat faoliyatini amalga oshirishga imkon yaratuvchi xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi.

Koʻnikma - malakaning tarkibiy qismi boʻlib, musiqiy ijro harakatining ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda oʻz-oʻzidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va talabalarda koʻp marta takrorlanadigan musiqiy ijro mashqlari natijasida yuzaga keladi.

Madaniyatlararo oʻzaro taʼsir — stereotip xulq-atvor orqali bir vaqtning oʻzida tabiiy va ijtimoiy jarayonlar bilan shartlangan, bir-biriga oʻzaro taʼsir etuvchi madaniyatlar taʼsiri.

Madaniy meros - avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq musiqa madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda maʼnaviy boyliklar majmui.

Malaka - ongli ravishda bajariladigan musiqiy ijroning bir xil, koʻp marta takrorlanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy elementidir.

Maktab madaniyati — pedagogik jamoa va uning alohida aʼzolari hatti-harakatlarini boshqarishga yoʻnaltirilgan munosabatlar tuzilmasi; maktab jamoasiga xos boʻlgan jamoaviy kayfiyat va mentallik.

Metodologiya - 1) musiqiy tadqiqotlarni rivojlantirishning umumiy yoʻnalishi, maqsadi, chegaralari va tamoyillarini aniqlab beradi; 2) musiqiy bilishning ilmiy metodi haqidagi taʼlimot.

Monitoring — musiqiy qobiliyatlar namoyon boʻlishi hodisasini eksperimental aniqlash yoki amaliy faoliyatda kuzatish.

Motiv — 1) musiqiy tinglovchilik ehtiyojlarini qondirish bilan bogʻliq faoliyatga undash; 2) ichki va tashqi shartlar birligi, subʼyektning musiqiy faolligini chaqiruvchi va uning yoʻnalganligini belgilovchi ichki sharoitlar; 3) shaxsning musiqiy harakat va amallarni tanlashi asosida yotuvchi anglangan sabab.

Maʼnaviy tarbiya - insonda barqaror va uygʻun holdagi rivojlanishni taʼminlaydigan, hayotga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish.

Nazorat — 1) qo‘yilgan maqsadlardan og‘ishni aniqlash va kuzatish; 2) ishning haqiqiy ahvoli borasida qabul qilingan qarorning muvofiqligi darajasini aniqlash.

Nutq qobiliyati - nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o‘z badiiy fikr va tuyg‘ularini aniq hamda ravshan ifodalash qobiliyati.

Odat – jamoadagi ichki munosabatlarni tartibga soluvchi mezon va an’analar majmuasi.

Odob - xulq-atvor, yurish-turish madaniyati.

Odob-axloq - shaxsdan o‘ziga va dunyo munosabatlariga olib boruvchi hatti-harakatlarning belgilangan usuli bo‘lib, shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.

Omil — sabab, qaysidir musiqiy jarayonni xarakterlovchi va uning alohida qirralarini harakatlantiruvchi kuch.

Pantomimika - gavda, bosh, qo‘l va oyoq harakati.

Pedagogika — fan, u o‘qitish, tarbiyalash, insonni rivojlantirish masalalari bilan shug‘ullanib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatdagi faoliyat va hayotga tayyorlaydi.

Pedagogik antropologiya — tarbiyalashning falsafiy asosi bo‘lib, tarbiya tuzilishini tabiatning yaxlitligiga muqoyasa qilib tushuntiradi.

Pedagogik ta’sir - o‘qituvchining qo‘yilgan musiqiy vazifalarni samarali bajarishni ta’minlash maqsadida tarbiyalanuvchilar ongi, irodasi va emotsiyalariga ta’siri.

Pedagogik aksiologiya - ta’lim, tarbiya va shaxs rivojlanishidagi pedagogik qadriyatlarni o‘rganadigan pedagogika bo‘limi.

Pedagogik jarayon - ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, kattalarning pedagogik faoliyati ta’sirida tashkiliy shakllantirilgan, mazmunan boyitilgan hamda tarbiyaning yo‘naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o‘z-o‘zini taraqqiy ettirishidir.

Pedagogik faoliyat — pedagogik jarayonda tarbiya, rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash, shuningdek, o‘zini erkin ifodalash uchun tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishini ta‘minlovchi kasbiy faoliyatdir. Pedagogik faoliyatning asosiy muammosi – o‘qituvchining talablarini talabalarning imkoniyatlari, istaklari va maqsadlari bilan uyg‘unlashtirishdir.

Pedagogik kasbiy burch — o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishni ta‘minlaydigan axloqiy talablar tuzilmasi.

Pedagogik vazifa — paydo bo‘lgan pedagogik vaziyatni anglash va shu asosda ma‘lum qarorga kelish hamda zaruriy harakatlar rejasini tuzish.

Pedagogik madaniyat — bu umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo‘lib hisoblanadi va uch aspektda: aksiologik, faoliyatli va shaxsiy jihatdan namoyon etiladi.

Pedagogik madaniyatni o‘rganish metodlari — 1) o‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchi shaxsi va faoliyatini o‘rganish metodlari: pedagogik kuzatish, rejalarni o‘rganish, o‘qituvchining hujjatlari, mustaqil xarakteristikalar metodi, suhbat va h.k.; 2) pedagogik madaniyatni maxsus diagnostika qilish metodlari: diagnostik vaziyatlar, anketa, reyting, test va boshqalar.

Pedagogikaning qismlari – 1) Pedagogikaning umumiy asoslari; 2) Ta‘lim va o‘qitish nazariyasi (didaktika); 3) Tarbiya nazariyasi; 4) Maktabshunoslik (o‘qitish, tarbiyalashni tashkil etish va boshqarish).

Pedagogikaning tarmoqlari - umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, xalq pedagogikasi, maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, oliy va o‘rta maxsus pedagogikasi, kattalar pedagogikasi, xususiy pedagogika yoki fanlar uslubiyotlari (mas. musiqa pedagogikasi va metodikasi), maxsus pedagogika yoki defektologiya; a) surdopedagogika (kar va soqovlar uchun), b) tiflopedagogika (ko‘zi ojizlar uchun), v) oligofrenopedagogika (aqli zaiflar uchun).

Pedagogik madaniyatning shakllanganligi darajasi — o‘qituvchi tomonidan shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish va uni amalga oshirish uchun kasbiy faoliyat tajribasi va uni pedagogik o‘zini-o‘zi takomillashtirish asosida tasarruf etish. Pedagogik madaniyatning

shakllanganlik darajasi - alohida ajratilgan tarkibiy qismlari bilan, ularning o'qituvchi tomonidan anglanganligi bilan, o'zini-o'zi takomillashtirishning barqaror ehtiyojlari bilan ajralib turadi.

Pedagogik madaniyatning quyidagi darajalari ajralib turadi:

yuqori daraja — unda pedagogik madaniyatning barcha tarkibiy qismlari birlikda, yagonalikda ongli va doimiy namoyon bo'lib turadi. O'qituvchi uchun o'zining pedagogik madaniyatini muntazam oshirib borish ehtiyoji, faol kasbiy faoliyatga va o'zini o'zi takomillashtirishga doimiy intilish xosdir;

o'rta daraja — unda pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlari to'liq shakllanmagan, ular etarlicha anglanmagan, shuningdek, etarlicha pedagogik faoliyat tajribasi shakllanmaganligi kuzatiladi, vaziyatga bog'liqlik, maxsus yo'naltirilgan o'zini-o'zi tarbiyalashga ehtiyoj hali shakllanmagan;

past daraja — unda pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlari shakllanmagan yoki umuman mavjud emas, tanlangan kasb bo'yicha ijtimoiy ahamiyatli motivlar shakllanmagan, o'zining kasbiy mahoratini oshirishga ehtiyoj sezilmaydi.

Pedagogik mahorat — shaxsning xossalari kompleksi bo'lib, o'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi tasarruf etishining yuqori darajasi. Pedagogik mahoratni rivojlantirishning asosi chuqur bilimlar va kasbiy yo'nalganlik bo'lib, uning muvaffaqiyatliligi pedagogik qobiliyatlarga bog'liq, unga yaxlitlik bag'ishlovchi vositalar, o'qituvchining kasbiy faoliyati natijadorligi pedagogik texnika sohasidagi malakalarni tashkil etadi.

Pedagogik tafakkur — bu o'qituvchining talaba pozitsiyasidan turib tafakkur qilishidir, ya'ni talabalarning xulq-atvor motivlarini, qiziqishlari yo'nalishlari, ehtiyojlari, ichki olamini bilishidir.

Pedagogik pozitsiya — pedagogik madaniyatning birlashtiruvchi tarkibi, integrativ komponenti bo'lib, bu talabaning madaniy muhitda o'z-o'zini takomillashtirishiga olib keladi hamda o'qituvchi shaxsining talabalar bilan pedagogik faoliyati jarayonida muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishi shartlaridan biridir.

Pedagogik qobiliyatlar - o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlari bo'lib kasbiy pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish shartlaridan biridir.

Pedagogik ijodiyot - o'quv-tarbiya ishlarining yanada takomillashtirilgan shakllarini izlash, pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli echish, talabalarni o'qitish va tarbiyalashning sifatini oshirishga yo'naltirilgan faol jarayondir.

Pedagogik takt — o'qituvchining talabalarga maqbul pedagogik ta'sir chorasi, o'qituvchining talabalar bilan samarali muloqot o'rnatishi uslubidir. Pedagogik takt o'qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratidir.

Pedagogik etika — o'qituvchining xulq-atvori va dunyoni anglashining o'ziga xos nizomi bo'lib, o'qituvchi faoliyati jarayonida yaxshilik va yomonlikni tanlashga imkon yaratadigan, umuminsoniy qadriyatlar va pedagogik faoliyat qadriyatlariga asoslanadigan axloqiy talablar birligidir.

Psixologik to'siq - ma'lum faoliyat yoki harakatni amalga oshirishga, alohida inson yoki kishilar guruhi bilan muloqot qilishga qarshilik qiluvchi motiv.

Professiogramma - kasblarning turli mezonlar bo'yicha klassifikatsiyasi va tavsifi.

Reprezentativlik — statistik jihatdan asoslanganlik.

Respondent — anketa savollariga javob beruvchi kishi.

Rivojlanish — sub'yekt va ob'yektlarning sifat jihatidan o'zgarishi, mavjudlikning yangi shakllari, innovatsiyalar va yangiliklarning, ulardagi ichki va tashqi aloqalarning takomillashishi.

Refleksiya — o'z shaxsiy kechinmalari, sezgilari va fikrlari yuzasidan mulohaza yuritish shaklidagi o'z-o'zini anglash.

Semantik — mazmunga qaratilgan, so'zning ahamiyatiga mansub.

Seminar - bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

Suhbat — 1) talabalarni savol-javob asosida hatti-harakatlarni tahlil qilish va axloqiy baholar ishlab chiqishga, muhokamaga yo‘naltiruvchi metod; 2) verbal (og‘zaki) kommunikatsiya asosida ma‘lumot olishga asoslangan metod; 3) o‘qitish metodi ko‘rinishlari: o‘rganilgan materialni mustahkamlash, o‘rganilgan materialni takrorlash orqali tekshirishga qaratilgan, evristik, qidiruvchi, ya‘ni talabalarning egallangan, mavjud bilimlariga tayaniladigan reproduktiv metod, o‘qituvchi talabalarni yangi tushunchalarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi.

Talabalarning alohida tiplari - empiriklar, analitiklar, ratsionalizatorlar, mantiq egalari, ijrochilar, tashkilotchilar, eruditlar, g‘oya yaratuvchilar, romantiklar, taqlidchilar, fikrni tez ilg‘ab ketadiganlar.

Tarbiya - keng qamrovli tushuncha bo‘lib, avloddan-avlodga ijtimoiy tarixiy tajribalarni yetkazish borasidagi faoliyat, shaxs shakllanishiga uzluksiz, maqsadga muvofiq, izchil ta‘sir etish orqali mustaqil harakatga, ishlab chiqarish, foydali, unumli mehnatga tayyorlashdir. Tarbiya ta‘limsiz amalga oshmaydi. Ta‘lim berishdan maqsad, uning izidan tarbiya berishdir, ya‘ni ta‘lim orqali egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatiladi.

Tarbiyada yosh nuqtai nazaridan yondashuv — shaxs rivojlanishi qonuniyatlari va ulardan foydalanish, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liq o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Tarbiya (ijtimoiy hodisa sifatida) — barcha ijtimoiy institutlar, ommaviy axborot vositalari, madaniyat o‘choqlari, oila, mahalla, uzluksiz ta‘lim va tarbiya maskanlari tomonidan o‘sib kelayotgan yosh avlodga ijtimoiy-tarixiy tajribani singdirishning murakkab jarayoni.

Tarbiya (pedagogik hodisa sifatida) —

1) ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan, talabaning yuqori darajadagi rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan, uning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga kirib borishiga ko‘maklashadigan, shaxs sifatida o‘z hayotini, uning motiv va qadriyatlarini shakllantirishiga qaratilgan o‘qituvchining kasbiy yuqori darajadagi faoliyati;

2) maxsus tayyorlangan mutaxassislar ko‘magida o‘quv-tarbiya muassasalarida shaxsga ta‘lim berish maqsadida yaxlit, ongli tashkil etilgan pedagogik jarayon;

3) bolalar va kattalarga ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta‘sir etishning ochiq tuzilmasi. Bunda bolalar ongiga ma‘lum ijobiy o‘zgarishlar kiritish mumkinligini nazarda tutganda, ularni optimal rivojlantirish (bolalar ham tarbiya sub’yekti, ham ob’yekti bo‘lib qoladi);

4) tarbiyalanuvchiga turli vaziyatlarda tanlash va o‘z yo‘lini topish imkoniyati singari muqobil xulq-atvor va hatti-harakatlar usullarini taklif etish (qoldirish);

5) shaxsni rivojlantirish, uning ijtimoiy muhitda xarakter sifatleri, munosabatlari, qarashlari, e‘tiqodi, hatti-harakati usullari rivojlanishi va shakllanishiga qaratilgan maxsus yo‘naltirilgan ta‘sir jarayoni va uning natijasi;

6) talaba tomonidan madaniy ne‘matlar va qadriyatlarni o‘zlashtirish, tarbiya maskanlari, ijtimoiy muhit va institutlar tomonidan o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil ta‘lim olishi maqsadida uning imkoniyatlarini rag‘batlantirish orqali ushbu tajribalarni uning o‘zlashtirishi va o‘ziga singdirib olishi uchun sharoitlar yaratish jarayoni;

7) (tor, qisqa ma‘noda) aqliy, yo‘naltirilgan va h.k. yaxlit tarbiyaviy jarayondir.

Tarbiyalanganlik — bilim, e‘tiqod, xulq-atvor ko‘rinishlari muvozanatida, ijtimoiy ahamiyatli sifatlar bilan namoyon bo‘ladigan shaxsning rivojlanish darajasi. Tarbiyalanganlik – shaxsning bugungi rivojlanish darajasi bo‘lib, u tarbiyalanishdan, ya‘ni shaxsning potentsial darajasidan, uning yaqin rivojlanish zonasidan farq qiladi.

Tarbiyaviy ish — bolalar va kattalar hayotini muvaffaqiyatli tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, u o‘z oldiga to‘laqonli rivojlangan shaxsni yaratish maqsadini qo‘yadi. Tarbiya jarayoni tarbiyaviy faoliyat orqali amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy munosabatlar — insonlar orasidagi munosabatlar ko‘rinishi bo‘lib, ma‘naviy va axloqiy o‘zaro tarbiyaviy faoliyat orqali takomillashtirish va rivojlantirishda shakllanadi.

Tarbiyalash imkoniyati mavjudligi — insonda nisbatan jadal, qiyosiy tarzda - bilish, emotsional yoki xulq-atvor malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlik imkoniyati mavjudligi.

Tarbiyalovchi (ta’lim) - dunyoqarashni, axloqiy-estetik tasavvurlarni va e’tiqodni shakllantiruvchi ta’lim.

Tarbiyaning asosiy qonuni - o‘sib borayotgan avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi sifatida tarbiyalash, ularning ijtimoiy hayotga qo‘shilishini ta’minlab berishda amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir.

Tarbiyaning maqsadi - jamiyatning alohida shaxsga bo‘lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablari, o‘ziga xosligi va fazilatlari, hayotga munosabatining aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik rivojlanishini nazariy va amaliy umumlashtirishdir.

Tarbiyaning ob’yektiv qonuniyatlari - o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ijtimoiy hayot, shaxsning o‘ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg‘un an’analardir.

Tarbiyaviy muhit - inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning tizimi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir-birini boyitishi va muvofiq kelishidir.

Tarbiyalash uslublari - jamiyatda qabul qilingan hatti-harakatlar, muloqot, munosabatlar tizimi va talablarini yoshlar ongiga singdirishga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sir.

Tarbiya kontseptsiyasi — bu g‘oyalar majmuasi bo‘lib, tarbiya jarayonining mohiyati va maqsadini, shuningdek, o‘qituvchilar va talabalarning pedagogik jarayondagi ta’sir usullari va pozitsiyalarini ochib beradi.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari — 1) estetik, jismoniy tarbiya shakllari va h.k.; 2) guruhiy, ommaviy va individual ishtirokchilar soniga bog‘liq bo‘ladi.

Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi — yagona asos bilan tartib berilgan tarbiya metodlari. Asosan shaxsga nisbatan faoliyatli yondashuvga asoslangan tarbiya metodlari keng qo‘llaniladi.

Ta’lim — a) insonning ma’naviy qiyofasini aks ettirib, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar ta’sirida shakllanadi. Ta’limda bola va katta yoshdagi kishining o‘zaro bir-biriga ta’siri, shuningdek,

madaniy qadriyatlarni mustaqil o'zlashtirish jarayonining rivojlanishi uchun ichki va tashqi shart-sharoitlar yaratiladi.

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar.

Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li.

Ta'limning tarbiyalovchi xarakteri - o'qitish jarayonida talabalar orttirgan bilim va ko'nikmalar bilan ularning dunyoqarashi, insoniy fazilatlarini rivojlantirish orasida bog'lanishlarga erishilishini ta'kidlovchi pedagogik qonuniyat.

Ta'limda faollik - ta'lim jarayonida talaba shaxsining faolligi, ta'lim jarayonining sub'yekti ekanligini aks ettiruvchi didaktik jarayon.

Ta'lim xodimlarining malaka kategoriyalari — o'qituvchiga professional vazifalarni echish uchun imkon yaratuvchi, me'riy mezonlarga mos keluvchi malaka darajasi.

Ta'limni insonparvarlashtirish — o'qitishning mazmuni, shakli va metodlariga insonparvarlik g'oyalarini keng singdirish; ta'lim berish jarayonida shaxsning har tomonlama va erkin rivojlanishi, uning jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash.

Ta'lim falsafasi — ta'limni aksiologiya, ontologiya, gnoseologiya va antropologiya nuqtai nazaridan ko'radi.

Talablar darajasi — ongli tarzda tanlanadigan, vazifaning murakkabligi darajasida namoyon bo'ladigan shaxsning o'zini-o'zi baholashi.

Tolerantlik — bu boshqa kishilarning harakatlari, e'tiqodi va madaniyatini amaliy tarzda tan olish va hurmat qilish qobiliyatidir.

Tuzilish — yaxlitlikni ta'minlovchi ob'yektning ko'pgina qismlari orasidagi barqaror aloqalar birligi.

Umumpedagogik tayyorgarlik - pedagogik kategoriyalar va metodologik asoslar haqidagi bilimlarni shakllantirishdir.

Umummadaniy kompetentlik — mustaqil ta'lim olishda paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish va o'z pozitsiyasini aniqlashtirib olish.

Fan — tabiat, jamiyat va tafakkur borasidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik faoliyati.

Faoliyatli yondashuv — predmetli, qayta yaratuvchi faoliyatda shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyili.

Faoliyat — olam va insonning o'zini anglash va qayta yaratishga yo'naltirilgan psixik faollik shaklidir. Faoliyat yana kichik birliklar – harakatlardan tashkil topadi va ularning har biri o'z vazifasiga ega. Faoliyat o'zida maqsad, motiv, usullar, sharoitlar va natijani aks ettiradi.

Xalq pedagogikasi - avloddan-avlodga og'zaki ijod namunalarida o'tib kelayotgan, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy muhit ta'sirida to'plangan, to'planayotgan va hayot tajribasida sinalgan pedagogik qarashlar, bilim, ko'nikma, malakalar keltirib chiqargan tarbiyaning usul, uslub va uslubiyatlaridir.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'yekti bo'lmish individdir. Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif - uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorligi, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'yekt, ham sub'yekt bo'lishdir.

Shaxsning rivojlanishi — sub'yektivlikni ta'minlaydigan, shaxs ongining qadriyatli mazmunli rivojlanishi.

Shaxs kartasi — shaxsning asosiy xossa va sifatleri mazmuni tartibga solingan xarakteristika.

Shaxsning sifati — o'zining barqarorligi bilan ajralib turadigan, biroq, shakllantirish mumkin bo'lgan shaxsning umumlashtirilgan xossalari.

Shaxsning faolligi — shaxsning olamga nisbatan faoliyatli munosabati, insoniyat tomonidan erishilgan madaniy tarixiy tajribani egallash natijasida moddiy va ma'naviy muhitda ijtimoiy ahamiyatli o'zgarishlar yasash qobiliyati.

Shaxsning o‘zini ijodiy rivojlantirishi — sub’yekt-sub’yekt munosabatlari bilan namoyon bo‘ladigan ijodiy faoliyatning o‘ziga xos shakli. Unda o‘zini-o‘zi bilish, o‘zini-o‘zi boshqarish, ijodiy o‘zini-o‘zi anglash, ijodiy o‘zini safarbar etish va shaxsning o‘zini-o‘zi takomillashtirishi muhim o‘rin tutadi.

Shaxsning shakllanishi — shaxsning tarbiya, o‘qitish va ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanishi va shakllanishi jarayoni.

Empatiya — boshqalarning tashqi kechinmalariga emotsional hamdardlik, bevosita emotsional achinish hissi.

Estetik tarbiya — insonning hayot va san’atda go‘zallik qonunlari asosida yaratuvchanlik bilan mashg‘ul bo‘lish qobiliyatini takomillashtirish.

Estetik did - shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladigan murakkab hodisa.

Estetik ideal - shaxsning tabiat, jamiyat va san’atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go‘zallik borasidagi bahosining aks etishi.

Estetik tuyg‘u - shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishi.

O‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari - yangi, progressiv g‘oyalar va tendentsiyalar paydo bo‘lishi; o‘qitish metodlari, ta’limning shakli, vosita va mazmunini yangilashdir.

O‘qitish — qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yo‘naltirilgan, o‘qituvchi va talabaning tartibga solingan birgalikdagi harakati.

O‘qitish va tarbiyalashni insonparvarlashtirish — pedagogik diqqat markazida talabalarning muammo va qiziqishlari qo‘yilishidir.

O‘qituvchining kasbiy ahamiyatli sifatlari — u o‘zida o‘qituvchi shaxsining yo‘nalganligini, pedagogikz mehnatga munosabatini, o‘zini boshqarishini aks ettiradi.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
1-modul. Musiqa pedagogikasi.	
Kirish. Musiqa pedagogikasi muammolari.....	5
Musiqa pedagogikasining predmeti.....	12
Shaxsiy musiqiy rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish.....	18
Musiqiy-pedagogik jarayon.....	25
Musiqiy ta’lim berish va o‘qitish nazariyasi.....	31
Musiqa o‘qitish jarayoni.....	36
Musiqa o‘qitish printsiplari va metodlari.....	43
Musiqa o‘qitish shakllari.....	55
Musiqa tarbiyasi printsiplari va metodlari.....	62
Musiqa vositalari bilan axloqiy, ma’naviy, mehnat, jismoniy tarbiyalash.....	70
Estetik, badiiy, musiqiy tarbiyalash.....	76
Musiqiy tarbiya va ta’lim tizimida boshqarish va tashkil etish....	82
Musiqachining pedagogik faoliyati va vazifalari.....	85
2-modul. Musiqa psixologiyasi. Musiqa psixologiyasining umumiy asoslari.....	99
Musiqachining shaxsiy fazilatlari va faoliyati.....	102
Musiqa san’atida bilish jarayonlari.....	124
Musiqa san’atida shaxsiy psixologik farqlar.....	140
Adabiyotlar.....	159
Glossariy.....	162

Axmad BAXRIYEV

MUSIQIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

*5111000-Kasb ta'limi 5150600-Vokal san'ati (turlari bo'yicha);
5111000-Kasb ta'limi 5150700-Cholg'u ijrochiligi
(turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun
O'quv qo'llanma*

Musahhah	<i>M. Yunusova</i>
Texnik muharrir	<i>N. Ismoilova</i>
Badiiy muharrir	<i>Sh. Odilov</i>
Kompyuterda tayyorlovchi	<i>B. Ashurov</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 126. 12.11.2008.

“Musiqqa” nashriyoti, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 1.

Bosishga ruxsat etildi 12.12.2019. Bichimi 60 x 84 1/16.

Times New Roman garniturasida. Shartli b.t. 11.

Adadi 350 nusxa (1-zavod 50 nusxa). Bahosi shartnoma asosida.

“Complex Print” MCHJda chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 24.

